MIXAIL LAKERBAY

ABXAZ HIKOYALARI

Ruschadan o‘zbek tiliga
RUSTAM SHARIPOV
tarjimasi

TOSHKENT – 2022

Mixail Lakerbay. Abxaz hikoyalari. - T., TDSHU, 2021. – 108 b.

Ushbu kitobdan taniqli abxaz yozuvchisi Mixail Lakerbayning oʻzbek tiliga tarjima qilingan ixcham, milliy ruh bilan sugʻorilgan, oʻrni-oʻrnida yumorga boy hikoyalari oʻrin olgan boʻlib, ularda yozuvchi abxaz xalqining oʻziga xos xususiyatlarini ochib berishga muvaffaq boʻlganligi oʻquvchi e'tiboridan chetda qolmaydi.

Mazkur tarjima kitobi adabiyot ixlosmandlari bilan bir qatorda, xorijiy tillarni oʻqitishga ixtisoslashgan oliygoh talaba va magistrantlariga "Badiiy tarjima", "Matn stilistikasi va tahriri", "Yozma tarjimaning lingvistik tahlili", "Matn tarjimasi va tahriri" fanlarini o'qitishda manba sifatida foydalanish uchun moʻljallangan.

Tarjimon, soʻzboshi muallifi va nashrga tayyorlovchi:
Rustam Sharipov

Mas'ul muharrir:

filologiya fanlari doktori (DSc)
Xayrulla Hamidov

Taqrizchilar:

filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
Nilufar Xodjaeva;

filologiya fanlari doktori (DSc)
Hulkar Xamroeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2022 yil 7 apreldagi majlisi
qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© R.Sharipov, 2022
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022.

EHTIROSLI QALB SOHIBI

Bundan qariyb o‘ttiz besh yil muqaddam Fanlar akademiyasi va oliy ta’lim tizimlarida faoliyat olib borayotgan biz bir guruh o‘zbekistonlik yosh olimlar Kavkaz respublikalaridan biriga butunittifoq ilmiy-amaliy konferentsiyada ishtirok etish uchun borgandik. Anjuman ochilib, sektsiyalar bo‘yicha ish o‘z maromida borayotgan kunlardan birida, tashkilotchilar tomonidan mehmonlar uchun shaharning diqqatga sazovor joylari bo‘ylab sayohat uyushtirildi.

Shahar kichik bo‘lishiga qaramay, ancha obod va fayzli edi. Uning eski qismida aylanib yurar ekanmiz, pastqamgina bir binoda kitob do‘koni joylashgan ekan, unga kirdik. Rastalarda tahlab qo‘yilgan kitoblarni birma-bir ko‘zdan kechirar ekanman, mo‘jazgina bir kitobcha e’tiborimni o‘ziga tortdi. To‘g‘risini aytadigan bo‘lsam, kitobning o‘zi emas, uning nomlanishi va muallifning ismi-sharifi menga antiqa ko‘rindi – Михаил Лакербай “Тот, кто убил лань”.

Uni qo‘lga olib, varaqlay boshladim. Kitobcha novellalardan iborat ekan. Odatda do‘konda yangi kitob qo‘lga olinganida uning ayrim sahifalari varaqlanib, u yer-bu yeriga ko‘z tashlanib, tasavvur hosil qilingach, “Ha, dunyoda shunday kitob ham bor ekan-da,” degandek astagina rastaga qaytib qo‘yiladi. Ammo, bu safar bunday bo‘lmadi...

Bir lahzaning o‘zida yozuvchining bir nechta novellasini daqiqa sayin ortib borayotgan qiziqish va e’tibor bilan o‘qib chiqishga majbur bo‘ldim. To‘g‘rirog‘i, muallifning iste’dodli qalami yaratgan yorqin obrazlar va eng asosiysi uning o‘zi hikoya qilayotgan voqealarga nisbatan munosabati, insonga xos bo‘lgan mardlik, erkaklik g‘ururi, or-nomus, mehr-muhabbat, kavkazliklarga xos bo‘lgan vazmin falsafiy mushohadaning o‘ziga xos talqinlari e’tiborimni tortgandi.

O‘sha safar chog‘ida men o‘zim uchun zabardast abxaz adibi Mixail Lakerbayni, uning serqirra ijodini kashf qildim. U, chindan ham, murakkab hayot yo‘lini bosib o‘tgan ajoyib yozuvchi bo‘lganligiga ishondim.

Mixail Aleksandrovich Lakerbay 1901 yil 6 yanvar kuni Abxaziyaning Merxeul qishlog‘ida, o‘rtahol dvoryanlar oilasida tavallud topgan. Dastlab qishloq maktabida o‘qib, keyin 1920 yilgacha Suxumidagi maktab va real bilim yurtida tahsil olgan.

1919 yildan boshlab uning ilk she’r va maqolalari abxaz adabiyotining asoschisi Dmitriy Gulia muharrirligida chiqadigan “Apsni” nomli birinchi abxaz gazetasida e’lon qilina boshlaydi.

1929 yilda M. Lakerbay Tbilisi politexnika institutining huquq va iqtisod fakultetini tamomlagan bo‘lsa-da, unda jurnalistika va she’riyatga bo‘lgan qiziqish ustunlik qiladi.

30-yillarda uning ijodiy hayotida yangi bosqich boshlanadi – u Moskvadagi ssenarist va kinorejissyorlar tayyorlovchi oliy kurslariga o‘qishga kirib, shu bilan birga, “Sharq-kino” kinofabrikasida rejissyor yordamchisi va ssenaristlar guruhi tarkibida ish boshlaydi. 1937 yilda esa Oliy ssenaristlik kursini muvaffaqiyatli tamomlaydi.

Ulug‘ Vatan urushining ilk kunlaridanoq M. Lakerbay ko‘ngilli bo‘lib frontga jo‘naydi va u yerda diviziya gazetasining harbiy muxbiri sifatida xizmat qiladi. 1942 yilda Sevastopol uchun bo‘lgan qaqshatqich janglarda ishtirok etib, asirga tushib qoladi. U yerdan 1944 yilning avgustida Suxumiga qaytib keladi.

1947 yilda M. Lakerbay qamoqqa olinib, 8 yilga ozodlikdan mahrum etiladi.

1955 yilda ozodlikka chiqqanidan keyingi o‘n yil davomida adib ayniqsa samarali ijod qiladi. Uning 1957 va 1961 yillarda Moskvada e’lon qilingan “Abxaz novellalari” va “Alamыs” (“Or-nomus”) nomli kitoblari yozuvchiga katta shuhrat keltiradi. Kitoblarga kirgan ixcham, milliy ruh bilan sug‘orilgan, o‘rni-o‘rnida yumorga boy novellalarida yozuvchi abxaz xalqining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan.

M. Lakerbay o‘z ijodida novella bilan bir qatorda, boshqa adabiy janrlarda ham barakali ijod qilgan. Uning “Gechlar avlodi” (1939, 1940 yilda sahnalashtirilgan) va “Sabid jarligida” (1940, 1941 yilda sahnalashtirilgan) komediyalari, “Danakay” (1946-47, 1956 yilda

sahnalashtirilgan) tarixiy dramasi, “G‘aroyib qotishma” (1956) dramasi abxaz dramaturgiyasi va teatr san’ati shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan asarlar sirasiga kirgan.

Mixail Lakerbay yozgan librettolar asosida “Xojarat” musiqali komediyasi (1938, V. Kurtidi musiqasi), “Badarg‘a qilinganlar” (1939, D. Shvedova musiqasi) va “Mzia” (1951, A. Balanchivadze musiqasi) operalari sahnada qo‘yilgan bo‘lsa, ssenariylari asosida “Hayot guli” (1933), “Tkvarcheli” (1934), “Moviy libosdagi ayol” (1938) kabi qisqa metrajli filmlar suratga olingan.

Badiiy ijod bilan bir qatorda, M. Lakerbay abxaz teatri rivojlanishiga doir tadqiqotlar ham olib borgan. Uning “Abxaz teatr san’ati tarixidan ocherklar” nomli asarida chinakam milliy teatrning tug‘ilishi va shakllanish bosqichlari atroflicha tadqiq etilgan.

M. Lakerbay ko‘plab adabiyot va san’at namoyandalari, jumladan, Konstantine Gamsaxurdia, Leo Kiacheli, Irakliy Abashidze, Aleksandr Dovjenko, Viktor Shklovskiy, Andrey Balanchivadze, Mixail Chiaureli kabi so‘z ustalari bilan samarali ijodiy hamkorlik qilgan.

Mixail Aleksandrovich Lakerbay 1965 yilning 15 oktyabrida, 64 yoshida vafot etgan.

Ushbu kitobda Mixail Lakerbayning ruschadan o‘zbek tiliga o‘girilgan ayrim hikoyalarini Siz, aziz kitobxonlar e’tiboriga havola etar ekanmiz, ular albatta sizga manzur bo‘lishiga ishonamiz.

Rustam SHARIPOV

MEHMON

Keksa Xanasha Sugba hovlining to‘rida qad ko‘targan chinor ostida o‘tirgancha, endi balog‘at yoshiga qadam qo‘yayotgan yolg‘iz o‘g‘li Temur uchun oshlangan teridan choriq tikar edi. Itning akilla-shidan boshini ko‘tarib, notanish yigitchani ko‘rdi; u juda shoshardi chog‘i, darvozaga ham yetib bormay panjaradan sakrab o‘tdi. Cholni ko‘rib, yoniga bordi-da, buzilgan abxazchada yashirinishga joy so‘radi. Talaffuzidan uning cherkesligi ayon edi.

– Ortimdan quvib kelishyapti, – hayajon bilan dedi u. – O‘tinaman, qutqaring! Ushlab olishsa, sog‘ qo‘yishmaydi.

– Uyga kir! – dedi Xanasha hozirjavoblik bilan va kutilmagan mehmonni ayvon tomon boshladi. Narvonni devorga tirab, chordoqni ko‘rsatdi.

– Chiqaqol, dad[1]. Burchakdagi bir uyum junni tagingga yoyib ol. Xotiring jam bo‘lsin: mening uyimda sen xavf-xatardan xolisan.

– Iloyo, umring farog‘atda o‘tsin! – deya mehmon minnatdorlik bildirib, chaqqon chordoqqa ko‘tarildi.

Qariya hovliga chiqib, hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, mehmon yoniga qaytib keldi.

–Xavotir olma, dad, hech kim ko‘rinmaydi. Balki bu yerga kirganingni hech kim ko‘rmagandir. Menga aytchi, ortingdan kim quvib kelayapti? Nima ayb ish qilding?

– Odam o‘ldirdim. Do‘stlari uning qasdini olish uchun ortimdan quvib kelishayapti.

– Nima uchun bunday qilding?

– U meni haqoratladi: ot poygasi chog‘ida otimni savaladi!

– Kim ekan o‘zi, oti nima?

– Bilmasam. Axir, men qishlog‘ingizga endi kelishim...

Suhbat shu yerga yetganida itning vovillashi eshitildi.

[1] Dad – abxazlarda yoshi ulug’ odam o’zidan yoshrog’iga shunday murojaat etadi – bolam, bo’tam ma’nolarida.

– Sekinroq! Men borib, xabar olay, – dedi qariya va asta hovliga chiqdi.

Uzoqdagi tepalik ortidan bir necha kishining qorasi koʻrindi, ularning ortidan olomon kelardi. Moʻysafid kaftini soyabon qilib peshonasiga tiragancha odamlar kelayotgan tomonga tikildi. Birozdan soʻng u kishilarni yaqqol ajrata boshladi. Ular asta-sekin shu uy tomon kelishardi. “Bular qotilni izlab kelayotgan boʻlishmasin, tagʻin!” degan oʻy bilan qariya mehmonni koʻksi bilan himoya qilmoqqa chogʻlandi.

Bir necha kishi boshqalarni ortda qoldirib, koʻcha eshikdan hovliga kirdi. Ularning izidan boshqalar ham kirishdi. Bir zumda hovlini tumonat odam bosdi.

Shundagina uning koʻzi odamlar koʻtarib olgan ogʻir va dahshatli yukka tushdi.

Ertalab oʻgʻli kiygan kiyimlarni koʻrgan qariyaning koʻz oldi xiralashib, yuragini xanjar tilganday boʻldi.

Olomon ichidan soch-soqoli oppoq oqargan tengdosh doʻsti Ashvyu Abij chiqdi-da, unga yuzlandi:

– Bardam boʻl, Xanasha! Bugun boshingga ogʻir musibat tushdi. Vaqt oʻtishi bilan unutilmaydigan musibatning oʻzi boʻlmaydi. Naqadar ogʻir boʻlmasin, bu ham oʻtar-ketar. Axir, odam qanchalik kuchli boʻlsa, uning irodasi, ayniqsa, musibat boshiga tushgan chogʻda shunchalik mustahkam boʻladi, deb oʻzing aytmasmiding? Bugun bir noma’lum cherkes oʻgʻling Temurni nobud qildi! Bardam boʻl!

Odamlar suyab qolmaganida moʻysafid, shubhasiz, yuragini changallagancha, hushidan ayrilib, chalqancha yiqilardi.

Ayollarning dod-faryodi hovlini tutib ketdi.

Oʻgʻlining jonsiz jasadi taomilga koʻra ikki kun uyda saqlandi.

Ikki kun qariya har xil bahonalar bilan chordoqqa – chaqirilmagan mehmonga yegulik berish uchun chiqib turdi.

Uchinchi kun Temur yerga qo‘yildi. Marosimdan so‘ng o‘g‘lining do‘stlari ham hovliga qaytib kelishdi va kechgacha qariyaga hamdard bo‘lishdi.

– Tushunamiz, – dedi Temurning eng yaqin do‘stlaridan biri. – Hammamiz bir bo‘lsak ham, Temurning o‘rnini bosolmaymiz. Qayg‘ungizga sherikmiz. Bu musibat hammamizning yuragimizni larzaga keltirdi. Tez-tez holingizdan xabar olib, o‘g‘lingizning yo‘qligini bildirmaslikka harakat qilamiz. Bardam bo‘ling, ota!

– Do‘stimiz uchun qotildan albatta qasd olamiz, – deya qo‘shimcha qildi yana birovi. – Cherkes ustalik bilan yashirinib yuribdi. Ammo, baribir uning kuni bitgan. Qo‘limizga tushgan zahoti joni uziladi. Tez orada bundan xabardor bo‘lasiz. Hech bo‘lmasa shundan yuragingiz taskin topar.

Shu so‘zlarni aytib, Temurning do‘stlari tarqalishdi.

Musibat qaddini dol etgan mo‘ysafid atrofda hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, xurjunga yegulik soldi, devorga narvonni tirab, cherkesni chaqirdi.

– Pastga tush, mehmon! Tushaver! Bu yerda hech kim yo‘q. Hamma ketdi.

Cherkes pastga tushgach, titroq bosgan qo‘llari bilan unga xurjunni uzatdi.

– Manavini ol, – dedi u. – Bunda ikki kunga yetadigan ovqat bor. Endi uyingga ket! O‘rmon bilan borsang, yo‘ling ancha yaqin bo‘ladi. Tun qorong‘isi seni begona ko‘zdan asraydi.

Mehmon qariya oldida tiz cho‘kib, boshini egdi va chakmoni etagini labiga bosdi. Uning vujudini hayajon va qilib qo‘ygan qilg‘ilig‘i uchun pushaymonlik tuyg‘usi qamrab olgan edi. Keyin qaddini rostlab, lom-mim demay, uydan chiqib ketdi.

JIGARGO‘SHALAR

Ushbu voqea sodir bo‘lgan kuni ertalabdan yomg‘ir yog‘di. Tog‘larni o‘rab olgan bulutlar kechga boribgina tarqaldi.

Yomg‘irdan so‘ng atrof shunday tiniqlashdiki, uzoqdagi toqqa qo‘l cho‘zsanggiz, yetgudek. Havo toza va shaffof. Bunday paytda tog‘dagi har bir jonzod hayotdan zavqlanadi, kiyiklar o‘zlarining ko‘z ilg‘amas go‘shalarini tark etib, pastda yastangan vodiyga ko‘z tashlash ilinjida baland-baland qoyalar tomon shoshadilar. Bundan xabardor ovchilar ham vaqtni boy bermaslikka harakat qilishadi.

Uzoq-yaqinga dong‘i ketgan ovchi og‘a-inilar Kozim va Sharax, ko‘k yuzini so‘nggi bulut parchasi tark etmasidanoq, yelkalariga miltiqlarini ilib, yo‘lga ravona bo‘ldilar.

– Uzoqqa ketib qolmanglar, nan[2]. Kech tushib qoldi! – deya xitob qildi ona o‘g‘illari ortidan.

Ammo, ovchi zoti qiziqqon emasmi: qancha vaqtga ketayotganini va qaysi yo‘ldan qaytishini bilar ekanmi?

– Biz sizga eng semiz kiyikni otib kelamiz, onajon. Bizga omad tilang! – deb javob qildi kichik o‘g‘li Sharax, muyulish ortida ko‘zdan pana bo‘layotib.

– Omad sizlarga yor bo‘lsin, nan! – degan onaning so‘zlari o‘g‘illari qulog‘iga yetib bormadi. Ular ancha yiroqlashgan edilar.

Og‘a-inilar o‘rmon oralab o‘tgan yo‘ldan Abxaz o‘lkasining eng baland va tikka tog‘laridan bo‘lmish Qonachxir tomon borishardi. U yer qushga mo‘l, ammo, shu bilan birga, xatarli joy sanalardi.

Ovchilar tog‘ etagiga tez yetib borishdi. Aylanma va ancha uzoq, ammo bexatar yo‘ldan yurmay, tikka yo‘ldan toqqa ko‘tarila boshlashdi. Bir necha bor xatarli so‘qmoq uzilib, qoyadan-qoyaga sakrashga to‘g‘ri keldi. Tez orada ovchilar odam oyog‘i yetmagan, parqu bulutlar o‘ziga makon qurgan baland qoyaga yetishdi.

[2] N a n – bolam.

Vahimali qoyalar yana ham balandga viqor bilan bo‘y cho‘zgan, oyoq ostida esa dahshatli jarlik!.. Ovchilar ensizgina so‘qmoqdan ehtiyotkorlik bilan o‘ta boshlashdi. Oyoqlari ostidan sirpanib chiqqan toshlar jarlikka o‘qday uchib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lardi. Axiyri ular tosh ko‘chkini natijasida paydo bo‘lgan kichik maydonchaga yetib borishdi. Tikka qoya bo‘ylab o‘tgan tor so‘qmoq ushbu maydonchani kiyiklarning sevimli manzilgohi bo‘lmish tog‘ yonbag‘ridagi o‘rmon bilan tutashtirib turardi.

– Izlar ko‘rinmaydi, – dedi Sharax yon-verisini ko‘zdan kechirib. – Demak, kiyiklar hali kelishmabdi.

– Shunga o‘xshaydi, - dedi Kozim. – Ammo ular tez orada kelib qolishadi.

– O‘rmondan chiqishsa kerak, - dedi Sharax va yana bir bor o‘sha tomon ko‘z tashladi.

Ammo u yerda ko‘m-ko‘k baland tog‘ archalaridan boshqa hech narsa ko‘rinmasdi. Oldinda so‘qmoq yo‘l uzra qirrador toshlar elas-elas ko‘zga tashlanar, oyoq ostida esa tikka Qonachxir qoyasi etagini yuvganicha Kadar daryosining oppoq bulutni eslatuvchi shovqinli suvlari vajohat bilan oqardi. Ovchilar turgan maydoncha dahshatli jarlik ustida osilib turardi.

“Xuddi shu yerda Shoua Maf halok bo‘lgan edi, - xayolidan o‘tkazdi Sharax. – U kiyik ortidan quvib, xuddi shu tor so‘qmoqdan jarga qulab tushgan, shu bilan nom-nishonsiz ketgandi”.

Aka-uka enkayganicha jarga tikildilar.

- Jim! – xushyor tortdi Kozim.

Shamolning guvillashiyu kaltakesaklarning shitirlashi bilan birga kiyiklarning asta yurib kelayotgani eshitilganday bo‘ldi. Kozim qulog‘ini yerga berib, bir daqiqa jim qoldi.

- Kelishyapti, - shivirladi u o‘rmon tomonga imo qilib.

Ovchilar qoyatosh ortiga bekinishdi. Bir necha daqiqa oraga og‘ir sukunat cho‘kdi. Ov oldidan bo‘ladigan bunday bir lahzalik sukunat qaysi ovchining yuragida hayajon uyg‘otmagan deysiz?!

Shunday vaqtda tomirlarda qon qaynab, yurakning zarbi miyada aks-sado beradi, ovchi o‘zini ortiqcha harakatdan arang tiyadi...

Shu lahza maydonchada bir-biridan ko‘rkam besh nafar kiyik paydo bo‘ldi. Ular oftobda tovlanayotgan jigarrang terilari bilan yelkalaridagi oq dog‘larini osmonga ko‘z-ko‘z qilishayotganday edi.

Bir payt kiyiklar maydonning bir chetida g‘uj bo‘lib yig‘ilib olishdi.

U yerga yaqinroq bo‘lgan Sharax o‘q uzib yuborishdan o‘zini arang tiydi. Chunki abxaz odatiga ko‘ra birinchi o‘qni yoshi katta odam otishi kerakligini u yaxshi bilardi.

Kozim o‘zining birinchi o‘qini ukasi Sharax mo‘ljalga olib turgan kiyikka qarab otdi. Kiyik bir sakradiyu jar yoqasidan g‘oyib bo‘ldi. Sharax otgan o‘q ham mo‘ljalga tegmadi – kiyiklar o‘zlarini o‘rmon tomonga urishdi.

Kozim o‘zi urolmagan kiyik ortidan chopib ketdi. Bir ozdan keyin kiyiklar to‘g‘ri yo‘l qolib, yovvoyi echkilar singari tikka qoyaga qarab chopishdi. Kozim ham ularning izidan yugurdi. Boshqalardan orqada qola boshlagan kiyikka yetay deganida, Sharax kunning botib, tog‘larga xos zimiston kechaning yaqinlashib kelayotganini payqab: - Kozim, orqaga qayt, kech tushayapti! – deya ogohlantirdi.

Ammo akasi uning so‘zlariga e’tibor bermay kiyikni quvishda davom etdi.

- Qayt, Kozim! – deya yana qichqirdi Sharax. – Uyga qaytish vaqti bo‘ldi.

Yana javob bo‘lmadi.

Lekin uzoqdan akasining:

- La’nati kiyik, shaytonga o‘xshaydiya, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, - degan so‘zlari qulog‘iga chalindi.

Tovush uzoqdan kelar, Sharax yiroqdagi ko‘lankani bazo‘r ko‘rayotgan edi. Birozdan so‘ng u ham ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi – ko‘tarilgan tuman bir lahzada qoyalar uzra o‘zining sirli choyshabini to‘shadi.

- Shoshmaytur, Kozim! – tovushining boricha qichqirdi Sharax. – Tuman tarqashini kut. Yo‘qsa, toyib ketish hech gap emas.

U qoya uzra akasining sharpasi oxirgi marta ko‘ringan joy tomon asta-sekin yura boshladi. Tepadan mayda toshlar tushayotganini sezib to‘xtadi. Kozim timirskilanib tushayotgandi. Lekin birozdan so‘ng u ham to‘xtadi... Tuman tarqala boshladi chog‘i, boshlari uzra yulduzlar ko‘rindi. Ammo ko‘zlarining oldi hamon qorong‘u, hech narsani ko‘rib bo‘lmasdi.

- Kozim, hoy Kozim! Oyoq qo‘yishga joy bormi? – deb qichqirdi Sharax.

- Hech narsa ko‘rinmayapti...- degan javob keldi.

- Endi nima qildik?

Javob bo‘lmadi.

- Qanday qilib pastga tushasan? – yana ham balandroq tovushda qichqirdi Sharax.

- Bilmadim.

Sharaxning yuragiga qo‘rquv oraladi.

- Mahkam turibsanmi? – qichqirdi u. Bu tovushda qo‘rquv va hayajon yaqqol sezilib turardi.

Oraga yana uzoq jimlik cho‘kdi. Sharax so‘zlarini shamol uchirib ketdi degan xayolga kelgan ham ediki, tepadan Kozimning tovushi eshitildi:

- Oyog‘im ostida kichik bir do‘nglik... faqat bitta oyoqni qo‘yish mumkin... ikkinchisi osilib turibdi.

So‘zlar uzuq-yuluq holda yetib kelardi. Ularni ham bir-biridan tubsiz jar ajratib turganday.

- Qo‘llaring-chi? – so‘radi Sharax. – Mahkam ushlab turib-sanmi?

- Faqat bir qo‘l bilan ...

Shu lahzada Sharah akasining og‘ir nafasini his qilganday bo‘ldi.

- Kozim, - deb so‘radi u. – Ertalabgacha turib berasanmi?

- Bilmadim ... kuchim yetarmikin ...

- Kuch topish kerak, aks holda ...

Sharax gapini tugatish uchun o‘zida kuch topmadi – ko‘zining oldi xiralashdi.

- Harakat qilaman, - dedi akasi. – Faqat qo‘shiq aytib bergin ... Mening sevimli qo‘shig‘imni ...

Sharax uni tushundi. Kozim hayoti qil ustida turgan bir vaqtda ko‘ngli o‘zining sevimli ashulasi – omadli ovchi O‘zbakya haqidagi qo‘shiqni tusagan edi. Qo‘shiqda aytilishicha, kunlardan bir kun omad ovchidan yuz o‘giradi. Uning o‘qidan yaralangan o‘n olti shoxli bug‘u qoyadan yiqila turib, o‘limni xayoliga ham keltirishga ulgurmagan ovchi yigitni o‘zi bilan birga tubsiz jarga tortib ketadi.

Bu qo‘shiq bilan Kozim o‘z ruhini ko‘tarmoqchi edi. Sharax qo‘shiqni ayta boshlashi bilan akasi unga jo‘r bo‘ldi.

Aka-ukalar qo‘shiq aytar ekanlar, Qonachxir tog‘i ustidan tun qushi uchib o‘tdi. Ovchilarning tovushini eshitgan qush bir lahza to‘xtab, g‘aroyib manzaraning guvohi bo‘ldi: tubsiz jarlik uzra qad ko‘targan tog‘ning eng baland yerida ikki kishi bag‘rini qoyaga berib yotardi. Biri qoya turtib chiqqan ensizgina yolg‘izoyoq so‘qmoqda turar, ikkinchisi esa xuddi uning tepasida toshni mahkam ushlaganicha osilib qolgan edi. Kichigi xavotirli ko‘zlarini tepaga tikkanicha, kattasi esa qoya toshiga betini erkalangandek bosib, ikkisi ham qo‘shiq aytish bilan band. Shamol kiyimlarini tortqilab, qo‘shiqlarini uzoq-uzoqlarga olib ketardi.

Sharax qo‘shiqni uzoq aytdi. Bir mahal Kozim jimib qolgan edi, Sharax qahramonlar qo‘shig‘ini boshlab yubordi.

Kozim unga yana jo‘r bo‘ldi, ammo avvalgidan ham tezroq jimib qoldi. Shu zahoti Sharax akasining vujudini kuchli charchoq va xolsizlik chulg‘ab olganini sezdi – bu o‘lim bilan barobar edi.

- Kozim, yana bir qo‘shiq aytmaymizmi? – akasini chalg‘it-moqchi bo‘ldi u, ammo javob bo‘lmadi.

Sharaxning butun vujudi quloqqa aylanib, uzoq javob kutdi. Oxir-oqibatda tepadan madorsiz, ko‘proq ingroqni eslatuvchi tovush keldi:

- Sharax! Sharax ... Agar men halok bo‘lsam, onamizni ehtiyot qil ... ancha munkayib qolgan ... Endi yolg‘iz sen ularga suyanchiq bo‘lasan...

- Kozim, sen bo‘sh kelmasliging kerak, - gapni bo‘ldi ukasi. – Hamma kuch va irodani to‘plab, albatta, eshityapsanmi, albatta, tonggacha chidashing kerak. Tong otishi bilan men daraxt kesib kelib, senga uzataman.

- Eh, qaniydi... Qo‘llarim qotib qoldi, hatto oyoqlarimni ham almashtirishga majolim yo‘q.

- Chidash kerak!.. Ana tong yulduzi ham ko‘rindi. Bardam bo‘l, Kozim!

Shu vaqtda tun qushi ikkinchi bor Qonachxir tog‘i ustidan uchib o‘tdi. Bu o‘lim darakchisi bo‘lajak mudhish fojia haqida atrofga xabar berayotgandek edi. Birinchi marta uni aka-ukaning qo‘shig‘i bosib ketgandi. Endi esa uning tovushida oxirgi ogohlantirish ohanglari yaqqol sezilib turardi.

Sharaxning tungi qush haqidagi o‘ylarini Kozimning tovushi bo‘ldi:

- Tamom, Sharax, hammasi tugadi... Boshqa kuchim qolmadi. Ikki barmog‘imda osilib turibman... Endi foydasi yo‘q...

Shunda Sharax birdan o‘zgardi. Buning sababini kim bilsin deysiz. O‘zganing ko‘nglidagini uqish qiyin. Nima bo‘lganda ham, Sharax o‘zgardi-qoldi.

- Shu gap rostmi? – xitob bilan qichqirdi u. – Xudoga ming qatla shukur. Demak, sen jarga qulab tushasanu suyaklaringni ham topa olishmaydi! Juda soz. Endi baxtimga erishadigan bo‘ldim.

- Hoy, to‘xta, bu nima deganing? Aqldan ozdingmi? Nimaga xursand bo‘layapsan?

- Nimaga deysanmi? Sening o‘limingga! Endi umidim ro‘yobga chiqadigan bo‘ldi. O‘zing kuchim qolmadi deding-ku, demak, yashirishga hojat yo‘q. Sen halok bo‘lsang, Habiba meniki bo‘ladi, ha, meniki!..

- Nima?! – jon holatda qichqirib yubordi Kozim. Uning tovushi yo‘lbarsning xayqirig‘ini eslatardi. – Nima deding? Qani qaytarchi! Gapingni yanglish eshitganga o‘xshayman.

- Yo‘q, hammasini to‘g‘ri tushunding. Qallig‘ing Habiba mening xotinim bo‘ladi. Sen doimo oramizda g‘ov bo‘lib turarding. Katta bo‘lganing sababli muhabbatimni yashirishga majbur edim. Mana endi umidlarim ro‘yobga chiqadigan bo‘ldi...

- Jim bo‘l! – xayqirib yubordi Kozim. – Bir kechada aqldan ozdingmi?

Shu tariqa aka-uka tongga qadar so‘kishib chiqishdi. Tuman tarqab, tog‘dagi so‘qmoqlar ko‘rina boshlagach, Kozim ukasining:

- Ushla, Kozim, - degan ovozini eshitdi.

Boshini ko‘tarib, Sharaxni ko‘rdi: ukasi so‘qmoq yo‘ldan yuqoriga ko‘tarilib, xavfsiz yerda turib, bir uchi katta toshga bog‘langan uzun novdani akasiga uzatardi.

Kozim novdani itarib yuborib, boshqa yo‘l qidira boshladi. Ammo boshqa yo‘l yo‘q edi.

- Ushla, Kozim, - qaytardi Sharax.

Ikkinchi marta ham rad javobi bo‘ldi. Sharax uchinchi bor novdani uzatganidagina Kozim unga tirmashib, yuqoriga chiqib oldi.

Aka-uka yuzma-yuz kelganida Sharax akasiga shunday dedi:

- Kozim, gaplarimni to‘g‘ri tushungandirsan. Madordan qolayotganingni ko‘rib, Adzin Xojarat aytgan so‘zlar yodimga tushdi. Jahlingni chiqarish kerakligini tushundim...

Ammo Kozim ukasining gaplariga quloq solmadi – uning nazarida izzat-nafsi qattiq haqoratlangan edi.

- Insofing yo‘q ekan, - dedi u. – Jim bo‘l! Gaplaringni tushunishni ham istamayman. Tushingni suvga ayt.

- Yaxshi, yaxshi, jim bo‘ldim, - og‘ir tin oldi Sharax.

Kozim so‘qmoq bo‘ylab pastga tusha boshladi. Sharax uning ortidan ergashdi. Kozim to‘xtab, oyog‘iga botayotgan mayda toshlarni olib tashlash uchun chorig‘ini yechishga tutindi. Sharax oldinga o‘tib, yo‘lida davom etdi. U pastda yastanib yotgan qishlog‘ini, qadrdon uyi uzra ko‘tarilayotgan tutunni, xovlisidagi katta chinor daraxtini ko‘rdi. Shu chinor ostida yoshlik chog‘larida aka-uka o‘yin bilan o‘tkazgan vaqtlari ko‘z oldiga keldi. Quyoshning ilk nurlari ko‘zlarini qamash-tirib, dilini yayratdi. Sharax qayrilib, akasiga qaradi.

Kozim uning chehrasidagi quvonchni o‘zicha yo‘yib, kechasi ro‘y bergan voqeani esladi. Qahr va g‘azabdan bo‘g‘ilayozdi... bir daqiqada miltig‘ini o‘qlab, ukasiga to‘g‘irladi... Tutun tarqalgach, Sharaxning yuragini changallaganicha jarga qulayotganini ko‘rdi.

“Hayot bo‘xtondan iborat, - deb o‘yladi Kozim uyi tomon yo‘l olar ekan. – Habiba sevaman derdi – aldadi. Ukam bor edi, endi yo‘q, O‘zim ham nobud bo‘lishimga oz qoldi. Hayot deganlari shu ekan”.

Uy ostonasini hatlab o‘tishga Kozimning yuragi dov bermadi.

-Kozim, nega ostonada turib qolding? - dedi uni ko‘rgan onasi.

Bu so‘zlardan Kozim seskanib ketdi. Og‘ir qadamlar bilan uyga kirdi.

- Sharax qani? Birga emasmidinglar? – so‘radi ona.

Kozim boshini quyi solganicha jim turib qoldi. Onaning har bir so‘zi yuragini xanjardek tilardi.

- Unga nima bo‘ldi? Nobud bo‘ldimi? Gapirsang-chi!

- U xaromi ko‘rnamak ekan. Men uni o‘ldirdim.

Ona yuzlarini timdalab faryod chekdi. Uning ovoziga qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilishdi. Habiba ham keldi.

Kozim kechasi bo‘lib o‘tgan voqeani ro‘y-rost gapirib berdi.

- Sharax nima sababdan bunday deganini bilmayman-ku, - dedi Habiba shasht bilan, - ammo men haqimda yomon fikrda ekansan. Endi to‘yimiz bo‘lmaydi!

U shunday dedi-yu hovlidan yugurib chiqib ketdi.

- Sen o‘zing xaromi ko‘rnamaksan! Qotil! Yo‘qol bu yerdan! – dedi g‘azabdan bo‘g‘ilgan ona. Uning ko‘z oldi qorong‘ilashib, xushidan ayrildi.

Shunda Kozimning ko‘zi tumonat ichida turgan Adzin Xojaratga tushib, Sharaxning oxirgi so‘zlari esiga tushib, “Ukam nima uchun uning nomini esga oldi ekan?” – deb o‘yladi.

Shu zahoti mo‘ysafid Adzin Xojarat odamlar orasidan ajrab chiqib, shunday dedi:

- Bechora Xanjaj! Sho‘ring qurib qolibdi. – Keyin hammaga yuzlanib, Sharax nazarda tutgan maqolni qaytardi: “Katta qayg‘u odamni kuchdan qoldirsa, g‘azab unga tengsiz kuch baxsh etadi”.

Bu so‘zlardan Kozim seskanib ketdi. Haqiqatni u endigina tushunib yetgandi. Kozim o‘rnidan turib, hovlidan chiqib ketayotganida uni hech kim kuzatib qolmadi.

Shu ketganicha u toqqa, Sharah halok bo‘lgan joyga bordi...

Shu atrofda echki boqib yurgan cho‘ponlar o‘q ovozini eshitib, tepadan nimadir qulaganini ko‘rishdi. Yugurib kelishganida Kozim jonsiz yotar, yonidagi miltiq esa hali sovib ulgurmagandi...

ARG‘UN SAYDIQ

Tim qorong‘u kuz oqshomlaridan birida yomg‘ir sharros quyar edi. Bexosdan tashqaridan kuchukning vovullagani va kimningdir:

- Hoy, xo‘jayin! – degan tovushi keldi.

Esh Jarnoz kutilmagan mehmonga peshvoz chiqdi, o‘zining eski qadrdon do‘stini tanib, uni quchoq ochib kutib oldi.

- Kuchita, senmisan? Boshim osmonga yetdi. Xush kelibsan, do‘stim! Kiraver, kiraver. Bizni eslaydigan kuning ham bor ekan-ku.

Uy sohibi do‘stini uyga boshlab kirib, uni yoshgina xotiniga tanishtirdi.

- Mehmonni kutib ol, - dedi u. – Yoshlikdan birga o‘sgan do‘stim. U bilan ustoz Arg‘un Saydiq qo‘lida ham birga tahsil olganmiz.

Ayol ovqatga unnadi, do‘stlar esa qulaygina joylashib olib, yoshlik yillarini, keksa Saydiq o‘gitlarini eslay ketishdi.

- Ustoz yaxshi yuribdilarmi? Salomatmilar? – so‘radi Kuchita. – Ko‘rmaganimga ham sakkiz yildan oshdi.

- Shu ishing yaxshi emas! – dedi Jarnoz. – Qariyani tamoman unutib yubording. U esa har borganimda seni so‘raydi. Oldiga tez-tez borib turaman.

- Albatta, sen shu yerdasan-da, - o‘zini oqlay boshladi Kuchita. – Men esa ancha uzoqdaman. Bu yerga kelishim oson emas. Mana bugun ham, zarur ishim bo‘lmaganida...

- O‘sha zarur ishing bo‘lmaganida meni yo‘qlab kelmasmiding? – uning so‘zini bo‘ldi Jarnoz. – Bu qanday ish ekan o‘zi? Aytganday, Naziraga uylanmoqchi eding. Nima bo‘ldi?

- Hamma gap shunda-da, do‘stim Jarnoz. Ota-onasi oxiri to‘yimizga rozilik berdi, ammo o‘zining qaysarligi tutib qoldi.

- Nima uchun? Fikridan qaytibdimi?

- Yo‘q. Ammo oldimga juda qiyin bir shartni qo‘ydi.

- Qanday shart ekan?

- Jarnoz, do‘stim, sen qo‘shning Arish Xobugning uchqur otini ko‘rganmisan?

- Ha, ko‘rganman. Axir u ovulimizning eng sara otlaridan sanaladiku.

- Hamma gap shunda-da, do‘stim. Kimningdir ma’rakasida Nazira o‘sha otni ko‘rgan ekan. Shundan beri uning fikru yodi faqat unda: ot meniki bo‘lmaguncha to‘yimiz bo‘lmas emish.

- Shunday otning tizginini sening qo‘lingda ko‘rishni men ham istardim, - dedi hamdard ohangda Jarnoz. – Ammo Xobug uni pulga sotmaydi, hech narsaga almashmaydi-da.

- Bilaman, - dedi Kuchita. – Harakat qilib koʻrdim. Yalindim, yolvordim. Bir talay pul ham vaʼda qildim. Hech ish chiqmadi. “Sotmayman”, deb oyogʻini tirab turib oldi, qaysar. Gerdayishini-chi!

- Gerdayganicha ham bor-da. Umrim bino boʻlib birovga havas qilgan odam emasman, ammo Xobugning otiga, ishonasanmi, havasim keladi, ajoyib tulpor! Nimasini aytasan!.. Xoʻsh, endi nima qilmoqchisan? – soʻradi Jarnoz.

- Olib qochmoqchiman! – javob berdi Kuchita qatʼiy ohangda.

- Xobug esini yoʻqotib qoʻyadi-ku, - dedi Jarnoz. – Shunday qilgan taqdiringda ham u dunyoni ostin-ustun qilsa qiladiki, ammo javohirini topmay qoʻymaydi.

- Menda topolmaydi, - dedi Kuchita. – Uni shunday yashirib qoʻyamanki, Azroil ham topolmaydi! Faqat bir bor Naziraga koʻz-koʻz qilamanu undan soʻng qiyofasini butunlay oʻzgartiraman: egar-jabdugʻini almashtiraman, yollarini kesib tashlayman.

- Ha, shunday qilsa ham boʻladi, - dedi Jarnoz. – Ammo eng avval tulporni qoʻlga kiritishing kerak.

- Shu ishda sendan yordam soʻrab kelgan edim, - dedi Kuchita va Jarnoz tomon surilib soʻzida davom etdi. – Xobug bilan qoʻshnisizlar, uyidagi hamma kirish-chiqish yoʻllarini yaxshi bilasan. Meni oʻsha yerga boshlab borgin. Undan keyin nima istasang, hammasini bajo keltiraman. Kerak boʻlsa, jonimni ham ayamayman.

Bu soʻzlarni eshitib, Jarnoz bir zum jim qoldi.

- Yoʻq, u yerga men bir oʻzim boraman, - dedi u. – Bunday ishda odam qancha kam boʻlsa, shuncha yaxshi. Xobug tulporini koʻz qorachigʻiday asraydi. Qopagʻon itlari begona odamni hovliga yoʻlatmaydi.

- Oʻzing bilasan, Jarnoz. Ixtiyor senda..

Shu payt uy sohibasi doʻstlarni ovqatga chorladi. Noz-neʼmatga toʻlgan dasturxon uzra uyning yosh bekasi sogʻligʻi uchun, qaysar Nazira, keksa Saydiq sharafiga, boʻlajak tadbir muvaffaqiyati uchun qadah soʻzlari yangradi.

Ovqatdan so‘ng Jarnoz xotiniga qarata shunday dedi:

- Mehmonga joy sol, Osiyo! Damini olsin. Men esa zarur bir ish bilan ketayapman, ertalabgacha qaytishga harakat qilaman. Sen esa, - dedi u mehmonga yuzlanib, - yotib damingni ol. Xotiring jam bo‘lsin.

Shunday deb, Jarnoz kiyindiyu eshikdan chiqib, kecha qorong‘usiga singib ketdi.

Jarnoz bel bog‘lagan ish yengil ko‘chmadi. Hozir u boshidan kechirgan qiyinchiliklar haqida batafsil gapirib o‘tirishning hojati yo‘q. Ammo shuni aytish kerakki, Arish Xobug hovlisiga kirib olish, qopag‘on itlarni aldab, og‘ilxonaga sezdirmay o‘tish oson bo‘lmadi. Umuman, Jarnozning tabiati shunday edi: bir kirishgan ishini oxiriga yetkazmasa qo‘ymasdi. Botir, chaqqon va omadli yigit edi.

Tongga yaqin Jarnoz uyiga qaytdi.

Kulbasi eshigini ochib, ostonada dong qotgancha turib qoldi, ko‘z oldi qorong‘ulashdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, to‘shagida Kuchita bamaylixotir xurrak tortib yotar, yosh xotini Osiyo esa bir burchakka tiqilib olib “dag‘-dag‘” titrar, harir matodan tikilgan ichki ko‘ylagi yirtilgan edi. Erini ko‘rib, Osiyo yig‘idan qizarib ketgan ko‘zlarini yuzi aralash qo‘llari bilan to‘sib, xo‘ngrab yubordi.

Jarnoz alamdan ingrab yubordi: o‘tgan kecha bo‘lib o‘tgan dahshatli voqea tafsilotlari uning ko‘z oldida yaqqol gavdalangan edi. Ammo biror so‘z aytmay, to‘shak yoniga kelib, mehmonning yelkasini shasht bilan turtdi. Kuchita ko‘zini ochib, qo‘rquvdan baqrayib qoldi.

- Tur, Kuchita, - dedi Jarnoz g‘azabnok ohangda.

Kuchita shoshgancha o‘rnidan turib, apil-tapil kiyina boshladi. Xonada hozir bo’lgan uch kishi har biri qancha gapni aytishi mumkin edi. Ammo bir og‘iz ham so‘z aytilmadi.

Jarnoz mehmonga qo‘lidagi qamchinni uzatdi.

- Ma, ol, - g‘azab bilan dedi u. – Arash Xobugning tulpori eshik oldidagi ustunga bog‘langan. Olginu jo‘na.

Kuchita qamchinni qo‘liga oldi. Yer yorilmadi-yu yerga kirib ketmadi. Hovlidan chiqib ketayotganida Jarnoz uning ortidan shunday dedi:

- To‘xta, Kuchita! Sen mening mehmonimsan. Shuning uchun senga zarar yetkazmayman. Ammo, hozir to‘g‘ri keksa Arg‘un Saydiqning oldiga borasan. Borasanu bugun kechasi bo‘lgan voqeani unga aytib berasan. Sendan so‘nggi iltimosim shu. Bajarasanmi?

- Bajaraman, - dedi Kuchita.

Shu bilan ularning yo‘llari ikki tomonga burilib ketdi.

Kuchita uyiga qaytib, Xobugning tulporini ishonchli joyga yashirib, yana yo‘lga ravona bo‘ldi. Bu safar u keksa Arg‘un Sayiq uyi tomon yo‘l olgan edi.

... Keksa ustoz sobiq shogirdining hikoyasini qunt bilan tingladi. Ma’yus tingladi.

- Ha-a, - dedi u hikoya tamom bo‘lgach. – Jarnoz seni mening oldimga, senga tarbiya bergan odamning oldiga yuborib to‘g‘ri qilibdi. Bu qilmishingda faqat sen emas, balki men ham aybdorman. Senga to‘g‘ri tarbiya berolmabman!

Kuchita ustozi qoshida boshini quyi eggancha turib qoldi. Oyoqlari uni zo‘rg‘a ushlab turardi.

- Ha, Jarnoz seni menga yo‘llab to‘g‘ri qilibdi! – deya so‘zlarini takrorladi keksa Saydiq. – Bunga birinchi galda men aybdorman, jazosini ham o‘zim tortishim kerak.

Shunday dedi-yu yonidan to‘pponchani chiqarib, peshonasiga tiradi.

Yigit ustozini ushlab qolish niyatida unga talpindi, ammo kechikkan edi.

AJIQA[3]

Er-xotin Jegim va Arimsadaning yoshi bir joyga borib qolgan bo‘lsa-da, ularga farzand ko‘rish baxti nasib etmadi. Ko‘rinmagan do‘xtirlariyu tabiblari qolmadi. Yillar o‘tgani sayin yuraklaridagi umid uchqunlari so‘nib borardi. Oxiri, “Peshonamizga shu yozilgan ekan”, - deb, taqdirlariga tan berishdi. Ammo, tangrining rahmi keldimi, kunlardan bir kun oilada farzand tug‘ildi. Ko‘pdan orziqib kutilgan qizchaga Anifa deb ism berildi. Tabiiyki, ota-ona qizini ko‘z qorachig‘iday ehtiyotlab, yerga ham, ko‘kka ham ishonmay, mehr berib, ko‘ngliga qarab katta qilishdi. Oilada uning aytgani aytgan, degani degan edi. Hamma istaklari bir zumda muhayyo qilinar, erkatoy qizchaning kunlari o‘yin-kulgida o‘tardi. Uy yumushlari esa yoshi o‘tib borayotgan ota-onaning zimmasida edi. Yillar shu zaylda o‘tib borardi...

Balog‘at yoshi ostonasida Anifa sarvqomad va ohu ko‘zli go‘zal qiz bo‘lib yetishdi. Ammo, uy yumushlaridan bexabar va yalqovligi haqidagi ovoza yetti mahallaga yetdi. Buni ko‘rgan Jegim va Arimsada boshlarini changalladilar – qizlarining oila quradigan vaqti kelib qolgan edi-da. Bu ahvolda uni kim xotin qiladi? Butun mahalla, mahalla nimasi,.. butun ovul Jegimning qizi juda chiroyli bo‘lishiga qaramay, ro‘zg‘or ishlarida uquvsiz ekanligidan, hech qachon yaxshi uy bekasi bo‘la olmasligidan xabardor edi. Shuning uchun ovuldagi yigitlardan hech biri u tomonga qiyo ham boqmasdi.

Bechora ota-ona nima qilarini bilmay, bu masalaning yechimini uzoq qidirishdi. Oxiri, bu gaplar xali yetib borishga ulgurmagan uzoq bir ovuldan kuyov topib, tezgina to‘y qilib, qizlarini kuyovning uyiga uzatishdi.

Uzatishga uzatishdi-yu: “Endi nima bo‘lar ekan, borgan joyida tinib-tinchib ketarmikin?” - deb yuraklarini changallab o‘tirishdi.

[3] Ajiqa – ovqatni xushxo’r qilish uchun odatda qizil garmdori, tuz va turli xil xushbo’y o’tlardan tayyorlanadigan dorivor.

Chunki, qizlari roʻzgʻor ishlarini eplolmay, eridan dashnom eshitib, uyga qaytib kelishi hech gap emas edi-da...

Kunlar ketidan kunlar oʻtibdi. Ammo, qizidan darak boʻlavermagach, otaning yuragida bezovtalik paydo boʻlib, qizidan xabar olish bahonasida yoʻlga ravona boʻlibdi.

Otaning yuragi bezovta emasmi, kelishi haqida qudalarga avvaldan xabar bermadi. Shuning uchun xovlida uni hech kim kutib olmadi. Koʻngilsiz voqealarning shohidi boʻlishdan qoʻrqqandek ostonada ogʻir tin oldi va birozdan keyin asta ichkariga kirdi. Uy ichidagi tinch va osuda vaziyat, asosiysi, roʻzgʻordagi tartib uning yuragida umid uchqunlarini yoqdi.

Ichkari xonadan chiqib kelgan Anifa otasini koʻrib, xursandligini yashirmay uni quchib oldi, bir daqiqa salom-alik qilib, yana uy yumushlariga kirishib ketdi. Kizining uy ishlarini shu qadar kuyib-pishib va ustalik bilan olib borishi otani xayratga soldi. Koʻz oʻngida yalqov qizi Anifa emas, balki umr boʻyi uy ishidan boshi chiqmay, suyagi mehnatda qotgan boshqa notanish bir ayol kuymalana-yotgandek edi. Ha, bu tamoman boshqa ayol – butun vujudi bilan roʻzgʻor tashvishlariga kirishib ketgan uy bekasi edi. Bunday oʻzgarishning sababini soʻrashga botinolmay turgan ham ediki, jumboq tabiiy ravishda oʻz yechimini topdi...

Qudalar ichkari uydan chiqib kelishganida, Anifa otasining oldiga yugurib kelib, unga tuz, qizil garimdori va turli xil togʻ giyoh-lari solingan mis hovonchani uzatib, qulogʻiga sirli tovushda shivirladi:

- Otajon, bularning hammasini hovonchada yanchish kerak. Tezroq yanchib, ajiqa qilish kerak. Bu uyda mehnat qilmagan odamga ovqat berishmas ekan. Yanching, otajon!

Ota qizidagi oʻzgarishning sababi va aytilgan hikmatning maʼnosini tushunib yetdi, aybdor boladek boshini itoatkorona egib, hovonchada ajiqa yancha boshladi...

YETTI O‘LCHAB, BIR KES...

Arlan Uaxaydni urushga olib ketishganida uyda yolg‘iz qolgan yosh xotini Shazina xomiladorlikning ilk belgilarini sezgan edi. Urush uzoq davom etdi va juda og‘ir kechdi. Uaxayd besh yil jang qildi va urushning so‘nggi oylarida asirga tushib qoldi. Asirda uning yana o‘n besh yil umri xazon bo‘ldi. Uzoq yillar davomida u axchipslik bir knyazning uyida xizmat qildi. Va nihoyat, knyaz o‘z asirini ozod etishga qaror qilib, xayrlashish vaqtida shunday dedi:

- Ko‘p yillar davomida uyimda halol xizmat qilding. Aka-ukaday bo‘lib qoldik. Hozir xizmating evaziga to‘laydigan pulim bo‘lmagani sababli senga bir maslahat bermoqchiman. O‘ylaymanki, u sen uchun foydali bo‘ladi. Hech qachon xulosa chiqarishga shoshil-magin – doimo yetti o‘lchab, bir kesgin. Erkak kishining yuragi qaynoq, aqli esa tiyrak bo‘lishi darkor, – deya so‘zini yakunladi.

Uaxayd urushga ketganidan keyin xotinining ko‘zi yorib, o‘g‘illik bo‘lgan edi. O‘tgan yigirma yil ichida u ulg‘ayib, baquvvat va ko‘rkam yigitga aylandi. Jegim (yigitning ismi shunday edi) otasi urushda halok bo‘lgan deb o‘ylar, eridan xat-xabar kelmagani uchun onasi Shazina ham shunga ishonch hosil qilgan edi.

Kunlardan birida oqshom tushar chog‘ida sobiq askar o‘zining ona qishlog‘iga qaytib keldi. Ammo, birdan uyiga kirishga yuragi dov bermay, devor ortidan turib, derazadan mo‘raladi. Ko‘z oldida ochilgan manzaradan yuragi xapqirib ketdi: stoldagi sham shu’lasi kechki ovqatga o‘tirgan jondan aziz rafiqasi Shazinaning yuzini yoritar, yonginasida esa yelkalari keng va suqsurdek chiroyli begona bir yigit o‘tirardi. Shazina uning ovqat yeyishiga mahliyo bo‘lib, vaqti-vaqti bilan quchog‘iga olib, yuzidan o‘pib qo‘yar edi.

Bu manzarani ko‘rgan Arlan Uaxayd o‘zini zo‘rg‘a tiyishga muvaffaq bo‘ldi. “Bu xotinimning jazmani bo‘lsa kerak!” – degan o‘y uning yuragini hanjarday tilib, vujudini larzaga keltirdi. Dastlab, qishloqdan tezroq ketib, hech qachon bu yerga qaytmaslik fikri keldi. Ammo, keyin ikki jazman yashashga haqqi yo‘qday tuyuldi.

Uaxayd asta eshikni taqillatdi. Ichkaridan berilgan savolga:

- Men yo‘lovchiman. Ko‘chaga qorong‘i tushdi. Tunashga joy so‘rab keldim, - deb javob berdi.

- Albatta, “Mehmon – atoyi xudo” deyishadi. Uyga kiraqoling, - deb uni ichkariga da’vat etib, ovqat va joy taklif etishdi.

Mehmon ovqatdan bosh tortib, yuzi ko‘rinmasligi uchun o‘choqning oldidan joy egallab, mezbonlarni zimdan kuzata boshladi. Keyin ichishga suv so‘radi. Yigit suvsiragan mehmonning yoniga kelib, may uzatdi. Yonida turgan yigitga xamla qilishni o‘ylab, qo‘lini xanjarga uzatdi, ammo u ayol tomonga yurib ketganini ko‘rib, og‘ir tin oldi.

Shu lahza bexosdan Uaxayd keksa knyazning “Hech qachon xulosa chiqarishga shoshilmagin – yetti o‘lchab, bir kes!” – degan so‘zlarini esladi va yana biroz kutishga ahd qildi.

Mezbonlar uning kimligi, qaerdan kelayotgani haqida qiziqib so‘raganlarida turli uydirmalar bilan javob qaytardi. So‘ng o‘zi ham savol bilan murojaat etdi:

- Bir-biringizga juda mehribon ekansizlar. Oila qurganingizga ancha bo‘lganmi?

- Nimalar deyapsiz? Axir bu mening o‘g‘lim-ku! La’nati urush tufayli otasini ko‘rish nasib etmagan, bu dunyoga kelib ulgurmay otadan judo bo‘lgan, yuragi armonga to‘lgan o‘g‘il... – deb javob berdi ona va ko‘ziga yosh oldi.

Yigit onasining yelkasidan quchib, uni tinchlantira boshladi.

Shunda Arlan Uaxayd ham o‘zini tutib turolmay, rafiqasining yoniga kelib, uni mehr bilan quchdi...

Ko‘zlardan yog‘ilayotgan mehr va muhabbat ikki vujudni jannat bog‘lari sari yetaklaganday... Sham esa yonib tugayotgan edi...

Keyin Uayxayd o‘g‘li tomon o‘girilib shunday dedi:

- Jonim bolam, hech qachon xulosa chiqarishga shoshilmagin, doimo yetti o‘lchab, bir kesgin!

TUXMAT BALOSI

Ksis Shlarba va Kumf Smirba qo‘shni yashashardi. Ular aka-uka bo‘lishmasada xuddi jigarlardek yaqin edilar. Shunday yaqin edilarki, bunday ahillik ko‘rolmaslik kasaliga duchor bo‘lgan ayrim qishloqdoshlariga uyqu bermay qo‘yibdi. O‘rtaga tuxmat aralashgan yerda ahillik yo‘qoladi. “Xayrixoh”lar ko‘p emasmi, o‘rtada “dedi-dedi”lar ko‘payib, ikki do‘stga bo‘lar-bo‘lmas gaplarni yetka-zadiganlar topilibdi. Shunda do‘stlardan birining tilidan noo‘rin bir so‘z chiqib ketgan ekan (“Jahl chiqqanda aql ketadi”,- deyishadi-ku), o‘rtadagi odam uni oqizmay-tomizmay, yana o‘zidan qo‘shib-chatib ikkinchisiga yetkazibdi. Ikkinchisi ham shunga munosib javob qaytaribdi.

Shu tariqa ikki do‘st “xayrixohlar”ning ko‘magida dushmanga aylanibdi.

Atroflarida bama’ni va dono odamlar ham yo‘q emas ekan. Ular ikki do‘stni yarashtirib qo‘yishga harakat qilishibdi. Ammo, bundan natija chiqmabdi: ikkisi ham o‘zini asossiz haqoratlangan hisoblab, qasos olishni ko‘ngliga tugib qo‘yibdi.

Kunlardan bir kun xuddi shunday “xayrixoh”lardan biri Ksisning qulog‘iga Kumf uni o‘ldirish maqsadida pistirma tayyorlayotgani haqida shivirlabdi. Ksis dastlab bu gapga ishonqiramabdi, ammo buni tasdiqlovchi dalillarga ega bo‘lgach, birinchi bo‘lib xamla qilishga ahd qilibdi. Nihoyatda murakkab vaziyat yuzaga kelib, ikki do‘stning hayoti tahlika ostida qolibdi.

Shunday kunlardan birida Kumf o‘rmondan qaytayotganida ehtiyot chorasi sifatida yolg‘izoyoq so‘qmoq orqali uyiga borishga ahd qilibdi. Odatda hech kim yurmaydigan so‘qmoqdan sekin-asta yurib borar ekan, yerga chalqancha tushib, shox-shabbadan pistirma qurib bekinib yotgan Ksisga duch kelibdi. Kumf rejani to‘g‘ri olgan ekan. Chunki, Ksis sobiq do‘sti odatda uyiga qaytadigan yo‘lakni mo‘ljalga olib, nafasini chiqarmay yotar, ortidan kelayotgan odam sharpasini sezmayotgan edi.

Kumf hammasini tushunibdi: Ksis uning o‘rmondan chiqayotganini ko‘rgan, ammo yolg‘izoyoq so‘qmoqqa burilganini sezmay qolgan, endi esa uyi tomon buriladigan yo‘ldan qorasi ko‘rinishini kutib yotar edi.

Nima qilish kerak? Beixtiyor Kumf qo‘lini to‘pponchaga uzatdi... Ammo, fikridan qaytib, yerda chalqancha tushib yotgan sobiq do‘stiga qarata:

- Ruxsat bersang ustingdan sakrab o‘tsam! Yoki bir oz surilsang, men ham yoningga cho‘zilardim, - debdi.

Bexosdan qulog‘i ostida aytilgan bu so‘zlardan Ksis shoshib qolibdi – uning boshidan bir chelak sovuq suv quyib yuborishgandek edi. U asta ustidagi shox-shabbani chetga surib, Kumfga tikilibdi. Ammo, u ochiq chehra va oxista ovozda:

- Turaqol, Ksis! Yer juda ham zax. Beling og‘rib qolmasin, tag‘in. O‘zing bilasan, uyim shu yerda. Balki kirarsan? Mehmonim bo‘l, - debdi.

Shunday so‘zlar bilan Kumf yerda yotgan Ksisga yordam qo‘lini uzatibdi.

... Tushlikka Kumfning uyiga ko‘p odam yig‘ildi. Yig‘ilganlar Kumf va Ksis o‘rtasidagi “xayrixoh”lar ko‘magida uzilgan do‘stlik rishtalari qaytadan, bu safar abadiy tiklanganining guvohi bo‘lishdi.

AZIZ MEHMONLAR

Keksa Xojarat yolg‘iz o‘g‘li Dovur bilan suhbatlashib o‘tirar ekan:

- O‘g‘lim, Abjuvada do‘stlaring ko‘pligini bilaman. U yerga do‘stlaringni ko‘rgani tez-tez borib turasan. Ammo, nima uchundir ularni bizning Otxaraga biron marta mehmonga chaqirmading? Yo‘l uzoq bo‘lishiga qaramay, u yerga borib-kelishingga qaraganda o‘rtada mustahkam do‘stlik borga o‘xshaydi, - debdi.

- Xuddi shunday, ota, - javob beribdi o‘g‘li. – Do‘stlarimning hammasi juda yaxshi yigitlar. Ammo, eng yaqin do‘stim Machix (o‘zi Tkvarchal ovulidan), u yerlarga borganimda meni yeru ko‘kka ishonmay, o‘zidan bir qadam ham qo‘yib yubormay, ko‘nglimni topishga harakat qiladi. Bir necha marta uyida ham qo‘noq bo‘lganman. Uyidagilari juda samimiy odamlar... Ammo, do‘stlarimni qanday qilib mehmonga chaqiray – ularni, ayniqsa, do‘stim Machixni munosib kutib olarmikinman? Uyalib qolmasmikinman?

- Qo‘rqma, dad! – o‘g‘lining ko‘nglini xotirjam qilishga harakat qilibdi keksa Xojarat. – Men bor ekanman, seni mehmonlar oldida uyaltirib qo‘ymayman. Do‘stlaring uchun hech narsani ayamaymiz. Qo‘limizdan keladigan hamma ishni qilamiz.

- Oxirgi ko‘rishganimizda, hammalari yig‘ilib, bizning ovulga kelish niyatlari borligini aytishgan edi. Tez orada kelib qolishsa, ajab emas...

- Xavotir olma, o‘g‘lim. Mehmonlarni munosib kutib olishga harakat qilamiz. Do‘stlaring uchun eshiklarimiz doimo ochiq, - deya o‘g‘lini xotirjam qilibdi keska ota.

...Ammo, Dovurga aziz mehmonlarni quchoq ochib kutib olish nasib etmabdi: u to‘yda sodir bo‘lgan mojaroda sarxush bir yigit qo‘lidan halok bo‘libdi va keksa Xojaratning uyi motamga to‘libdi. Ayollarning faryodi faqat kechga borib tinibdi.

Shu vaqt xovlining darvozasi yoniga shovqin-suron va hazil-xuzul bilan bir guruh otliq yigitlar kelib to‘xtashibdi. Bu uzoq kutilgan aziz mehmonlar, Dovurning do‘stlari edi.

- Uyda kim bor?

- Dovur, qaerdasan?

- Mehmonlarni kutib olmaysanmi?

Ammo, do‘stlari o‘lim to‘shagidan boshini ko‘tarib, ularga peshvoz chiqa olarmidi?! Mehmonlar uni uxlagan xayol qilib:

- Namuncha erta yotib olmasang? Charchab qoldingmi? Unday bo‘lsa, biz boshqa safar kelarmiz. Qani, ketdik, yigitlar! – deb bir-birlariga gal bermay xazil-mutoyiba qilishda davom etishardi.

Dafn marosimiga tayyorgarlik ko‘rayotgan qo‘ni-qo‘shnilar nima deb javob qaytarishni bilmay turishganida, mehmonlardan biri darvozani ochib, otliq chavandozlarni xovliga kirishga da’vat etibdi.

Keksa Xojarat mehmonlarga peshvoz chiqib, aza marosimi odatlariga xilof ravishda birinchi bo‘lib mehmonlarga murojaat qilibdi:

- Xush kelibsiz, aziz mehmonlar! Dovur yo‘q edi, ammo uning yo‘qligini bildirmaslikka harakat qilaman. Marhamat, uyga kiringlar.

- Dovur do‘stimiz qaerda?

- U ketganmidi?

- Bugun kelarmikin?

- Uyga kiringlar, - deya mehmonlarni qayta ichkariga taklif qilibdi Xojarat. – Uzoqdan kelgansizlar. Aziz mehmonimiz bo‘linglar. Ertaga ertalab o‘g‘lim bilan yuz ko‘rishasiz. Hozir esa dasturxonga marhamat! Nahotki, men o‘g‘limning do‘stlarini munosib kutib ololmasam?! - shunday deb, uydagi odamlarga yuzlandi. - Otlarni og‘ilga bog‘lab, mehmonlarni uyga taklif qilinglar.

Dovurning do‘stlari kechasi bilan bazmu jamshid qilishibdi: bir-biridan mazali taomlarni tanovul qilib, may ichishibdi. Aytilgan qo‘shiqlar esa yuraklarni sel qilibdi... Butun kecha keksa Xojarat o‘g‘lining yaqin do‘sti Machix yonidan ketmabdi...

Shunda mehmonlar ko‘plashib:

- Otaxon, o‘g‘lingiz sizni juda yaxshi o‘yinga tushishingiz haqida gapirgan edi. Iltimos, bir o‘ynab bersangiz! – deya mezbonni o‘yinga tortmoqchi bo‘lishibdi.

- Meni ma’zur tutasizlar, o‘g‘illarim. Bugun nima uchundir oyoqlarim o‘yinga bormayapti. Qarilik bo‘lsa kerak... – deya javob qaytaribdi Xojarat.

Mehmonlar tongga yaqingina uyquga ketishibdi.

Quyosh ko‘tarilgach, butun uy ichi va xovlini ayollarning yig‘isi tutib ketibdi. Yuraklardan otilib chiqayotgan bu faryod ushalmagan armonlarday sel bo‘lib oqardi...

- Nima bo‘ldi? Nima gap o‘zi? – deb hech narsaga tushunmay mehmonlarning bergan savollariga keksa Xojarat :

- O‘g‘lim Dovur do‘stlari bilan diydorlashib, ularni uyida munosib kutib olishni orzu qilgan edi. Mana, o‘zi bo‘lmasa ham orzusi ushaldi. Endi mening ham bu dunyoda armonim qolmadi...- deb javob beribdi.

VASIYAT

Keksa Kumfning oilasi katta bo‘lishiga qaramay, uchala o‘g‘liga ham birday mehr berib katta qildi. Bolajon emasmi, o‘zi yemay yedirdi, kiymay kiydirdi... O‘g‘illari voyaga yetgach, elga dasturxon yozib, to‘y qilib berdi. Ammo, yillar o‘tsa-da, o‘g‘illar oilalari bilan ota uyida yashashda davom etibdilar. Ota esa kuchdan qolib, ba’zan o‘rnidan turishga ham, ovqat yeyishga ham kuch topolmay, tez-tez och qola boshlabdi. Farzandlari va hattoki kelinlar ham buni ko‘rib, ko‘rmaslikka olar, xullas, otalariga bee’tibor yashashda davom etardilar.

Bunday oqibatsizlik keksa va xasta qariyaning qalbini larzaga keltiribdi. Kunlardan bir kun, oxirati yaqinlashib kelayotganini sezgan ota kichik o‘g‘lini olidaga chorlab, qulog‘iga shunday deb shivirlabdi:

- O‘g‘lim! Menga bo‘lgan munosabatingni bilaman. Sen meni akalaringga nisbatan ko‘proq yaxshi ko‘rasan. Shuning uchun hamma bor-yo‘g‘imni senga vasiyat qilib qoldirmoqchiman. Men hayotdan ko‘z yumganimdan keyin hamma ma’rakalarni o‘tkazib bo‘lib bog‘dagi katta chinorning tagini kovlagin. U yerda bir xum oltin va mening vasiyatnomamni topasan. Ammo, shartim shuki, buni sen

vafotimning qirq birinchi kuni, ya’ni hamma ma’rakalar o‘tib bo‘lganidan keyin qilishing kerak.

Otaning so‘zlari o‘zining ta’sirini ko‘rsatibdi: shu daqiqadan e’tiboran kichik o‘g‘il va uning oila a’zolari keksa otaning atrofida girdikapalak bo‘lib, uning hatto eng kichik istaklarini ham bajo keltirishga kirishibdilar.

Ertasiga keksa ota o‘rtancha o‘g‘lini oldiga chaqirib, unga ham xuddi shu so‘zlarni aytibdi. Undan keyingi kun hamma bor-yo‘g‘iga katta o‘g‘ilni merosxo‘r qilibdi...

Endi uchala o‘g‘il bir-biriga gal bermay keksa otaning issiq-sovug‘idan xabar olar, xotinlariga turli xil tansiq taomlarni tayyorlatib keltirar, xullas uning ko‘nglini olib, og‘zidan chiqqan istaklarini shu zahoti bajo keltirishga harakat qilar emish.

Ammo, keksa Kumfga hech narsa yordam bermabdi. Uning kasali shunchalik o‘tkazib yuborilgan ediki, tez orada u bu olamdan ko‘z yumibdi.

Uchala o‘g‘il taomilga ko‘ra hamma ma’rakalarni o‘tkazib, otalari oldidagi burchlarini kech bo‘lsa-da ado etishibdi. Qirq birinchi kuni, azaga kelgan qarindosh-urug‘ va qo‘ni-qo‘shnilar uy-uylariga tarqalgach, kichik o‘g‘il belkurkni qo‘liga olib, akalariga “lom-mim” demay otasi aytgan chinor tomon yo‘l olibdi. Ammo u yerga borganida, o‘zi singari qo‘lida belkurak ko‘tarib olgan akalarini ko‘rib, hayratdan dong qotib qolibdi. Bunday yechimni kutmagan aka-ukalar dastlab dovdirab qolishgan bo‘lsa-da, keyin hamma gapni aytib berishga majbur bo‘lishibdi. Shundan keyin daraxtning tagini birga kovlashga, u yerdan chiqqan narsani esa uch qismga bo‘lishga ahd qilishibdi. Darhaqiqat, chinor ostidagi chuqurdan xum topishibdi. Ammo, xum bo‘m-bo‘sh bo‘lib, undan faqat bir varaq qog‘oz chiqibdi. Otaning qo‘li bilan shunday so‘zlar yozilgan edi: “O‘g‘illarim! Men butun umrimni sizlarga bag‘ishladim. Hech kimdan kam bo‘lmang, hech narsaga ehtiyoj sezmang deb, har kunim mehnatda o‘tdi. Sog‘-salomat voyaga yeting deb, o‘zimni o‘qqa-

cho‘qqa urdim. Ammo, bir narsaga e’tiborsizlik qilibman. Qalbingizga ota-onaga nisbatan hurmat va mehr-muruvvat urug‘ini sepmabman, farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida tushuncha bermabman. Shuning uchun, aziz o‘g‘illarim, sizlarga vasiyatim: farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor bering. Ularga ota-ona oldidagi burch, hurmat va mehr-muruvvat haqida tushuncha bering. Aks holda mening kunimga tushib qolishingiz hech gap emas... ”

KATS VA XAZAN

Abxazlarda bir maqol bor: “Bir daraxtda meva ham o‘sadi, barg ham”...

Bir ovulda aka-ukalar yashar ekan. Ular bir qorindan talishib tushgan bo‘lishiga qaramay, tabiatan bir-birlariga tamoman o’xshashmas ekan: kattasi Maan Kats kekkaygan va kalondimog‘, sal narsaga jahli chiqib ketadigan, kichigi Maan Xazan esa oqko‘ngil, hozirjavob va kamtar yigit ekan.

Maan Kats juda boy bo‘lishiga qaramay, yuragi juda tor, oddiy odamlarni nazar-pisand qilmas va hattoki ularni odam qatorida ko‘rmas ekan.

Kunlardan bir kun uning qulog‘iga ukasi oddiy dehqonlar bilan salom-alik qilayotgani haqidagi gaplar yetib kelibdi. Bundan jahli chiqqan aka:

- Mening ukam aslzoda bo‘lsa, oddiy dehqonlar bilan nima ishi bor? Nega ular bilan aloqa qiladi? Jin ursin uni! O‘zi-ku yaxshi kiyinish va nasldor otlarni minishni jonidan yaxshi ko‘radi. Shunday qilaversa, juldur kiyim kiydirib, qari qirchang‘i otga egar-jabduqsiz mindiraman-da, uzoqlarga ko‘chirib yuboraman!

Akasi aytgan so‘zining ustidan chiqadigan odamligini uka yaxshi bilardi.

Bir necha kundan so‘ng, Maan Katsning uyi mehmonlar bilan to‘lib, bazmu jamshid avjiga chiqayotganida, darvoza yoniga bir otliq

kelib to‘xtabdi. U egarsiz qari otni minib olgan, ustidagi kiyimlari esa yirtiq-yamoq edi. Otliq otdan sakrab tushib, uy tomon yo‘l olibdi. Yaqinlashib kelayotgan odam mezbonning ukasi ekanligini ko‘rib, mehmonlar hangu mang bo‘lib qolishibdi. Yigit esa akasiga qarata:

- Akajon, sizga ortiqcha tashvish keltirmaslik uchun men o‘zim aytgan yo‘lingizga ravona bo‘layapman. Faqat qaysi tomonga yurishimni aytsangiz, bas! – debdi.

Ukasining bu so‘zlari Maan Katsni shoshirib qo‘yibdi va... qalbidagi insoniylik torlari chertilganday bo‘libdi. U parishon holatda qo‘lini siltab, lom-mim demay nari ketibdi...

Shu tariqa uka akaga insoniylik va rahm-shafqat darsini bergan ekan.

MARSHAN LASHV

Marshan Lashv Dol darasida joylashgan Lata qishlog‘ida yashardi. Uning bo‘yi past, yuzi cho‘tir va bir ko‘zi ko‘r bo‘lishiga qaramay, o‘zining dovryurakligi va mardligi bilan dong taratgan edi.

Uning Atajux Mamatgeriy degan jonajon cherkes do‘sti bor edi.

Lashv o‘ttiz yoshga to‘lganida uylanishni xayol qilibdi (u vaqtlarda abxazlarda kech oila qurish odat ekan). Lashv Marona ismli go‘zal qizni sevar va mana ikki yildirki xonadonga kuyov sanalardi. To‘y kuni ham belgilanibdi. Ammo, to‘yga bir oy qolganida go‘zal Marona boshqasiga ko‘ngil berib, u bilan qochib ketibdi. Lashvning sevgisiga rahna solgan o‘sha odam uning jonajon do‘sti cherkes Atajux Mamatgeriy edi.

Maronaning bu qilmishi Lashvning yuragini tilka-pora qilgan bo‘lsa, qarindosh-urug‘lari buni butun avlodlariga tekkan isnod va haqorat sifatida qabul qilishibdi. Yaqinlarining ta’na-dashnomlaridan Lashv tushkunlikka tushib, ko‘chada boshini ko‘tarib yurolmaydigan bo‘lib qolibdi. Qarindoshlari intiqom olishni talab qila boshlaganida esa uning qalbi qon yig‘labdi. Odamlar uni “tashlandiq kuyov” deb

atay boshlaganidan xabar topgan Lashv, iztiroblari bilan yolg‘iz qolib, uyini zindon qilibdi.

Kunlardan bir kun kechasi u hech kimga “lom-mim” demay qishloqdan chiqib ketibdi.

Raqibi Atajux Mamatgeriyning ham, intiqom yaqinligini sezgandek, halovati yo‘qolibdi. Qilmishi uchun Lashv uni tinch qo‘ymasligiga aqli yetib turardi. Abxazlarda qallig‘ni olib qochish hanuzgacha og‘ir haqorat sanaladi. Shuning uchun u xavfsizlik nuqtai nazaridan uyini baland devor bilan o‘rab chiqibdi.

Ammo, shu holatda Lashv uchun eng baland devor ham pisand emas edi. Shuning uchun g‘animining uyi yoniga kelgach, Lashv baland devordan yengillik bilan oshib o‘tibdi va raqibining uyiga kirishga muvaffaq bo‘libdi. Yotoqqacha borib, eshikni asta taqillatgan ekan, ichkaridan uyqusiragancha sobiq do‘sti chiqib kelibdi.

Mamatgeriy chaqirilmagan mehmonda raqibi Lashvni tanib, hayrat bilan orqaga tisarilibdi...

Lashv uning ortidan ichkariga, Marona uxlab yotgan yotoqqa kirib boribdi.

- Yaxshimisan? - titroq ovozda so‘rabdi Mamatgeriy.

- Menku yaxshiman. Ammo, bu tong senga yaxshilik olib kelarmikin, - debdi Lashv nimtabassum bilan va qo‘rqib ketgan Maronaga ko‘zi tushib, – Bezovta qilganim uchun uzr so‘rayman, - debdi.

Keyin Mamatgeriyga qarata:

- Kiyinib ol. Yalang‘och erkak bilan gaplashashni o‘zimga ep ko‘rmayman, - debdi.

Mamatgeriy shosha-pisha kiyinishga tushibdi.

- Menga qara, - debdi Lashv, - bu ayol xushro‘y suratingga qarab seni tanlagan edi. Endi kim kuchli ekanligini ham ko‘rsin. Faqat bir shartim bor: agar meni yiqitsang, o‘ldirsang ham roziman. Ammo, agar men ustun kelsam, bitta qulog‘ing meniki.

Shu so‘zlar bilan ikki erkak bir-biriga sherdek tashlanibdi. Kurash uzoq davom etibdi. Oxir-oqibat Lashvning kuchli tazyiqi ostida Mamatgeriyning yelkasi yerga tegibdi va u taslim bo‘lishga majbur qolibdi.

Taomilga ko‘ra mag‘lub cho‘kka tushgan chog‘ida, Lashv xanjarini qinidan chiqarib, bechora ayolning “hay-hay”lashiga qaramay erining qulog‘ini kesib tashlabdi.

- Mana endi oramiz ochiq! Alvido, - debdiyu eshikni qarsillatib, uydan chiqib ketibdi.

Bir necha kundan so‘ng Marshan Lashv qishlog‘iga qaytib kelibdi va shu kundan e’tiboran yaqinlarining “tashlandiq kuyov” deb kamsitishlariyu har qanday haqoratlariga e’tibor bermay qo‘yibdi.

Shuning ichida Mamatgeriy “Lashv bo‘lib o‘tgan voqeani butun qishloqqa yoyib maqtanayotgan bo‘lsa kerak”, - degan xayol bilan o‘z odamlarini Lataga yo‘llabdi. Ular qishloqqa qarindoshlarini ko‘rish bahonasida kirib kelishibdi. Ammo, Lashv odamlarning kamsitishlariga beparvo bo‘lib, hech gap bo‘lmagandek yurganidan ajablanishgancha uylariga qaytishibdi.

Kunlardan bir kuni Mamatgeriy boshchiligidagi bir guruh cherkes otliqlari qishloqqa kirib kelishganida hamma xayron bo‘lib qolibdi. Buni butun qishloq ahli haqorat deb qabul qilibdi va qonli to‘qnashuvga tayyorgarlik ko‘ra boshlabdi.

Ammo, chaqirilmagan mehmonlar qariya Tapagva Aybaning uyiga qo‘noq bo‘lishibdi va kutilmaganda qishloqning barcha erkaklarini ziyofatga chorlashibdi.

Bundan hayron bo‘lgan qishloq ahli Aybaning xovlisiga yig‘ilibdi.

Shunda ularning oldiga Mamatgeriy chiqib:

- Men sizlarni bu yerga Marshan Lashv o‘z sha’nini qanday qilib oqlaganini aytib berish uchun yig‘dim. Ajablanarlisi shundaki, u intiqom olib bo‘lganidan keyin ham, bu haqda hech kimga bildirmay, atrofdagilarning kamsitishlariga pavro qilmay bamaylixotir yurgan

ekan. Bo‘lmasa, hammaga qasos olganini aytib berib, mening sha’nimni bulg‘asa ham ming karra haqli edi. Shuning uchun men qishlog‘ingizga o‘zim kelib, Lashvning olijanobligi va mardligi, o‘zi va butun avlodi sha’niga tushgan isnodni qanday qilib yuvganini ma’lum qilishga jazm qildim.

Shunday deb, boshidagi quloqchinini yechgan ekan, o‘ng quloq o‘rnidagi dahshatli chandiqni ko‘rib yig‘ilganlarning dami ichiga tushib ketibdi.

PILDIR-PIS

Qadim zamonlarda abxaz qishloqlarida “pildir-pis” ko‘p o‘ynalar ekan. O‘yinning shartiga ko‘ra ishtirokchilardan qaysi biri birinchi bo‘lib gapirib yuborsa, g‘olibning shartini bajarishga majbur qolar ekan.

Adley Gedlach va xotini Xamjvajv o‘rtasida uy yumushlari yuzasidan tez-tez mojaro chiqib turar ekan. “Uchratmaguncha o‘xshatmas,”- deganlaridek, ikkisi ham bir-biriga juda mos, birday yalqov va ishyoqmas edi.

Kunlardan bir kun, hafta davomida qarovsiz qolgan og‘ilni kim tozalashi kerakligi borasida ikkisi orasida yana mojaro chiqibdi. Uzoq davom etgan bahsdan so‘ng er-xotin “pildir-pis” o‘ynashga, “kimda-kim birinchi so‘z qotsa, o‘sha og‘ilni tozalaydi”,- degan qarorga kelishibdi.

Shu ko‘yi, ikkisi ham dangasa emasmi, og‘ziga talqon solgandek soqovga aylanibdi. Kechga tomon esa uyga kutilmagan mehmonlar kirib kelishibdi, salom berib, tunash uchun joy so‘rashibdi. Ammo, mezbonlardan salomlariga alik va savollariga javob olisholmagach, qattiq ranjishibdi.

- “Mehmon – atoyi xudo,”- deyishadi. Abxaz odatiga ko‘ra mehmonni sovuq qarshi olish uyat hisoblanadi. Shunday emasmi? Mehmonga nisbatan iltifotsizlikning sababini bilsak bo‘ladimi? Yoki

kelganimiz yoqmadidi? – debdi mehmonlardan biri uy sohibiga qarata. - Biz bilan gaplashishni ham o‘zingga ep ko‘rmading-a! Menimcha, mehmondo‘stlik qonunlarini unutganga o‘xshaysan.

Ammo, Adley Gedlach soqovdek baqrayib turar, rafiqasi ham “lom-mim” demasdi.

- Mehmonga ro‘yxushlik bildirilmagan bu uydan ketaylik, - debdi mehmonlardan yana biri va uydan chiqishni maqsad qilib, eshik tomon yurib ketibdi. Yonidagisi ham uning ortidan ergashibdi. Bu qadar surbetlikdan ranjigan uchinchi mehmon esa, kutilmaganda mezbonning yuziga tarsaki tortib yuboribdi:

- Bu senga dars bo‘lishi uchun. Bundan keyin mehmondo‘stlik qoidalarini buzish qanday oqibatlarga olib kelishini esdan chiqarmasliging uchun, - debdiyu sheriklari ortidan chiqib ketibdi.

Shu on Xamjvajv erining oldiga yugurib kelib:

- Nega mehmonlarga biz o‘yin o‘ynayotganimizni aytmading. Shunda keltak ham yemasmiding?! – degan ekan, eri jon holatda:

- Sen gapirding! Sen birinchi bo‘lib gapirding! Endi og‘ilni sen tozalaysan, - deb o‘zida yo‘q xursand bo‘lib javob qaytaribdi.

DONISHMAND JASIB

Keksa Jasib nabirasi Chigitsni o‘g‘irlik va qimor yo‘lidan qaytarishga ko‘p harakat qilibdi. Ammo, hamma harakatlari zoe ketibdi. Qarichilik emasmi, kuni bitganiga aqli yetgan Jasib oxirgi marta nabirasini oldiga chaqirib:

- Umrim oxirlab qolganga o‘xshaydi, - debdi. – Yaqinda omonatimni topshirsam kerak. Ammo, sen uchun ko‘nglim notinch. Umr bo‘yi o‘z bilganingdan qolmading. So‘zlarimga quloq tutmading. Xulosa qilmading. Ixtiyor o‘zingda, umringni shu tariqa davom ettirishing mumkin. Ammo, u dunyoda tinch yotishimni istasang, so‘nggi iltimosimni bajarishga so‘z ber. Yoshi ulug‘ bo‘lgan va eng

tajribali o‘g‘ri bilan qimorbozni qidirib topgin-da, kasblarining butun sir-asrorlarini senga o‘rgatishlarini mening nomimdan iltimos qilgin. Aqlli odamlarning ta’biri bilan aytgandek: “O‘z kasbining ustasi bo‘lgan odamning nasibasi ham butun bo‘ladi”. Sen ham nasibang butun bo‘lishini istasang tanlagan kasbingning hamma ikir-chikirlaridan xabardor bo‘lishing kerak.

Nabira bu so‘zlarni hayrat bilan tinglabdi. Ammo, ajali yaqin-lashib qolgan buvasining gapini ikki qilishga jur’at qilmay, so‘nggi istakni bajarishga so‘z beribdi.

Tez kunlarda keksa Jasib hayotdan ko‘z yumibdi. Nabirasi esa bergan va’dasiga binoan dastlab eng katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan o‘g‘rilarning “qiroli”ni qidirib topibdi.

Ko‘z oldida namoyon bo‘lgan achinarli manzara uni xayratga solibdi: “qirol” pastqam, nuray boshlagan va deyarli jihozlanmagan uyda yashar, uyning to‘rida singan eski yotoq turar, uyning har burchagida esa yuvuqsiz idish-tovoqning singan parchalari yoyilib yotardi.

Mudhish manzaradan xafsalasi pir bo‘lgan yigit ichkariga kirishini ham, qaytib ketishini ham bilmay turganida ichkaridan “Kiraver”, - degan ovoz kelibdi. Yigit asta yurib kelib, xonada o‘tirishga boshqa narsa bo‘lmagani sababli o‘g‘ri yotgan omonat yotoqning bir chetiga ohista cho‘kibdi.

- Qo‘rqma, - debdi “qirol”, - sinib ketmaydi. Sendan ham og‘irlarni ko‘targan. Xo‘sh, xizmat?

- Bobom o‘limi oldidan meni yoniga chaqirib, eng usta o‘g‘rini topishimni va undan bu kasbning barcha sir-asrorlarini o‘rganishimni vasiyat qilgan edi, - debdi Chigits.

O‘g‘rilar “qirol”ining yuragi bu so‘zlardan iftixorga to‘lib, bir to‘lg‘anib qo‘yibdi.

- Bobong aqlli odam ekan. U senga juda to‘g‘ri maslahat beribdi. Sen ham turmadan boshi chiqmaydigan chuldurvaqalarning yoniga emas, aynan mening oldimga kelib to‘g‘ri qilibsan. Bizning ishimizda

asosiysi iste’dod. O‘g‘rilikni orzu qilgan odam mahorat va epchillik darslarini olmagan bo‘lsa, boshi turmadan chiqmasligi aniq. Nimasini aytasan! Bugun oqshom tushishi bilan uyimga kelsang, bunga o‘zing amin bo‘lasan.

- Rahmat, - debdi Chigits va ikkinchi bor bu yerga qaytmaslikni ko‘ngliga tugib, chiqib ketibdi.

O‘g‘rining uyida ko‘rganlari: og‘ildan farq qilmaydigan xona va yo‘qchilik unga rahmatli bobosining hamma o‘gitlaridan ko‘ra ko‘proq ta’sir qilgan edi. “O‘g‘rining baxti” shu bo‘lsa, bu baxtdan benasib o‘taqolay”, - deb ko‘nglidan o‘tkazibdi Chigits.

O‘g‘rining uyidan chiqib, u va’daga binoan qimorbozlar “qiroli”ni qidirib ketibdi. Topibdi ham. Ammo, u yerda ko‘rganlari unda yana ham og‘ir taassurot qoldiribdi: sochlari hurpayib ketgan qimorboz cho‘kkalab tushib olib, shosha-pisha yerda qarta suzar, ko‘zlari ola-kula bo‘lib, o‘zicha nimalarnidir g‘o‘ldirar edi.

Qulay fursatdan foydalanib, yigit muddaosini aytgan ekan:

- Yigitcha! Mening oldimga kelib, to‘g‘ri qilibsan, - debdi qimorboz faxr bilan. – Men o‘ttiz yildan beri qimor o‘ynayman va bu xunarning hamma sir-asroridan xabardorman. Istasang, senga ham o‘rgataman.

U boshini qartadan ko‘tarib, qizarib ketgan ma’nosiz ko‘zlarini yigitga tikibdi va... yana boshini quyi solib, shahd bilan qaytadan qarta suza boshlabdi. Shu alfozda Chigitsni ham o‘yinga da’vat etgan ekan, yigit keksa qimorbozga minnatdorchilik bildirib, uydan tezroq chiqib ketishga shoshibdi. Qari qimorboz ham umrini behuda o‘tkazgan ekan-da...

Shunday qilib, keksa Jasib nabirasini qing’ir yo’lga kirib ketishidan asrab qolgan ekan.

ECHKI VA BO‘RI

Echki o‘lim changalidan qutilib qolishni maqsad qilib, jon-jahdi bilan bo‘ridan qochib borardi. Goh chapga sakrabdi, goh o‘zini o‘ngga olib qochibdi. Oxir-oqibatda, qoyadan turtib chiqqan kichik bir do’nglikka sakrab chiqib olibdi. Bo‘ri bir necha bor u yerga chiqishga va echkini tilka-pora qilishga harakat qilibdi, ammo buning uddasidan chiqolmabdi. Kuchdan qolib, g‘azabdan qonga to‘lgan ko‘zlarini echkiga tikkancha alamdan uvillay boshlabdi.

Xavf-hatar uzoqlashganini sezgan echki, biroz nafasini rostlab olgach, bo‘riga do‘q-po‘pisa qila boshlabdi:

- Yaramas, ablah! O‘g‘ri, qaroqchi! Sendan hazar qilaman. Jonim bilan seni tilka-pora qilardimu pastga tushishga erinib turibman-da. Ablah!..

- Eh, esi past echki, - deb javob beribdi bo‘ri. – Kaltafahmligingni bilardim. Ammo, bu qadar... Hozir bu so‘zlar tilingdan botir bo‘lganing uchun emas, aynan o‘sha yerda o‘tirganing uchun chiqayotganiga aqling yetarmikin? Aksincha, yonimda bo‘lganingda qay ohangda yo‘rg‘alashingni bir ko‘rardim.

MEROS

Boyvachcha Abux Shaabning o‘g‘li maishat va aysh-ishratga mukkasidan ketgan ekan. Otasi shuncha harakat qilsa ham, o‘g‘lini bu yo‘ldan qaytara olmabdi. U vaqt-soati yetib, hayotdan ko‘z yumganidan keyin o‘g‘li bor-yo‘g‘ining kulini ko‘kka sovurishiga aqli yetib turardi.

Ota o‘g‘liga yordam berish yo‘lini uzoq izlabdi.

- Men vafot etganimdan keyin bilganingcha yashagin, - debdi u o‘g‘lini yoniga chaqirib. – Faqat birgina iltimosim bor: mana shu uch narsani ehtiyot qilgin, - deb, poldagi kursi, osilib turgan arqon va shiftga qoqilgan qayrilma qoziqqa imo qilibdi. – Ularni ko‘z

qorachig‘iday asragin. Bilaman, shu ketishing bo‘lsa, mendan keyin tez orada butun boyligimni ko‘kka sovurib, xonavayron bo‘lishing aniq. Hozir o‘zini do‘st deb ko‘rsatayotgan hamtovoqlaring seni tark etishganidan keyin, bor-budingdan ajrab, bir o‘zing qolganingda sen uchun birgina yo‘l qoladi – u ham bo‘lsa joningga suiqasd qilish. Mana shunda senga kursi, arqon va qoziq asqotadi.

Hammasi Abux Shaab aytganidek bo‘libdi.

Otasi vafot etganidan keyin o‘g‘il qisqa vaqtda hamtovoqlari bilan birga otadan qolgan merosni yo‘q qilibdi. Cho‘ntagida chaqa ham qolmagach, otasi aytganidek, o‘zini do‘st deb ko‘rsatgan kimsalar uni birin-ketin tark etibdi. Butun mablag‘idan ajrab, yolg‘iz qolgan yigit tushkunlikka tushibdi.

Shunda u otasining vasiyatini eslabdi. Joniga suyiqasd qilishni maqsad qilib, kursiga chiqibdi, arqonni qayrilma qoziqdan o‘tkazib, bo‘yniga sirtmoqni tashlabdi va kursini oyog‘i bilan itarib yuboribdi... Ammo, jasadi og‘irlik qilib, qoziq qoqilgan joyini o‘pirib chiqib ketibdi. Shiftda hosil bo‘lgan teshikdan esa ... oltinlar to‘kila boshlabdi!

Shiftdagi qoziqning bir uchi chordoqda yashirilgan qutiga bog‘langan bo‘lib, unda rahmatli otasi oltinlarini saqlagan ekan.

Shundagina o‘g‘il ota vasiyatining asl ma’nosini tushunib yetibdi. Qashshoqlik girdobiga tushib, jar yoqasida yolg‘iz qolgan o‘g‘liga Abux Shaab vafotidan keyin ham yordamga kelib, uning hayotini saqlab qolgan ekan.

Shu daqiqadan e’tiboran yigit tamoman boshqa odamga aylanibdi.

HOZIRJAVOB ZAZA

Zaza Mamsirga unashtirilgan bo‘lishiga qaramay, unga erga tegishdan bosh tortibdi. Yuzaga kelgan holat qishloqda kuyov tomon uchun noxush bo‘lgan “mish-mish”larni keltirib chiqaribdi. Mamsirning yaqinlari kuyov bola hamrohligida Zazaning uyiga kelib, do‘q-po‘pisa bilan akalaridan tushuntirish berishni talab qilishibdi. Chaqirilmagan mehmonlarga nima deyishlarini bilmay, akalari biroz shoshib qolishibdi.

Shunda ularga singillari yordamga kelibdi.

- Men qarorimning sababini tushuntirib beraman, - deb kuyov tomondan kelgan vakillarni tinchitishga harakat qilibdi va kuyov bolaga qarata murojaat qilibdi:

- Mendan boshqa yana to‘qqizta qizga sevgi izhor etib, uylanishga va’da berganing haqidagi xabar qulog‘imga chalindi. Sen ham qizlarga bergan va’dalaringga sodiq qolib, to‘qqiz marta uylansang, men ham va’damning ustidan chiqib, to‘qqizinchi bo‘lib senga tegishga roziman, - debdi.

Zaza shunday debdiyu xonadan chiqib ketibdi.

Mamsir esa nima deyishini bilmay, mulzam bo‘lib turib qolibdi.

Yig‘ilganlar betayin Mamsirni mot qilgan topqir va hozirjavob Zazaning aqliga tasanno aytib, uy-uylariga tarqalishibdi.

GAROV

- Bu voqea bundan ellik yil avval bo‘lib o‘tgan, - deb hikoyasini boshladi keksa Adzin Shmaf. Uning yoshi yuzning ustida bo‘lgani sababli, uzoq o‘tmish voqealarini so‘zlab berishni yaxshi ko‘rardi. - Suxum yaqinidagi Eshera qishlog‘ida, dengiz kanari yaqinida joylashgan koshonada Kalamat Chachba ismli knyaz yashagan ekan. U maishatni shunchalik yaxshi ko‘rar ekanki, tez-tez uyiga mehmonlarni chorlar, bir boshlangan bazmu jamshid odatda haftalab davom etar edi. Knyaz qo‘li va ko‘ngli birday ochiq bo‘lgani uchun

do‘stlari – mahalliy boyvachchalar uning keng va shinam, mevali bog‘-rog‘lar orasida qad ko‘targan uyida mehmon bo‘lishni, dengiz havosidan to‘yib-to‘yib nafas olishni juda ham yaxshi ko‘rishardi.

Kunlardan bir kun, shunday mehmondorchilikka yig‘ilganlar o‘rtasida, nima ham sabab bo‘libdiyu vijdon, halollik va to‘g‘riso‘zlik haqida so‘z ketibdi. Suhbat chog‘ida birlari bu fazilatlar tadbirli odamlarga xos emasligini, yana birlari dunyoda vijdonli va halol odamlar juda oz qolganligini, uchinchilari dunyoda bunday odamlar yo‘q va bo‘lishi mumkin emasligini, to‘rtinchilari esa, bu fazilatlar faqat aqldan ozgan odamlargagina xos degan fikrlarni ilgari surishibdi. Mulohazalar shu qadar turfa xil bo‘lishiga qaramay, birgina fikrda yakdil bo‘lishibdi: o‘tirganlardan hech qaysi biri o‘z hayoti davomida butunlay halol, pok va to‘g‘riso‘z odamni uchratmagan ekan.

- Men esa bunday odamni bilaman, - debdi shu vaqtgacha suhbatga aralashmay bir chekkada sukut saqlab o‘tirgan mezbon.

Kutilmaganda aytilgan bu so‘zlardan ajablanib, hamma unga yuzlanibdi.

- Sizlarga so‘zlarim qanchalik erish tuyulmasin, - so‘zida davom etibdi mezbon, - qo‘limda ishlaydigan cho‘pon Karimni hamma bilganlarim ichida eng to‘g‘riso‘z va halol odam deb hisoblayman. Mana o‘n yildirki u yaylovlarimda poda boqib qo‘ychivonlik qilib keladi. Shu vaqt ichida biron marta yolg‘on gapirganini bilmayman. Bundan keyin ham hech qachon yolg‘on gapirmasiligiga ishonchim komil.

Mehmonlar ichida samurzakan knyazi Chonchor Chxotua va uning sohibjamol rafiqasi Marine ham bor ekan. Yosh knyaginya kibr-havoli, mag‘rur va anchagina injiq ayol edi. Yoshi o‘tib borayotgan eri esa buning tamoman aksi bo‘lib, rafiqasining hamma injiqliklarini ko‘tarar va barcha istaklarini shu zahoti bajo keltirishga harakat qilardi.

- Yo‘g‘-e, knyaz! – xitob bilan debdi ayol. – Bu qadar qat’iy ishonch bilan gapirmang. Tag‘in bu cho‘pon yigitdan hafsalangiz pir bo‘lmasin!...

- Nima uchun bunday deyapsiz, knyaginya? – taajjub bilan so‘rabdi knyaz. – Men uni yetarli darajada yaxshi bilaman. Siz esa uni biron marta ko‘rmay turib shunday xulosaga keldingiz. Buning sababi nima?

- Men uchun u oddiy cho‘pon ekanligining o‘zi yetarli. Chunki, oddiy odamning vijdonini sariq chaqaga sotib olish mumkinligiga ishonchim komil.

- Karim uchun esa men kafil bo‘la olaman, - debdi Kalamat.

- Keling, garov o‘ynaymiz! – taklif qilibdi Marine.

- Roziman! Shartingizni ayting, - deb javob qaytaribdi knyaz.

- Qarang, tilingizdan tortmagandim: agar yutqizsangiz kecha poygada mingan qorabayiringizni menga berasiz, - hayajon bilan shartini aytibdi knyaginya.

- Saxtannimi? – so‘rabdi mehmonlardan biri. – Kalamat bu tulporini jonidan ham ortiq ko‘radiku! Uni o‘rtaga qo‘yib, hech qachon garov o‘ynamasligi aniq.

- Agar sizga, xonim afandi, Saxtanim yoqib qolgan bo‘lsa, uni garovsiz ham sizga tortiq qilishga tayyorman, - debdi Kalamat abxazlarga xos bo‘lgan balandparvoz ohangda.

- Yo‘q, yo‘q! Ayni paytda men uchun asosiysi tulpor emas, o‘yin jarayonining o‘zi. Men otni garov o‘ynab yutib olmoqchiman. Rozimisiz?

- Ixtiyor sizda. Men roziman.

- Knyaginya, agar siz yutqizsangiz, Kalamatga nimangizni berasiz? – deb savol tashlabdi mehmonlardan biri.

- Uning o‘zi aytsin, - javob qaytaribdi Marine.

- Unday bo‘lsa, kechagi poygada birinchi bo‘lib kelgan tulporingiz Sirani garovga tiking. Rozimisiz?

- Albatta, roziman!

- Siz ham rozimisiz, Chonchor Ivanovich? – deb murojaat qilibdi Kalamat bir chekkada xomush o‘tirgan samurzakan knyaziga.

Hamma keksa knyaz o‘zining dong‘i ketgan tulporini ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylashini va jonidan ortiq ko‘rishini bilardi.

- Bilasizmi, - asta so‘zini boshlabdi knyaz rafiqasining ko‘zlariga tik qaramaslikka harakat qilib. – Mening achigvardagi podamda ajoyib zotdor otlar oz emas. Tanlagan otingiz evaziga bir emas ikkitasini, yo‘q, uchtasini olishingiz mumkin.Agar istasangiz, albatta...

- Men bunga qarshiman! Men istamayman! – e’tiroz qabul qilmaydigan ohangda erining so‘zini bo‘libdi Marine. – Bu yer achigvardagi bozor emas, Chonchor Ivanovich. Shuni yaxshi bilib qo‘ying.

So‘ng eriga ayyorona muloyim boqib:

- Shunday emasmi, jonginam?Balki endi rozi bo‘lgandirsiz?A-a?

- Yo‘q, yo‘q! Ya’ni ha, men roziman! Albatta roziman! Men... faqat... o‘ylagandimki,.. – parishonomuz ohangda g‘o‘ldirabdi eri.

- Sizning o‘ylaganlaringiz hech kimni qiziqtirmaydi. Asosiysi – roziligingiz. Tamom vassalom! - deb erining duduqlanishiga chek qo‘yibdi Marine.

Hikoya shu yerga kelganida keksa Adzin Shmaf o‘zidan qo‘shimcha qilibdi:

- Xotini oyog‘i uchida ko‘rsatadigan Chonchor kabi erlar erkak degan nomga dog‘ tushirishadi. Undaylarning beliga belbog‘ emas, boshiga ro‘mol ko‘proq yarashadi.

Shu so‘zlar bilan u hikoyasida davom etibdi:

- Shunday qilib, Marine garovda g‘olib kelishni ko‘ngliga tugib, Kalamat aytgan cho‘pon haqida xizmatkor ayollardan ma’lumot yig‘a boshlabdi.

Yarim kechasi mehmon va mezbonlar uyquga ketishibdi. Faqat Marine mijja qoqmay, garovda yutib chiqish yo‘llarini qidiribdi. Darhaqiqat, uning uchun garovda ustun kelib Saxtanni yutish emas,

balki qonni jumbushga keltiruvchi jarayonning o‘zi muhim edi. Va Marine bir to‘xtamga kelibdi...

...Cho‘pon Karimning chaylasigacha mehmonlar turgan uydan chamasi bir soatcha yo‘l yurish kerak edi. Atrofdagi manzara ertakka o‘xshar: osmonni to‘lin oy yoritar, mayin shabada esa tog‘ gullarining nafis ufforini yon-atrofga taratardi. Karim chayla yonida chakmoni ustiga chalqancha tushib yotar, atrof suv quygandek “jim-jit” va osoyishta bo‘lishiga qaramay ko‘ziga uyqu kelmasdi. Bexosdan qulog‘iga chalingan shitirlashdan bir seskanib, ovoz kelgan tomonga qaragan ekan, ko‘z oldida namoyon bo‘lgan manzaradan hangu-mang bo‘lib qolibdi: ro‘parasida oq ko‘ylak kiygan yosh va xushsurat notanish bir ayol turardi. U umri bino bo‘lib bu qadar go‘zal ayolni ko‘rmagan edi. Cho‘pon dik etib oyoqqa qalqibdi.

“Ertakdagi Gunda emasmi bu? – degan fikr Karimning xayolidan yalt etib o‘tibdi. – Ha, ha, albatta Gunda”.

- Qo‘rqma, men arvoh emasman, - debdi ayol ohista ovozda. – Nega bir o‘zing zerikib o‘tiribsan? Mening ham bugun negadir uyqim kelmayapti. Yolg‘iz o‘tirmagin deb yoningga keldim. Seni zeriktirmaslikka harakat qilaman.

Karim, dastavval, kutilmagan bu tashrifdan o‘zini yo‘qotib qo‘ygan bo‘lsa-da, birozdan keyin o‘zini o‘nglab olib, mehmonni chakmon ustiga o‘tirishga taklif qilibdi. Ular bir necha daqiqa sukut saqlab o‘tirishibdi. Keyin ayol yon-atrofni zimdan o‘rgana boshlabdi va chayla yonida turgan bo‘yniga pushtirang ro‘molcha bog‘lab qo‘yilgan oppoq qo‘zichoqqa ko‘zi tushibdi.

- Bu o‘sha, xo‘jayining knyaz Kalamat va uning xotini yaxshi ko‘radigan qo‘zichoq emasmi?

- Xuddi o‘zi, - deb javob beribdi cho‘pon. – Ammo siz buni qaerdan bilasiz?

- Hay-hay, bunchalik chiroyli bo‘lmasa! Iltimos, uni menga sovg‘a qilgin!

Karim uning har bir harakatini zimdan kuzatar ekan, butun vujudini titroq va hayajon bosar, nafas olishi borgan sayin og‘irlashib borardi.

“Ertaklarda uning go‘zalligini jannat hurlariga qiyoslashgani bejiz emas ekan, - degan fikr xayolida yalt etibdi. – Nart bahodiri Sasriq ham uning go‘zalligidan aql-xushini yo‘qotgan deyishlarida jon bor ekan. Bahodir dovyurak va kuchli edi. Qanchadan-qancha go‘zallar uning birgina muloyim so‘ziga mushtoq bo‘lsada, ularning tomoniga qiyo ham boqmagan Sasriq sohibjamol Gundani ko‘rgan zahoti unga oshiqu beqaror bo‘lib, muhabbat alangasida kuyib kul bo‘lgan. Hattoki, unga qo‘lining uchini tekkizmagan bo‘lsa ham sevgi otashida adoyi tamom bo‘lgan...”

Karim ham hozir xuddi shunday holatga tushib qolgan edi: uning a’zoyi badanini titroq bosib, notanish tuyg‘u og‘ushida ko‘zining oldi qorong‘ulashib, ayolning ko‘ziga tik boqishga botinolmasdi.

Bu dunyoda ko‘pni ko‘rishga ulgurgan begoyim tajribali emasmi, yigit qalbi va xayolidan nimalar kechayotganini sezib turar, o‘zini himoyasiz qo‘zichoq oldida turgan yirtqich bo‘ri kabi his qilardi.

Karim ushbu vasvasaga dosh berishga o‘zida kuch topolmay turar, boshini changallab qochib ketishni ixtiyor etsa-da, turgan joyidan bir qadam ham bosishga majoli yo‘q edi.

- Xo‘sh, - uzoq davom etgan sukutdan so‘ng debdi ayol. – Nega o‘ylanib qolding? Istasang, bu qo‘zichoq uchun senga mo‘maygina pul beraman. – Shu so‘zlar bilan Marine qo‘lidagi uzuklardan birini yechibdi.

- Yo‘q, yo‘q! Kerak emas! – qo‘rqib ketibdi yigit. – Qo‘ying. Menga pulingiz ham, tillangiz ham kerak emas. Meni tushunishga harakat qiling: sizga hayotim kerak bo‘lsa – olaqoling. Hayotim o‘zimniki, uning ixtiyori ham o‘zimda. Ammo, qo‘zichoqni sizga berolmayman. Chunki u meniki emas, balki xo‘jayinimga qarashli. Istasangiz, uning egizagini sizga hadya qilaman. Ikkalasi quyib

qo‘ygandek bir xil, bir vaqtning o‘zida tug‘ilishganda. Faqat unisining bo‘ynida pushti bog‘ichi yo‘q. Istaysizmi? Bir ko‘ring, hozir olib kelaman... Men hozir...

- Yo‘q! Boshqasi kerak emas. Menga bunisi yoqib qoldi. Shu qo‘zichoqni bersanggina... qulog‘ingga aytadigan so‘zlarim bor... – debdi ayol sirli jilmayish bilan.

Yer yorilmadiyu yigit yerga kirib ketmadi. Ayol go‘zalligi uni aql-xushidan ayirayozdi, ko‘z oldi qorong‘ilashdi. Karim o‘zini bazo‘r tiyib turardi.

- O‘zing qo‘zichoqlar egizak, ularni bir-biridan umuman farqlab bo‘lmaydi deb aytding-ku. Shunday ekan, bo‘ynidagi bog‘ichni yechib, ikkinchisiga bog‘lab qo‘ysang - olam guliston. Bu haqda ikkimizdan boshqa hech kim bilmaydi. Sen ham, men ham bu haqda hech kimga aytmaymiz. Shunday emasmi? – Va biroz sukut saqlagach, makkorona jilmayish bilan: - Nahotki mendek go’zal ayolning muhabbati mana shu kichkina yolg‘onga arzimasa?! – debdi.

Marinening bu so‘zlarini eshitgan Karim birdan xushyor tortibdi: ayol uni yolg‘onga undar edi. “Yo‘q,”- deb javob qaytarishga shaylanib turgan yigitning so‘zini bo‘lib, ayol yana gapira boshlabdi:

- Tezroq bo‘lsangchi! – shoshiltiribdi u. – Tun oxirlab bor-moqda. Men esa, azizim Karim, sening mehringga tashna bo‘lib turibman.

Ayol yigitga yaqin kelganida uning nafasidagi ehtiros va o‘tli harorat yigitni xushidan ayiribdi va u ixtiyor tizginini qo‘lidan chiqarib yuboribdi: cho‘pon nafsini tiyishga o‘zida kuch topolmay ayolni mahkam bag‘riga bosibdi...

Ertasiga ertalab nonushta chog‘ida mehmonlar knyaginyaning tunda sirli ravishda g‘oyib bo‘lganini qizg‘in muhokama qilib o‘tirishganida to‘satdan xonaga Marine kirib kelibdi va sholro‘moli ichidan bo‘yniga pushti bog‘ich o‘ralgan oppoq qo‘zichoqni chiqarib yerga qo‘yibdi.

- Siz garovni boy berdingiz, knyaz. Endi Saxtan meniki, - debdi u. - Mana bu sizning sevimli qo‘zichog‘ingiz. Uni menga cho‘ponning o‘zi qo‘sh-qo‘llab tutqazdi. Sizga esa, qiziqib ko‘rsangiz albatta, xuddi shunday bog‘ichli qo‘zichoqni ko‘rsatadi. Ko‘rganingizdek, cho‘pon yigit sizga bevofolik qildi. U siz aytganchalik to‘g‘riso‘z va halol odam emas ekan. Siz garovda yutqizdingiz.

- Adashayapsiz, knyaginya, - javob beribdi Kalamat miyig‘idan kulib. – Men garovni yutqizganim yo‘q. Gap shundaki, siz cho‘pon yigitning soddaligidan foydalanib, uni shunday holatga tushirgansizki, u men yaxshi ko‘rgan qo‘zichog‘imni sizga berib yuborishga majbur bo‘lgan. Ammo, ertalab tong yorishishi bilan cho‘pon huzurimga kelib, kechasi bo‘lib o‘tgan hamma voqeani menga aytib berdi... Aytgancha, hozir Karim shu yerda, oshxonada. Istasangiz uni shu yerga chaqirishim mumkin. Uning o‘zi mehmonlarga bo‘lib o‘tgan voqeani batafsil so‘zlab bersin...

- Yo‘q, xudo xayringizni bersin, kerak emas! – javob beribdi knyaginya dokaday oqargan yuzlarini qo‘llari bilan to‘sib va so‘niq tovushda qo‘shimcha qilibdi:

- Men yutqizdim...

Shu so‘zlar bilan Marine madorsiz qolgandek asta kursiga cho‘kibdi.

MOMIQ ZARRASI

- Yo‘q, ikkinchi marta ularnikiga bormayman. Endi u yerni yelkamning chuquri ko‘rsin. Aks holda bu yaxshilik bilan tugamaydi, - g‘o‘ldirardi Xib Shoudid Xazari Manchaning uyidan qaytar ekan.

Ammo, boshqa bir o‘y unga tinchlik bermasdi: “Borasan... borasan... Bormay nima ham qilarding?! Axir seni o‘ziga rom qilgan, xalovatingni o‘g‘irlagan go‘zal Shazinani ko‘rmasang turolmaysan-ku!”

Darhaqiqat, uning qalbini ikki qarama-qarshi tuyg‘u o‘rtar, ulardan biri – Shazinaga nisbatan soat sayin ortib borayotgan his-tuyg‘ulari bo‘lsa, ikkinchisi - uning eri Mancha oldidagi burch va ularni bog‘lab turgan do‘stlik rishtasi edi. Soddadil va sofdil Manchaning unga nisbatan bo‘lgan samimiy munosabati esa vaziyatni yanada chigallashtirardi. Ammo, Shazinaga nisbatan bo‘lgan ehtirosli muhabbati uning ko‘zini ko‘r, qulog‘ini kar, vijdonini esa so‘qir qilib qo‘ygan, xullas muhabbat olovi uni jizg‘anak qilayotgan edi.

Shoudid uyiga yaqinlashganida ancha kech tushib qolgan edi. Hamma uyquda. Uydagilarni uyg‘otib yubormaslik uchun u shamni ham yoqmay, qorong‘ida apil-tapil yechinib ko‘rpaning ostiga kirib yotibdi. Ammo, tuni bilan sohibjamol Shazina siymosi ko‘z oldidan ketmay, mijja qoqmay chiqibdi.

- Endi nima bo‘ladi? – degan savol Shoudidning xayolini chulg‘ab olgan, ko‘z oldidan bir-biridan dahshatli manzaralar o‘tar edi. Nima qilarini bilmay obdon ikkilanibdi. Tongga yaqin ma’lum bir qarorga kelganidan keyingina uyquga ketibdi.

Shoudid bir necha kun ko‘rinmagani do‘stlarini taajubga solibdi. Chunki, avvallari Shoudid bo‘lar-bo‘lmas narsani bahona qilib, ularnikiga kelmagan kuni yo‘q edi. Bir necha kundan keyin u Shazina va Shoudidning uyiga kirib kelibdi.

An’anaviy salom-alikdan keyin mehmon uy egasiga qarata:

- Chagamlik cho‘pon Arstaa Mafning aytishicha, Bog‘ot qoyasida bahaybat ayiq paydo bo‘libdi. Shuni mo‘njal qilib ketayapman. Men bilan bormaysanmi? – debdi.

- Jonim bilan, - javob qaytaribdi Shoudid. – Ko‘pdan beri shunday mehmon bilan kuch sinashishni orzu qilardim.

Keyin rafiqasiga qarata:

- Agar u bilan ko‘rishish nasib etsa, polos o‘rniga oyog‘imiz ostiga ayiqning terisini to‘shaymiz.

- Rostdanmi?– o‘zida yo‘q xursand bo‘libdi Shazina va birdan xushyor tortib hayajon bilan: - Ammo unga bas kelolmasanglarchi, unda nima bo‘ladi? - debdi.

- Nimalar deyapsan?! Bog‘ot qoyasi yonidagi jar ustidan o‘tgan ko‘prik eng qulay joy. Mana shu ko‘prik yaqinida pistirma quramiz. Buning hech xatarli joyi yo‘q. Yaxshisi tezroq hozirligingni ko‘r. Xavotir olma, hammasi yaxshi bo‘ladi, - deya xotinini tinchlantirishga harakat qilibdi Mancha.

Shazina ovchilarga ikki kunga yetadigan yegulik hozirlab, oq yo‘l va omad tilab kuzatib qo‘yibdi.

Do‘stlar yo‘l yurib, tushlikka yaqin Bog‘ot qoyasiga yetib kelishibdi. Xali charchab ulgurishmagani uchun to‘xtamay qoyaga ko‘tarila boshlashibdi.

- Ayiq bu yerga Amtkyaldan kelganga o‘xshaydi. U yerda yovvoyi ayiqlar ko‘p deyishadi, - debdi Mancha qoyaga tirmashar ekan.

- Balki Jurgadandir. U yerda ham ayiqlar bor, - deb javob qaytaribdi Shoudid.

- Menga bu joylar yaxshi tanish, - debdi Mancha. – Bu yerda ko‘p marta ov qilganman. Bilasanmi, shu qoyalar qoshida nima sababdandir momiq zarralari to‘p-to‘p bo‘lib uchib yuradi. Ko‘rayapsanmi? Hov ana...

- Ha, ko‘rayapman. Bu vodiydagi teraklarning momiq zarralari. Ba’zan ular shu qadar ko‘payib, pag‘a-pag‘a bo‘lib ketishadiki, ov qilishga ham xalaqit berishadi.

Shu vaqt do‘stlar ensizgina bir tosh maydonchaga chiqib borishibdi. Miltiqlarini bir chekkaga qo‘yib, dam olishga shaylanishibdi. Atrofda tik qoya ko‘kka bo‘y cho‘zar, Bog‘ot qoyasi etagini yuvganicha Kadar daryosining oppoq bulutni eslatuvchi shovqinli suvlari vajohat bilan oqardi. Uzoqda esa vodiydagi mirzateraklar uzra pag‘a-pag‘a momiq zarralari uchib yurardi.

Mancha biroz dam olish niyatida yerga cho‘zilgan ekan, Shoudid xavotirli ohangda:

- Ehtiyot bo‘l! Qaltis harakat qilsang, jarga qulab tushishing hech gap emas, - debdi.

Xayolidan esa beixtiyor “Qani edi. Shunda hamma muammolar o‘z-o‘zidan yechimini topgan bo‘larmidi?!” – degan o‘y o‘tibdi.

- Bezovta bo‘lma, - beparvo ohangda javob beribdi Shoudid. – Esimda, yaqinda bundan ham tikka Ertsax qoyasida bir kiyikni holdan toydirib tiriklayin ushlagandim. Hozirgi turgan joyimiz Ertsaxdagiga nisbatan keng maydon-ku! O‘shanda jarga qulab tushmagan bo‘lsam, hozir menga jin ham urmasligi aniq.

- To‘g‘rikuya, ammo ehtiyotkorlik zarar qilmaydi. “Ko’za kunda emas kunida sinadi” degan gap borku, - deya ogohlantiribdi Shoudid.

- Bu yerda baxtsiz xodisa yuz berishi mumkin emas, - ishonch bilan debdi Mancha.

Ammo baxtsizlik ruxsat so‘rab kelmas ekan...

Yarim tunda Shoudid Shazinaga erining fojiali o‘limi haqidagi shum xabarni yetkazibdi. Ayolning faryodiga butun qishloq yig‘ilib kelibdi.

Yig‘ilganlarning savoliga Shoudid shunday tushuntirish beribdi:

- Mancha kiyik ortidan quvib ketayotganida kutilmaganda oyog‘i toyib ketib jarga qulab tushdi. Men uni qutqarib qolishga ulgurmadim.

Odamlar jasadni topib uyga olib kelish uchun toqqa ravona bo‘lishibdi. Ammo, shuncha qidirishsa ham topa olishmabdi. “Mancha qoyadan yiqilib tushib jardagi tor tirqishlaridan biriga tushib ketgan bo‘lsa kerak” - degan xulosaga kelib, qishloqqa qaytishibdi.

Shazina eriga aza ochibdi. Keyingi bir yil davomida qora kiyimlarini yechmabdi. Shoudid ham uni yolg‘iz qo‘ymay, ko‘ngil so‘rash bahonasida tez-tez uyiga kelib turar, bevaning musibatiga sherik bo‘lib, uni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga harakat qilardi. Xullas, oxir-oqibatda Shoudid do‘stining xotirasiga

sodiqligini isbotlab, ayolning e’tiborini o‘ziga qaratishga muvaffaq bo‘libdi.

Kunlardan bir kun Shoudid ayolga muhabbatini izhor qilishga jazm qilibdi va oila qurish istagini bildiribdi.

Shazina marhum eriga nisbatan mehri sovimagan emasmi, rozilik berishga shoshilmabdi. Ammo qarindosh-urug‘ va do‘stlarining qistovlari ostida rozi bo‘lishdan boshqa ilojisi qolmabdi. Bir oydan so‘ng Shoudid shuncha yildan beri sevishdan charchamagan ayolini beka sifatida uyiga boshlab kiribdi.

Shoudid xotiniga nisbatan nihoyatda mehribon va e’tiborli bo‘lgani uchun Shazina tez orada unga ancha bog‘lanib qolibdi.

Shu tariqa bir yil o‘tibdi.

Kunlardan bir kun Shoudid ayvonda uxlab qolibdi. Shazina erining yoniga cho‘kib, uning uyquda nimadandir bezovta bo‘layotganini, nimalarnidir pichirlayotganini ko‘rib qo‘lini peshonasiga qo‘ygan ekan, Shoudid uyg‘onib ketibdi.

Havoda shu atrofda o‘sayotgan teraklarning momiq zarralari bir-birini quvgandek betartib shaklda uchib yurardi.

- Momiq zarralar! – xavotirli ovozda debdi Shoudid osmonga ko‘z tikib.

- Ha, - Shazina ham nigohini osmonga qadabdi.

- Negadir bugun ular juda ko‘pa, - so‘zida davom etibdi Shoudid. Uning vujudini bezovtalik chulg‘ab olayotgan edi.

- Ha, ko‘p, - javob beribdi Shazina. – Uxlayotganingizda ham bu haqda ko‘p gapirdingiz. Men qanchalik harakat qilmay, “zarra” so‘zidan boshqasini anglay olmadim. U tushingizga kirdimi?

Ayol yomon xayollardan forig‘ qilish niyatida erining keng peshonasini mehr bilan silagan ekan, Shoudid uni astagina bag‘riga bosibdi...

- Ha, men momiq zarrasini tushimda ko‘rdim.

- Shundaymi?

- Ha, u bir dona, ammo juda katta va qo‘rqinchli edi.

- Nima uchun qo‘rqinchli deyapsiz?

- Asti so‘rama, jonginam.

- Ammo nima uchun?

- U menda ayrim noxush xotiralarni uyg‘otdi. Kel, shu haqda gaplashmaylik.

- Aksincha, hammasini menga gapirib berishingiz kerak, - bo‘sh kelmasdi Shazina.

- Hikoyam muhabbatimizga rahna solib qo‘yishi mumkinda.

- Biz bugungi kun bilan yashayapmiz. O‘tmish aslo muhabbatimizga rahna sololmaydi.

- Ammo meni tushunarmikinsan? Kechira olarmikinsan?

- Nega kechirmay? Xotiralaringiz bir yostiqqa bosh qo‘yganimizga qadar bo‘lgan o‘tmish voqealari bilan bog‘liq bo‘lsa, albatta kechiraman.

- Ha, o‘tmish voqealari bilan bog‘liq... Buning ustiga buni men... senga bo‘lgan muhabbatim tufayli qilganman.

Shoudid ko‘zini yumib asta gapida davom etibdi:

- Seni sevib qolganimga ancha vaqt bo‘ldi. Uylaringga tez-tez borib yurganim esingdami? O‘rtangizdagi inoqlik va mehr-muhabbatni ko‘rib, aqlimni yo‘qotayozdim. Oxir-oqibatda sensiz yashay olmasligimni tushundim. Sen faqat meniki bo‘lishing kerak edi. Xalqda bir gap borku: “Biri o‘lmaguncha boshqasi baxtli bo‘lolmaydi...” – degan. Xullas, bir qarorga keldim,..- aytilgan bu so‘zlardan o‘zi ham qo‘rqib ketibdi. Ko‘zlarini ayoldan olib qochishga harakat qilib, aybdor boladay boshini egibdi.

- Xo‘sh, qanday qarorga keldingiz? – Shazinaning ovozi uzoqdan kelayotganday edi.

Shoudid uzoq jim qolibdi.

- O‘sha kecha senga yolg‘on gapirgandim, - bazo‘r so‘zida davom etibdi u. – Manchaning o‘limi tasodifiy emas edi. Biz haqiqatan ham Bog‘ot qoyasidagi kichik bir maydonchaga yetib olgandik.

U yerda biroz dam olishga qaror qildik. Mancha xordiq chiqarish niyatida yerga cho‘zilganida... men... bundan foydalandim...

Bu so‘zlarni eshitgan Shazinaning yuzida dahshat aks etibdi. U hammasini tushunganday edi. Erining yelkasida turgan qo‘llarini jon holatda tortib olib boshini changallabdi.

- Hali-hanuz ko‘z oldimdan ketmaydi, - so‘zida davom etibdi Shoudid. – Boshimiz uzra momiq zarralari uchib yurardi. U jon berar ekan: “Nima uchun bunday qilding? Senga nima yomonlik qilgandim?” – dedi. Uning ko‘zimga tik boqib aytgan bu so‘zlari yuragimni tilka-pora qilib yubordi. “O‘zim ham payqagandim-a... Demak, adashmagan ekanman... Sen Shazinani sevganing uchun jonimga qasd qilding... Bu sirligicha qoladi deb o‘ylayapsanmi? Yo‘q! Har qanday qotillikning guvohlari bo‘ladi. Mana shu uchib yurgan momiq zarralar bugungi qotillikning guvohi. Qulog‘ingga quyib ol: men ketaman, ammo ular butun haqiqatni so‘zlab berishadi...” Shu so‘zlar bilan Manchaning joni uzildi. Mening esa jasadni jarga uloqtirishdan boshqa ilojim qolmagandi

Shoudidning nafas olishi og‘irlashib, ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketgandi.

- Bugun esa bir tush ko‘rdim: ikkimiz terak soyasida o‘tirgan ekanmiz... Birdan atrofimizda momiq zarralar ucha boshladi... Ularga mahliyo bo‘lib o‘tirar ekanmiz zarralardan bittasi kattalasha bosh-labdi, oldimizga uchib kelganida ichidan Manchaning yuzi ko‘rindi. Uning qonga to‘lgan ko‘zlarida: “Nega jonimga qasd qilding? Men bo‘lmasam momiq zarra siringni oshkor qilib seni fosh etadi!” – degan so‘zlarni o‘qidim. Keyin zarra kichrayib-kichrayib boshqalariga qo‘shilib ketgani uchun men uni yo‘qotib qo‘ydim. Shazina erining hikoyasini jim o‘tirib eshitdi. Boshini quyi egib iztirob bilan eshitdi. Bir og‘iz so‘z qo‘shmadi.

- Tushungin, men seni sevganim uchun qotillikka qo‘l urdim... Muhabbat ko‘zimni ko‘r qildi... Faqat shu yo‘l bilan senga yetishishim

mumkin edi, axir. Jonginam, meni kechir... - deya iltijo qildi Shoudid qo‘llarini xotini tomon uzatar ekan.

Ammo Shazina uning qo‘llarini itarib tashlab:

- Bunday razillikni kechirib bo‘lmaydi! – deb shahd bilan o‘rnidan turib patsxaga kirib ketibdi.

Shoudid tushkun bir holatda boshini yostiqqa qo‘yibdi.

Bir necha daqiqa o‘tar-o‘tmas uydan miltiq ko‘targan Shazina chiqib kelibdi.

- O‘rningdan tur! Erkak kishi o‘z aybini faqat qon bilan yuvishi mumkin. Bu do‘stingga xiyonat qilganing uchun, uning umriga zomin bo‘lib, muhabbatimizni xazon qilganing uchun, - deya tepkini bosibdi.

TO‘Y

Abxaz knyazlari Alxas Chachba va Kotsi Dadiani quda bo‘lishga ahd qilishibdi. Ularning farzandlari dovyurak Safar va sohibjamol Setsiliya bir-birlariga juda munosib edi. Belgilangan kuni kuyovning uyiga mehmonlar yig‘ilib, kelinning kelishini ham kutmasdan bazmu jamshidni boshlab yuborishibdi.

Kelinni olib kelish uchun yuborilgan vakillarga olijanob va mard, o‘zgalarni hurmat qilib, o‘ziga ham tegishli izzat talab qiladigan inson Maan Xazan boshchilik qilibdi. Vakillar knyazning topshirig‘iga binoan qudaga hadya qilinadigan ikkiyuzta egarlangan otni ham haydab ketishibdi.

...Knyaz Kotsi Dadianining xonadonida ham mehmondorchilik avjida, yig‘ilganlar uy sohibining sog‘lig‘i va yosh kelin-kuyovning baxt-saodati uchun qadah ko‘tarishardi.

Maan Xazan boshchiligidagi vakillar knyazning muhtasham koshonasi oldida to‘xtab, otlardan tushib hovliga kirishibdi. Ammo, to‘y egasi ayvondan tushib kelib, aziz mehmonlarga peshvoz chiqish

va ularni ichkariga boshlab kirishning o‘rniga yuqoridan turib hitob qilibdi:

- Hoy, telba Xazan, nahotki Alxas kelinni olib kelish uchun seni yuborgan bo‘lsa? Mayli, ayvonga chiqaqolinglar, kelinglar!

Kotsi Dadianining ko‘rinishi ham bunday tantanali marosim uchun mos emasligi kelganlarning e’tiborini o‘ziga tortibdi.

Mezbonning bunday munosabatidan qattiq ranjigan Xazan hovlidan turib javob qaytaribdi:

- Taklifing uchun rahmat, hurmatli Kotsi. Ammo, afsuski, uni qabul qilolmaymiz. Biz shu atrofdan o‘tib ketayotgan edik. Knyazimiz Alxas Chachbaning iltimosiga binoan senga uning alangali salomi va eng yaxshi tilaklarini yetkazish uchun to‘xtadik, xolos.

Shunday deb Xazan hamrohlariga ma’nodor ko‘z qisgan ekan, hammalari otlariga minib hovlidan tashqariga ravona bo‘lishibdi. Vakillardan buni kutmagan Kotsi Dadiani “hangu mang” bo‘lib, joyida baqrayganicha turar, mehmonlarning esa dami ichiga tushib ketgandi. Chunki ichkarida to‘y ko‘ylak kiygan Setsiliya yorining vakillarini intiqlik bilan kutar, vakillar esa birin-ketin xovlidan chiqib ketishayotgan edi...

Vakillar Liya qishlog‘iga kelishganida Maan Xazan knyazning hadyasi bo‘lgan egarlangan otlarni dehqonlarga ulashibdi. Deyarli hamma otlarni tarqatib bo‘lgach, knyaz David Dadianining uyi tomon yo‘l olishibdi. Knyazning xo‘jaligi ancha nochor holatga kelib qolgan bo‘lsa-da, ammo Setsiliyadan ham go‘zal bir qizi bor edi.

- Mehmonlarni kutib ol. Biz Alxas Chachbaning vakillarimiz. U muhtaram zot qizing Mashoni o‘g‘liga so‘ratayapti, - debdi Xazan Davidga qarata.

Bunday yangilikdan shoshib qolgan knyaz:

- Men uchun bu sharaf, - deb javob qaytaribdi. – Ammo qo‘shnim Kotsi ham bugun qiziga vakillarni kutayapti, deb eshitgandim. Bunga nima deysiz?

- Unisini bilmaymanku, ammo bizlar sening qizing Mashoni so‘rab keldik.

... Knyaz Alxas Setsiliyaning o‘rniga Mashoni ko‘rib hayron bo‘libdi, ammo Kotsi Dodiani vakillarni qanday kutib olganini eshitganidan keyin debdi:

- Sen hammasini to‘g‘ri qilibsan, Maan Xazan! Sen har qanday chinakam abxazlik qiladigan ishni qilibsan. Uyimga Setsiliyadan ham go‘zalroq kelinni olib kelibsan.

KELIN KO‘RISH MAROSIMI

Keksa Kolbux nabirasi sevib qolgan qizni o‘zi ko‘rib, aql-farosatini sinab ko‘rishga qaror qilibdi. Oilaviy baxt ko‘proq xotinning chiroyiga emas, uning aqliga bog‘liq ekanligini u yaxshi bilardi. Aytishadi-ku: “Ba’zi xotinlarning tili uyga baxtsizlik kirib keladigan narvonga o‘xshaydi,” - deb.

Kunlardan bir kun qariya bir narsani bahona qilib kelin bo‘lmishning uyiga boribdi. Otasi bilan gurunglashib o‘tirar ekan, qizga eshittirib:

- Bu yerga kelayotganimda beixtiyor hamrohlarimning suhbati qulog‘imga chalindi va juda g‘alati tuyuldi. Biri ikkinchisidan (mening eski tanishimdan): “Tog‘ cho‘qqisidagi qorga necha yil bo‘lgan? Oqayotgan soygachi?” – deb so‘radi. Tanishim esa unga javoban: “Cho‘qqidagi qorga qirq yil, soyga esa o‘n yil bo‘lgan,” – debdi.

- Ha, haqiqatan ham g‘alati suhbat, - o‘ychan ohangda debdi mezbon.

- Ruhsat bering ota, bu so‘zlarning ma’nosini men tushuntirib beray, - biroz iymanibgina suhbatga qo‘shilibdi qiz.

- Gapiraqol, qizim! – debdi Kolbux.

- Ular hurmatli mehmonimizni nazarda tutishgan. Birinchisi ularning sochlari qachon oqarganini va necha yildan beri ko‘zlari yoshlanayotganini bilmoqchi bo‘lgan, - debdi qiz.

- To‘g‘riga o‘xshaydi, - xursand bo‘libdi Kolbux qizning hozirjavobligidan. – Men esa “Nima gap ekan deb,” boshimni qotirib yuribman.

Mezbon esa qizining topqirligidan xursand bo‘lib, qalbi iftixor tuyg‘usi bilan to‘libdi. Shunda mehmon gapida davom etibdi:

- Qo‘shnilarimning boshiga og‘ir musibat tushdi. Knyazimiz Jamlat, padariga ming la’nat, qo‘shnimning o‘g‘lini o‘zga yurtlardan kelgan savdogarlarga sotib yuborishni o‘ylabdi. Uning bo‘yniga biron bir aybni qo‘yish bahonasida yigitni oldiga chaqirib qo‘liga tosh tutqazibdi va bu toshni qo‘yning o‘rniga pishirishini, go‘shtini esa uning oldiga olib kelishni buyuribdi. Ertaga belgilangan muddat tugamoqda. Yigitning yaqinlari chorasiz qolib, nima qilishni bilmay o‘tirishibdi.

- Buning o‘ylab o‘tiradigan joyi yo‘q, - debdi qiz ayyorona jilmayish bilan. – Yigit toshni knyazga qaytarib olib borsinu: “Yaxshi, men toshni pishirib beraman. Ammo avval siz uni so‘yib terisini shilib bersangiz,”- desin. Tamom vassalom!

Keksa Kolbux qizning zukkoligiga tan beribdi.

Ammo sinov hali yakuniga yetmagandi. Endi u qizning kuch va bardoshini ham sinash maqsadida ota-bolani tog‘da yashaydigan do‘stining uyiga mehmonga borishga taklif qilibdi.

Mezbon mehmonning rayini qaytara olmabdi va uchovlon yo‘lga ravona bo‘lishibdi.

Biroz yurganlaridan keyin qariya qizga qarata: “Qizim, sendan iltimos: mana shu o‘rmonga kirib, menga do‘stimni olib kelsang,” – debdi. Qiz uning nima demoqchiligini tushunib, darhol qariyaga daraxtning shohidan xassa yasab qo‘liga tutqazibdi. Yana yo‘l yurishibdi. So‘qmoq yo‘l tog‘ etagiga yaqinlashganida ota charchaganini aytib, yana qancha yurishlari kerakligini so‘rabdi.

Shunda qiz yo‘lni qisqartirish maqsadida qiziq bir voqeani boshlab yuboribdi. Hikoya tinglovchilarning e’tiborini o‘ziga shunchalik tortgan ediki, ular ko‘zlangan manzillariga qanday qilib yetib borishganini sezmay qolishibdi. Shunday qilib, zukko qiz yo‘lni qisqartirishga muvaffaq bo‘libdi.

Buning guvohi bo‘lgan keksa Kolbux nabirasiga munosib xotin topilganiga dildan xursand bo‘libdi.

BOBONING O‘GITI

Kiuta Xaparning uyi. Shamning miltillagan yorug‘ida yosh juvon xayol surib o‘tirardi. Oyna ortida yomg‘ir chelaklab quyar, vaqti-vaqti bilan chaqmoqning yorug‘i uyni yoritar, momoqaldiroqning gumburlashi esa xonani larzaga keltirardi... Ayolning vujudini dahshat va hayajon qamragan, qalbi esa eri uchun xavotirda edi.

Yarim tundan oshganida eshik og‘ir ochilib, xonaga holdan toygan Xapar kirib keldi. Ayol apil-tapil o‘rnidan turib shamni yoqqan ekan, uning yorug‘ida ko‘z oldida namoyon bo‘lgan manzaradan hayratda qolibdi: erining yuzi qo‘rquvdan burishib, dokaday oqarib ketgandi, ko‘zlari esa dahshatga to‘la va shokosasidan chiqayozgandi...

- Qaerda edingiz? – majolsiz ovozda so‘radi ayol.

Xapar jim edi.

- Qaerda edingiz? – savolini takrorladi u.

Ayolning tovushidan cho‘chib tushgan eri eshitilar-eshitilmas:

- O‘rmonda... - deb javob qaytaribdi.

- O‘rmonda? Kasalmisiz?

- Yo‘q...

Shu on ayolning ko‘zi chakmon va qo‘llardagi qonga tushibdi.

- Hamma joyingiz qonku, yaradormisiz?

- Yuvinib olishga suv ber. Kiyimimni almashtirib olay...

Ayol yuvinish uchun suv keltiribdi.

- Sizga nima bo‘ldi?

- Hech narsa...

- Aytsangiz-chi!

Yana jimlik.

- Aytsangizchi, axir xotiningizman.

Xapar boshini ko‘tarib, xotinining ko‘ziga tik boqib:

- Hech kimga aytmaysanmi? – debdi.

- Bu nima deganingiz? Kimga aytishim mumkin?

- Menga qara Chimsa, - Xapar shivirlashga o‘tibdi. – Agar bu gapdan kimdir xabar topsa, xolimiz voy bo‘ladi.

- Jonginam, nima gap o‘zi? Meni qo‘rqitmay, aytaqolsangiz-chi, - betoqat bo‘la boshlabdi Chimsa. – Eshitganimni birovga aytmaslikka so‘z baraman.

- Bo‘lmasa eshit: men odam o‘ldirib qo‘ydim.

- Voy o’lay - hayajon bilan xitob qilibdi ayol. – Kimni?

- Bilmadim! U yer qorong‘u edi. Jasadni esa o‘rmonda bekitib keldim.

- Sho‘rimiz qurib qolibdi! – debdi tushkunlikka tusha boshlagan xotini. – Endi nima bo‘ladi? Nima qilish kerak? Namuncha peshana-miz sho‘r bo‘lmasa?! Kimligini ham ko‘rmadingizmi?

- Yo‘q, - ma’yus javob beribdi Xapar. – U o‘rmonda orqamdan hamla qildi - ataylab kutib turgan ko‘rinadi. O‘rtamizda kurash boshlanib ketdi. Men o‘zimni himoya qilishga harakat qildim va tasodifan boshini yorib qo‘ydim. O‘rmon esa zim-ziyo, hech narsani ko‘rib bo‘lmasdi. Men uni birinchi ko‘ringan chuqurga tashlab, ustini shoh-shabba bilan bekitib keldim. Ertaga tunda borib ko‘mib kelmoqchiman. Ammo, menga so‘z berganing esingdan chiqmasin. Bu haqda hech kim bilmasligi kerak. Eshitdingmi, hech kim...

- Nega qaytaraverasiz? Tushundim... Hech kimga aytmayman.

Shu bilan o‘rtaga jimlik cho’kdi. Stoldagi ovqat shundayligicha qolib ketdi: ikkisi ham unga qo‘l tekkizmadi. Bunday paytda

tomog‘dan ovqat o‘tarmidi?! Birozdan keyin uxlashga yotib, ikkisi ham allamahalgacha to‘lg‘onib chiqdi.

Ertasiga tong otmasidan Chimsa suv olib kelish uchun chashma yoniga boribdi. U yerda qo‘shnisi Saidani uchratib qolibdi. An’anaviy salom-alikdan so‘ng Saida xavotirli ohangda:

- Yuzingdan qon qochibdi. Ishqilib kasal bo‘lib qolmadingmi? – deb so‘rabdi.

- Yo‘q, sog‘man, - shoshib javob qaytaribdi ayol.

- Nima bo‘ldi, tinchlikmi?

- Hech nima... O‘zim shunday...

- Mendan nimanidir yashirayapsan.

- Yo‘q, xudo haqqi... Hammasi joyida...- debdi Chimsa.

Ammo ovozidagi titroq uni fosh etgandi.

- Sen nimanidir yashirayapsan. Yaxshisi menga ko‘nglingi och, yengillashasan.

- Boshimizga kulfat tushdi, - qo‘shnisining tazyiqiga dosh berolmabdi Chimsa.

- Kulfat? Qanday kulfat?

- Buni senga aytolmayman.

- Nega?

- Bu sir. Buni hech kim bilmasligi kerak.

- Sen hali yoshsan, - asta avray boshlabdi Saida. – Hayotni bilmaysan. Mening gapimni eshit: odam ichida sir saqlashi mumkin emas. Bu koni zarar. Mana menga qara, hech kimga sirimni aytmay-aytmay nima bo‘ldim? Quruq cho‘pga aylandim qoldim. G‘irt ahmoq ekanman. Sir odamni quritib yuborar ekan. Siringni birovga aytsang, ancha yengillashasan, yurakdan tosh ko‘chadi... Sen ham mendek bo‘lib qolishni istamasang siringni menga ayt.

- Bu sirni senga aytolmayman-da, - ikkilanibdi Chimsa.

- Nima, menga ishonmaysanmi? Axir seni o‘z qizimdek yaxshi ko‘raman-ku. Buning ustiga qarindoshchiligimiz ham bor: buving qaynonamning uzoq bir qarindoshi bo‘lgan deyishadi. Shunday ekan,

siringni menga oshkor qilishing mumkin. Gapiraqolsang-chi... Odamni xit qilib yubording.

- Shundaymi? – Chimsaning ovozida hamon ikkilanish bor edi. – Aytsam, birovga aytib qo‘ymaysanmi?

- Xudo haqqi, hech kimga aytmayman.

Chimsa Saidaning yoniga tisarilibdi.

- Bugun kechasi erim odam o‘ldirib qo‘yibdi.

- O‘ldirib qo‘yibdi?.. – Saidaning ko‘zi ola-kula bo‘lib ketibdi. – Kimni?

- Bilmadim. Erim kecha allamahalda juda xorg‘in kelib, uxlab qoldi. So‘rab-surishtirishga imkoni bo‘lmadi. Ammo bergan so‘zing esingdan chiqmasin. Bu haqda hech kim bilmasligi kerak.

- Albatta, xotirjam bo‘l. Hech kimga aytmayman, - mug‘ombirlik bilan javob beribdi Saida.

Shu tariqa qo‘shnilar xayrlashishibdi.

Saida ko‘zani uyga tashlabdiyu qo‘shnisi Xfafnikiga yugurib borib, birovga aytib qo‘ymaslik sharti bilan eshitganini oqizmay-tomizmay gapirib beribdi. Xfaf kelini Shefyani, u esa o‘z navbatida jonajon dugonasi Xadjuguagani yangilikdan xabardor qilibdi. U ham o‘z navbatida sirni birovga aytmaslikka so‘z beribdi...

Shu damda esa Xapar uyidan chiqib, odamlar ichida Kapchey deb laqab orttirgan boyvachcha Bamatnikiga yo‘l olgandi.

- Muhtaram Bamat, - deb gap boshlabdi Xapar. – Menga bir oy muxlatga o‘n so‘m qarz berib turishingni so‘rab oldingga kelgan edim.

- Qarzni necha foyizga olmoqchisan va qachon qaytarish niyating bor? - deb so‘rabdi Bamat.

Xapar sudxo‘rning shartlari asosida undan o‘n so‘m olishga muvaffaq bo‘libdi.

Uyiga qaytib kelib xotini bilan nonushtaga o‘tiribdi. Ammo birinchi taomni yeb ulgurmasidan itning vovullagan tovushi eshitilibdi. Xapar eshikni ochgan ekan, xayratdan turgan joyida qotib

qolibdi: butun xovli odamlar bilan to‘lgan, birinchi qatorda esa oqsoqol Mkuab Lagustan turardi.

- Xush kelibsizlar! – ochiq chehra, ammo taajub bilan kelganlarni qarshi olibdi Xapar.

- Ko‘ramiz, tashrifimiz senga xush kayfiyat olib kelarmikin?! – deb hamma uchun javob beribdi oqsoqol va birdan jiddiy tortib: - Endi ishga o‘taylik! Jasadni qaerga yashirding?

- Qanday jasadni, - hayron bo‘lib so‘rabdi Xapar. – Bu nima deganingiz?

- O‘zingni go‘llikka solma! – dag‘dag‘a bilan debdi Lagustan. – Hozir bahor, hammaning vaqti tig‘iz. Qimmatli vaqtimizni olma. To‘g‘risini ayt, jasadni qaerga yashirding?

- Biz hammasidan xabardormiz, - gap qo‘shibdi keksa Xib Shmaf. – Butun qishloq qotilligingni, bugun kechasi odam o‘ldirib, jasadini o‘rmonda yashirib qo‘yganingni biladi.

- Faqat uning kimligini bilmaymiz, - qat’iy ohangda debdi Sangulia Shach.

- Mana endi bilib olamiz! – debdi oqsoqol. – Xapar, bizni o‘rmonga boshlab borginda o‘sha joyni ko‘rsat.

Xapar yelkasini qisib:

- Sizlarga hammasi ma’lum ekanda. Yaxshi. Yuringlar, sizlarni boshlab boraqolay, - keyin xotiniga qarata: - Chimsa, sen ham yur. Bu sen uchun ham foydadan holi bo‘lmaydi, - deb olamonning oldiga tushibdi.

Ular yo‘lda ketishar ekan, uzoqdan qurumsoq Bamatning qorasi ko‘rinibdi. U yugura kelib, Xaparning yoqasiga yopishibdi.

- Ablah! Men hammasini eshitdim. Sen qotil ekansan. Endi qilmishing uchun seni dorga osishadi. Va to‘g‘ri qilishadi. Ammo mendan osonlikcha qutulaman, deb o‘ylama. Meni xonavayron qilmoqchimisan? Pullarimni hoziroq qaytar!

Xapar yo‘lidan to‘xtab, istehzo bilan cho‘ntagidan o‘n so‘m pulni chiqarib Bamatga uzatibdi.

- Ma, pulingni ol! – debdi. – Tezroq ol, bo‘lmasa shu qarz bilan narigi dunyoga ravona bo‘lmay tag‘in.

Uning bu so‘zlaridan odamlarning hayrati yana ham ortibdi.

Olamon ko‘zlangan manzilga yetib kelgach, Xapar oqsoqolni yoniga olib chuqur og‘zini yopib turgan shoh-shabbalarni sura boshlabdi. Pastda u kecha otib o‘ldirgan yovvoyi bug‘u to‘shi yotardi.

Shunda Xapar boshini ko‘tarib, mug‘ombirona tabassum bilan debdi:

- Meni kechiringlar, do‘stlarim! Sizlarni tig‘iz bir vaqtda ishdan qo‘yganim uchun meni kechiringlar. Odam o‘ldirish xayolimga ham kelgan emas. Men faqat mana shu bug‘uni otib o‘ldirdim, xolos.

- Ustimizdan kulayapsanmi, Xapar? – jahl bilan debdi oqsoqol Lagustan.

- Yo‘q, aslo. Hamma gap shundaki, ko‘p yillar avval bobom Gedlach menga: “Esingda bo‘lsin, dad: hamma gapni ham odamlarga, hattoki eng yaqinlarga ishonib aytib bo‘lmaydi. Avval ularni sinab ko‘rish kerak. Yana bir maslahatim: xasis odamdan hech qachon qarz olmagin,” – deb aytgan edilar.

O‘zingizga yaxshi ma’lum, men Chimsaga uylanib, bir necha yildan beri u bilan baxtiyor hayot kechirib kelayapman. Ammo, shunga qaramay bobomning aytgan so‘zlari menga tinchlik bermasdi va ularni hayotda sinab ko‘rish istagi yildan yilga kuchayib borardi. Axiri, kecha kechasi mana shu yovvoyi bug‘uni otib o‘ldirganimda buning vaqti kelganini sezdim va uyga borib, xotinimga “Men odam o‘ldirib qo‘ydim” deb aytdim. Bu gap Chimsa uchun qanchalik kutilmagan bo‘lmasin, u taqdirga tan berib, oxirgi nafasigacha sirni birovga aytmaslikka va’da berdi. Undan keyin qurumsoqligi bilan dong taratgan Kapchey-Bamatning uyiga borib, undan o‘n so‘m qarz so‘radim. Endi mening boshimga “kulfat” tushgan bir vaqtda u yugurib kelib pullarini mendan sug‘urib olishga harakat qildi. Do‘stlarim, meni kechiring! Men faqat bobomning so‘zlari to‘g‘riligiga ishonch hosil qilmoqchi edim, xolos.

- Ha, - debdi ko‘pni ko‘rgan oqsoqol Lagustan. – “Sirning sirligicha qolishini istasangiz uni hech kimga aytmang,” – deyishlari bejiz emas.

BUG‘U OTILGAN KUN

Lata qishlog‘ida yashaydigan Karim Bagapsh dovyurak va omadli ovchi edi. Kunlardan bir kuni u tog‘da ov qilib yurganida bug‘uni otishga muvaffaq bo‘libdi. To‘shni uyga olib ketishni o‘ylab, bug‘uning oyog‘ini tok novdasi bilan mahkam bog‘lab, vodiy tomon sudray ketibdi. Karim o‘ljasini uzoq sudrabdi va oxiri charchabdi.

Vodiy uzra oqshom o‘z choyshabini yoza boshlagan bo‘lsa-da, qishloqqacha xali ancha uzoq edi. Shuning uchun biroz o‘ylab, “tunni qadrdon do‘stim Tamshug Amchinikida o‘tkazib, ertaga yo‘lda davom etganim ma’qul,” – degan qarorga kelibdi va o‘ljani yashirish uchun joy qidira ketibdi. Ko‘zdan panaroqda qulay bir chuqurlik topib, bug‘u to‘shini o‘sha yerga joylabdi-da, ustini shoh-shabba bilan bekitib, do‘stining uyi tomon shahdam qadamlar bilan ravona bo‘libdi.

Qadrdonining uyiga oz qolganida kutilmaganda Karimning xayoliga: “Qiziq, Tamshug menga chin do‘stmikin? Uni bir sinab ko‘rsammikin? Axir, chinakam do‘stlar boshga tashvish tushganida bilinadi-ku...” – degan fikr kelibdi.

Tamshug Karimni ko‘rib quvonib ketibdi.

- Xush kelibsan, do‘stim! Seni ko‘rib, boshim osmonga yetdi, - mehmonni samimiy qarshi olibdi u. – Uyga kir, aziz mehmonim bo‘l.

Ammo Karimning chehrasi ochilmabdi. Ostonani ham hatlamay turib, eshitilar-eshitilmas ovozda shivirlabdi:

- Meni kechir, do‘stim. Bugun uyingga mehmon bo‘lib emas, yordam so‘rab keldim. Boshimga og‘ir tashvish tushdi... Men odam o‘ldirib qo‘ydim... Yordamingga muhtojman.

- Odam o‘ldirding?

- Ha, odam o‘ldirib qo‘ydim. Bu haqda keyinroq aytib beraman. Hozir esa menga yordaming kerak. Jasad yo‘l yoqasida yotibdi. Uni tezroq ko‘mib tashlash kerak. Aks holda ishim chatoq. Tezoq bo‘l, kun yorishguncha ulgurish kerak.

- Sen odam o‘ldirib qo‘ydingmi? – Tamshugning ovozida vahima alomatlari paydo bo‘libdi.

- Ha, ha!.. Ko‘rayapsan-ku, hamma joyim qon. Tezroq bo‘laqol-sangchi. Belkuraklarni olish esingdan chiqmasin... Bir o‘zim uddalay olmayman.

- Menga qara, - debdi Tamshug uni to‘xtatib. – Men sening do‘stingman. Shuning uchun bu haqda hech kimga aytmaslikka so‘z beraman... Senga yordam berishga ham tayyorman. Ammo... unda... qotillikka sherik bo‘lib qolaman-da! Unda... meni ham...

Mezbonning bu so‘zlari Karimning xafsalasini shu qadar pir qilgan ediki, diydiyo oxiriga yetmasidan u shahd bilan o‘girilib, kelgan yo‘liga ravona bo‘libdi.

- Mana sizga do‘stlik! – degan alamli xayol bilan Karim Shaadat Ashvьyuning uyi tomon yo‘l olibdi. U tengdoshi Shaadat bilan birga ov qilishar, hattoki to‘ylari ham oldinma-ketin o‘tgandi.

“Nahotki u ham o‘zini Tamshugdek tutsa?” – degan fikr Karimga tinchlik bermasdi.

Karim Shaadatning uyiga yaqinlashgani sayin qalbida ikkilanish tuyg‘usi ortib borardi. Itning vovullashi eshitilgach, ortidan odamning qorasi ko‘rindi. Uydan chiqib kelgan do‘stiga Karim boyagi gaplarni aytib, undan ham yordam so‘rabdi.

- Ishing chatoq, - achinish bilan debdi Shaadat. – Ammo, sening musibating mening ham musibatim. O‘zi kimni o‘ldirib qo‘yding? Nima uchun?

- Yo‘l-yo‘lakay aytib beraman. Hozir esa tezroq yur. Shoshilish kerak!

- Ulguramiz, - biroz o‘ylanib debdi Shaadat. - Avval menga hamma gapni aytib ber. Nega yashirasan? Odamlar qotilliging haqida

bilib qolishidan qo‘rqayapsanmi? Unda nega meni ham bunga sherik qilmoqchisan?

- Demak, menga yordam bermaysan-a?

- Sen esa mening ham boshimga falokat yog‘dirib, yemagan somsamga pul to‘latmoqchimisan? Aybsiz aybdor qilmoqchimisan?

- Alvido, Shaadat! – deganicha Karim yo‘liga ravona bo‘libdi.

Shu ketganicha Kobchara, qo‘shni Chxalta qishloqlarini va hattoki o‘zining qadrdon qishlog‘i Latani ham aylanib chiqibdi. O‘ziga yaqin deb bilgan odamlaridan yordam so‘rab, qilgan murojaatiga har safar rad javobini olib, xafsalasi pir bo‘libdi.

Qosh qorayganida uning xayoliga yana bir fikr kelibdi-da, o‘ziga o‘zi “Buni ham ko‘raylik-chi...” – deb, yana Kobcharaga, akasi Daxar yashaydigan qishloqqa ravona bo‘libdi.

...Bundan o‘n yillar avval Daxar qishloqning eng ko‘zga yaqin qizlaridan biri bo‘lgan sohibjamol Xfafga ko‘ngil qo‘ygan edi. To‘y kuni ham belgilangandi...

Taqdirning o‘yinini qarangki, ukasi Karim ham qizni jon dildan sevib qolibdi. Natijada, Xfaf badqovoq Daxarni emas, yosh va xushchaqchaq Karimni tanlabdi. To‘yga bir necha kun qolganida sevishganlar toqqa, keyin esa dovon osha Cherkesiyaga qochishibdi. U yerda uch yil yashab, keyin Lata qishlog‘iga kelib joylashishibdi.

Shu sababli mana o‘n yildirki aka-ukalar yuzko‘rmas bo‘lib ketishgandi.

Bir necha yil avval aka-ukalar o‘rmonda tasodifan uchrashib qolishgan edi. Uchrashuv chog‘ida Daxar Karimga qarab shunday degandi.:

- Sen meni sharmanda qilding! Ikkinchi ko‘zimga ko‘rinma. Men qotillikni o‘zimga ep ko‘rmayman, ammo bir narsani ikki qulog‘ingga quyib ol: mening sendek ukam yo‘q!

Shunga ham yetti yil bo‘libdi... O‘shandan beri aka-ukalar biron marta yuzma-yuz kelmagandi...

Karim tong yorishayotganida akasining uyi yoniga kelib, asta eshikni taqillatibdi.

- Kim u? – eshik ortidan Daxar ko‘rindi. Juda erta turadigan odati bo‘lgani uchun u kiyingandi.

- Sen?

- Ha, men... ukangman... – deb javob beribdi Karim.

- Mening sendek ukam yo‘q! – cho‘rt kesibdi Daxar.

- Iltimos, gapimni eshit...

- Eshitishni ham istamayman! Yo‘qol bu yerdan! Yo‘qsa, itlarimni qo‘yib yuboraman. Sokul! Lamura! – deb chaqirgan ekan, og‘ildan ikkita kattakon it so‘lagini oqizib yugurib chiqibdi. – Bu yerdan yaxshilikcha ket, aks holda itlarim qahraton qishda ot o‘g‘risi Xib Tatashni tilka-pora qilgandek seni ham g‘ajib tashlashadi.

- Boshimga musibat tushdi, Daxar! – debdi Karim iztirob to‘la ohangda: – Men odam o‘ldirib qo‘ydim...

- Uning o‘rniga sen o‘lsang bo‘lmasmidi, - debdi Daxar istehzo bilan. – Endi mening oldimga shu gapni aytgani keldingmi?

- Sendan yordam so‘rab keldim... Meni qutqar! – deb, shu kecha bir necha marta aytilgan voqeani qaytaribdi. - Daxar, menga yordam ber... Yordam bermasang, holim voy.

- Yaxshiyam otamiz shu kunlarni ko‘rmadi. Yo‘qsa, shu qilmishing bilan tiriklayin go‘rga tiqarding. Bu kuningdan o‘lganing yaxshi edi. Qotil! Jasad qaerda?

- O‘rmonda.

- Ablah! – debdi-yu aka shahd bilan uyga kirib ketibdi. Birozdan keyin egnida chakmon, qo‘lida esa uchli tayoq bilan chiqib kelibdi. – Yur, ketdik. O‘rmon bilan borsak, ulguramiz.

Xovlidan ikkita belkurakni olib, yo‘lga ravona bo‘lishibdi.

Tongotarda aka-ukalar chuqur yoniga kelishibdi. Karim shoh-shabbalarni bir chetga surib, u yerda yotgan bug‘uni xayron qolgan akasiga ko‘rsatibdi.

- Men odamni emas, mana shu bug‘uni otib o‘ldirgandim. Men faqat chin do‘st kimligini bilmoqchi edim, xolos.

Shundan so‘ng Karim akasiga bo‘lib o‘tgan voqeni gapirib beribdi.

- Mana endi oqni qoradan ajratdim. Men uchun kim chin do‘st ekanligini bildim. Sen, Daxar, mening chin do‘stim ekansan!

- Alvido, Karim! – deb javob qaytaribdi Daxar. – Sen do‘st topdim, deb hisoblashing mumkin. Ammo, bilib qo‘y: akangni qaytara olmading...

QADOQLI QO‘LLAR

- O‘g‘lim, endi katta yigit bo‘lib qolding, - debdi ota o‘g‘lini yoniga chaqirib. - Peshona teri bilan kun ko‘radigan vaqting keldi. Endi borgin-da, halol mehnat qilib, pul topishni o‘rgangin. Aks holda uyga qaytmagin.

Yigit bu so‘zlarni jiddiy qabul qilmay, bir yo‘lini topish xayoli bilan uydan chiqib ketibdi. Tabiatan dangasa bo‘lgani sababli u kun bo‘yi ko‘chada sandirag‘lab yurib, kechqurun uyga kirib kelibdi.

Qaysi ona bolasining yonini olmaydi? Kirib kelishidan o‘g‘li ishni uddalay olmaganini sezgan bo‘lsada, otasidan gap eshitmasligi uchun uning qo‘liga o‘n so‘m tutqazibdi.

O‘g‘il: “Kun bo‘yi topgan pulim shu,” - deya onasi bergan pulni otasiga uzatibdi. Ota bir uzatilgan pulga, bir o‘g‘lining ko‘ziga tikilib, kutilmaganda pulni yulib olib parcha-parcha qilib yirtib tashlabdi va o‘g‘liga taʼna bilan:

- Bu pullarni sen ishlab topgan emassan. Endi bu yerdan yo‘qol. Peshona tering bilan pul topib kelmasang, ko‘zimga ko‘rinma, - debdi.

Yigit: “Otam haqiqatni qaerdan bildi ekan?” - deb xayron qolibdi.

Keyingi kunni ham u ko‘chada sandirog‘lab yurish va qahva-xonada o‘tirish bilan o‘tkazibdi. Kechqurun onasi uni qutqarishiga ishonchi komil edi-da! O‘ylaganidek, kech kirib, uyiga qaytganida onasi yordamga kelibdi. Otasiga ro‘para kelganida yigit yana onasi bergan pulni uzatib:

- Mana, oling ota! Bu pullarni men o‘zim ishlab topdim

Ammo, bu safar ham otasi o‘g‘liga ishonmay pulni mayda-mayda qilib yirtib tashlabdi va o‘g‘liga kechagi gapni takrorlabdi.

Yigit yana buning sababini tushunolmay xayron bo‘libdi.

Axiri, uchinchi kuni yigit ishlab ko‘rishga qaror qilibdi. Yosh qo‘llar hamma yerda ham kerakda. Uning g‘ayrati ham yerda qolmabdi. Kun bo‘yi mehnat qilib, kun qorayganida uyga qaytibdi va otasiga ishlab topgan pulini uzatibdi.

Ota pulni qo‘liga olib, yana yirtib tashlashga chog‘langan ekan, o‘g‘li jon holatda uni to‘xtatishga harakat qilib:

- To‘xtang otajon, nima qilayapsiz? Pulni yirtmang! Axir men ularni topish uchun kun bo‘yi qancha mehnat qildim! Ishonmasangiz, mana, qo‘llarimdagi qadoqqa bir qarang.

Shundagina otasida qoniqish hissi paydo bo‘lib, farzandiga qarata debdi:

- Mana endi bu pullarni peshona tering bilan ishlab topganingga ishonsa bo‘ladi. Halol mehnat evaziga kelgan pulning qadriga yetadigan inson bo‘libsan. Balli, o‘g‘lim! Bu sen uchun bir umrga saboq bo‘lsin! – debdi.

HABIBA

Men avvallari ham Habibaning go‘zalligi haqida ko‘p eshitgandim. Hattoki, “Habiba shunchalar go‘zalki, uning husni o‘lgan odamni tiriltirib yuborishga, bir qarashi g‘unchalarni gul qilishga qodir,” – degan ta’rif tillarda qo‘shiq bo‘lib ketgan edi.

Mana, ko‘p yillardan keyin taqdir taqozosi bilan men uning uyida mehmon bo‘lib o‘tiribman. Er-xotin mezbonlarning yoshi yuzdan ancha oshib ketgan bo‘lsa-da, ularning bir-birlariga mehr-muhabbati va samimiyati o‘tirganlarning e’tiboridan chetda qolmasdi.

- Singlim, kuyovim Chichin qanday qilib qalbingni o‘g‘irlaganini bizga bir aytib bergin, - deb Habibaga murojaat qildi akasi Saatkeriy.

Bu so‘zlardan Habiba xijolat tortib:

- Qo‘ying, odamni uyaltirmang, aka, - dedi.

- Aytib ber, aytib ber. Mehmonga ham qiziqarli bo‘ladi.

Men ham bu taklifni quvvatlagan edim, Habiba iymanibgina:

- O‘zlari aytib beraqolsinlar, - dedi (abxazlarda odatda ayol kishi erining nomini tilga olmaydi).

- U xo‘jalik ishlari bilan band.

- Bo‘lmasa o‘zingiz aytib bera qoling. Menga biroz noqulay.

Saatkeriy ham shuni kutib turgandek, hikoyani boshlab yubordi:

- Yoshlikda Habibaga oshiqu beqaror bo‘lgan yigitlar ichida Zugdidilik Estat Dochiya ham bor edi. Ammo, yigitning sovchilari bir necha bor qizning uyidan rad javobi bilan qaytishgani nafsoniyatiga qattiq tegibdi va u qizni kuch bilan olishga qaror qilibdi.

Bir kuni yigit jo‘xorizorda yolg‘iz kelayotgan qizning yo‘lini to‘sib, keyin rozilik olish ilinjida zo‘rlamoqchi bo‘libdi. Habiba uzoq qarshilik ko‘rsatibdi. Ammo, holsizlanib borayotganini sezib, yigitning belidagi xanjarni chiqarib, uning yuragiga sanchibdi.

Sud sodir etilgan jinoyat uchun qizga olti yillik Sibirga surgun jazosini tayinlabdi.

Hukm e’lon qilinayotganida kutilmaganda zaldan:

- Habiba aybdor emas, Estat Dochiyaning qotili menman! Meni sud qilinglar! – degan ovoz kelibdi.

Shundan keyin zalda g‘ala-g‘ovur boshlanibdi. Yigit Habiba bilan yoshlikdan tanish ekanini, shuning uchun (ayol kishining

oqlanishi osonroq-da) jinoyat uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olayotganiga sudni ishontirishga harakat qilibdi...

Habiba kuyinib: “U yolg‘on gapirayapti, Estat Dochiyani men o‘ldirdim. Men...” – deyishiga qaramay, sud sodir etilgan jinoyatda Chichinni aybdor topib, uni o‘n yil qamoq va besh yil Sibirga surgun qilish jazosiga hukm qilibdi.

...Oradan o‘n besh yil o‘tibdi. Habiba o‘z xaloskorini kutishdan charchamabdi, Chichin uyga qaytganida esa ular oila qurib, yuz yildan ortiq baxtli hayot kechirishibdi.

Uzoq yillar muhabbat daryosidan suv ichishdek baxt hammaga ham nasib etavermas ekan...

XASA

Abxaz qariyalari o‘rtasida otlar haqida so‘z ketsa, ularni to‘xtatish amri mahol. Bu safar ham xuddi shunday bo‘ldi.

Poygalarda g‘olib chiqib, o‘zini ko‘rsata olgan zotdor otlar, ularning odatlari haqida so‘z ketganida, bir yuz o‘n yoshga kirgan Sharmat Arslon suhbatga qo‘shildi:

- Ha, shunday odamlar bo‘ladiki, ular uzoq umr ko‘rishsa-da, vafotidan keyin eslashga arzigulik xotira qoldirmaydi. Ammo, ayrim odamlar qisqa umr ko‘rsa ham, ularning nomi tildan tilga, dildan dilga ko‘chib yuradi, qilgan ishlari haqida esa qo‘shiqlar to‘qiladi.

Shu yerda u tin olib, bir xursindida, so‘zida davom etdi:

- Men bir tulporni bilardim. Uning qahramonligi hanuzgacha ko‘plarning xotirasidan ketmagan, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

- Xasani esladingmi, Arslon? – deb so‘radi o‘tirgan qariyalardan biri.

Davrada jonlanish sezildi.

- O, Xasa!.. Arslon bizga bu tulpor haqida gapirib ber! U haqda eshitmagan odamning o‘zi yo‘q. Ammo, ko‘rganlar sanoqli...

- Ha, men uni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman, - faxr bilan javob berdi Arslon ko‘zlari chaqnab. – U chindan ham tulporlarning sardori edi. Men bunday tulporni umrim bino bo‘lib boshqa ko‘rmadim. Uning uzundan-uzun va qalin yoli oltinday tovlanar, bo‘yni uzun, aqlli ko‘zlarida esa chuqur ma’no bor edi. Keng va baquvvat ko‘kraklari doimo harakatda, dumi esa tillarang yog‘du bog‘lamini eslatardi. Oyoqlari-chi! Baquvvat, tekis... Pastki qismi esa shunchalar ingichka ediki, ayollar bilaguzugini taqib qo‘yish mumkin edi. Bir qarashning o‘zida tulpor yengil va shamolday uchqurligiga ishonch hosil qilish mumkin edi. U oddiy ot emas, ertaklardagi Arash tulpori edi, xudo haqqi...

- Yo‘q, u “Apshdza” naslidan edi. Garov o‘ynaynashga tayyorman, - xitob bilan dedi Lagustan.

- Adashding, Lagustan. U yillarga kelib bu nasl otlari qirilib bo‘lgandi. Xasa Gurzovul qishlog‘ida yashaydigan Smir Shaxanning oti bo‘lib, uni savdogar kuyovi Yahyo qulunligida Ajamiston(Eron)dan qaynatasiga sovg‘a qilib olib kelgandi. O‘sha vaqtlarda Suxumida Yahyoning uyi bor edi. U qaynotasini juda hurmat qilar, yaxshi ot uning uchun eng qimmatbaho sovg‘a bo‘lishini bilardi. Haqiqatan ham, bunday sovg‘adan Smir Shaxanning boshi osmonga yetgandi. Uni ko‘z qarachig‘iday asrab-avaylab, o‘z farzandiday katta qilgandi.

Tengdoshlarim uning o‘n ikki yil surunkasiga poygalarda g‘olib chiqib, sovrindor bo‘lganini yaxshi eslashadi. Ayrimlar uni mag‘lub ko‘rishni ham orzu qilishgandi. Buning uchun Djigetiya, Cherkesiya, Qorachoy, Kabarda va hattoki Odishidan ko‘plab mashhur tulporlar keltirilgandi. Ammo, birontasi poygada Xasaga bas kelolmadi. Axir, avval aytganimdek, u shamoldan ham uchqur edi-da. Shamoldan esa o‘zib ketish mumkin emas...

Yillar o‘taveribdi, Xasaning yoshi esa bir joyga borib, u kuchdan qolibdi. Smir Shaxan uning obro‘sini saqlash maqsadida tulporni poygaga borgan sari kam qo‘yadigan bo‘libdi. Lekin shunda ham

Xasa yana besh yil davomida birinchilikni bermabdi. To‘g‘rirog‘i, hech qaysi bir ot uni mag‘lub qilolmabdi. Faqat oltinchi yili unga munosib bo‘lgan raqib, yosh “Apshdza” tulpori maydonga chiqibdi. Avval aytganimdek, u butun Abxaziyada yagona qolgan “Apshdza” naslidagi uch yoshli ot edi.

Xullas, Suxumida bo‘lib o‘tgan poygada u hamma raqiblarini, shu jumladan Xasani ham ancha orqada qoldirib, yengillik bilan g‘alaba qozonibdi. Shu kundan e’tiboran Xasa emas, Gumstalik bungacha hech kimga ma’lum bo‘lmagan yosh tulpor barcha abxazlarning faxri va erkatoyiga aylanibdi.

Hikoya shu yerga yetganida Sharmat Arslon og‘ir tin oldi.

- Ammo, otlar odamlarga qaraganda ancha oqibatli bo‘ladi, - deb birozdan so‘ng so‘zida davom etdi u. – Ular g‘olibdan intiqom olishni ko‘ngillariga tugib qo‘yishmaydi. O‘shandagi voqealar ham buni isbotlaydi. Bir kuni Smir Shaxan otni aylantirib kelish maqsadida o‘zi bilan birga poygaga olib boribdi. Xo‘jayini poygada g‘olib chiqqan tulporning yoniga olib kelganida Xasaning olqishlashiyu ko‘zlarining chaqnaganini bir ko‘rganingizda edi...

- Arslon, sen u tulporning qahramonligi haqida so‘z ochganding.

- Ha, ha... O‘zi gapni shunga olib kelayotuvdim. O‘sha yili poygada ishtirok etish uchun otlar Djigetiya, Kabarda, Qorachoy, Megreliya va boshqa yerlardan olib kelingandi. Bu poygada cherkes knyazlari Atajukovlar ham o‘z tulporlari bilan ishtirok etishni niyat qilishgandi.

O‘shanda Yahyoning uyida Ajamistondan kelgan jiyani, yosh bo‘lishiga qaramay yaxshigina chavandoz deb tanilgan Samad mehmon bo‘lib turardi. U amakisidan, Yahyo esa o‘z navbatida qaynotasidan tulporni bolaga poygada ishtirok etish uchun berib turishni so‘rabdi. Avvaliga Smir Shaxan ikkilanibdi, ammo o‘rtaga qizi Kueyza tushgach, rozilik beribdi.

Xasaning dastlab yuragi sezgandek bolani yaqiniga keltirmabdi, ammo xo‘jayini yuzlarini silab, Samadni egarga o‘tqazganidan keyin

tinchlanibdi. Ha, Smir Shaxan o‘z qo‘llari bilan bolani egarga ko‘tarib o‘tqazibdi!... Bechora tulporning boshiga qanday sinovlar kelishini avvaldan bilganida edi, bunday qilmasmidi?!

Bungacha Xasa odamlardan e’tibor va mehrdan bo‘lak hech narsa ko‘rmagandi. Faqat ba’zan xo‘jayini ish yuzasidan biroz qattiqqo‘l bo‘lardi. Ammo, bugun u odamlardagi makkorlik va adovatga duch kelib, hafsalasi pir bo‘ldi.

Poyga boshlanishi bilan Samad g‘ayritabiiy harakatlar qila boshladi: u tulporning shashtini qatarib, yugurish sur’atini susaytirish maqsadida yuganni o‘ziga torta boshlabdi. Bir qarashda chavandoz buni otning kuchini saqlab qolish va poyganing so‘ngida yugurish sur’atini oshirish niyatida qilayotgandek edi. Ammo, bir necha daqiqadan keyin uning asl niyati oshkora bo‘libdi: u otni katta yo‘l qolib, yaqindagi o‘rmon tomon yugurishga majbur qilibdi.

O‘rmonda ular tomon bir nechta baquvvat va yuzini quloqchin bilan yopib olgan otliq chiqib kelibdi. Ulardan biri yaqin kelibdi va yugandan mahkam tutib, otni to‘xtashga majbur qilibdi. Yo‘llariga g‘ov bo‘lgan notanish otliqlarning bunday kutilmagan harakatidan Xasa seskanib ketibdi va kichik chavandozni himoya qilishiga chog‘langan ham ediki, bola egardan yiqilib yerga tushibdi. Tulporni esa shu yerdagi katta eman daraxtining shoxiga mahkam bog‘lab qo‘yishibdi.

Katta yo‘ldan otlarning yugurib o‘tayotgan ovozi kelgan zahoti Xasa bor kuchini to‘plab o‘sha tomonga talpinibdi. Ammo, yuganni uzishning uddasidan chiqolmay faqat labini yaralabdi, xolos.

Shunda boyagi odamlar “hay-hay”lab Samadga bir nimadir deyishganidan keyin bola otning oldiga yugurib kelib, uni qamchin bilan ura boshlabdi. Bu Xasaning birinchi qamchi yeyishi edi. Shuning uchun u og‘riqdan emas ko‘proq nohaqlikdan baland ovozda kishnay boshlagan ekan notanish kimsalar uning ovozi chiqmasligi uchun og‘zini quloqchin bilan yopishga harakat qilishibdi.

Chorasiz qolgan Xasa qo‘llarni tishlashni ko‘zlab boshini har tomonga silkitar, tuyoqlari bilan g‘animlarni tepishga harakat qilardi. U aqldan ozgandek edi: ko‘zlariga qon to‘lib, og‘zi ko‘pikka to‘lganida bosqinchilar chekinishga majbur qolishibdi.

Kutilmaganda notanish kimsalardan biri Samad tomonga pul to‘la hamyonni tashlab:

- Bu ikkinchisi. Uchinchisini orqaga qaytib, ot seni egardan yiqitib yuborganini aytganingdan keyin olasan. Agar aytmasang, sotqin yuragingni sug‘urib olamiz. Tushundingmi? Endi boraver! – debdi.

Bola yerdagi hamyonni qo‘liga olib, parishon holatda yo‘l tomon ravona bo‘libdi.

Shu daqiqada Xasa tizginni uzishga muvaffaq bo‘libdi va katta yo‘l tomon yugurib ketibdi.

- Ketaversin! – debdi bosqinchilardan biri quloqchinini yerda ko‘tara turib. – Uning qanoti yo‘qki, poygachilarga yetib olsa...

Ammo, xursandchilik qilishga xali erta edi: Xasa uchqur ot emasmi, chaqmoq kabi Patskir, Amtkel, Azant, Bagada va Lata qishloqlaridan yelday uchib o‘tibdi. Tulporni ko‘rgan odamlar: “Bu afsonaviy Arash tulpori-ku! Ha, xuddi o‘zi...” – deya qoyil qolib, orti-dan kuzatib qolishibdi.

Aytishadiku, “Katta qayg‘u odamni kuchdan qoldirsa, g‘azab unga tengsiz kuch baxsh etadi”, - deb. Balki bu hikmat faqat odamlargagina xos emasdir?!

Katta yo‘lga chiqqanida Xasaning vujudiga yangi kuch-g‘ayrat quyilib kelganday bo‘libdi: Sabal qishlog‘ida hammadan orqada qolgan otga yetib olibdi. Keyin yana uchtasini ortda qoldiribdi. Va nihoyat, Qonachxir darasida knyaz Atajukovning tulpori bilan tenglashishga muvaffaq bo‘libdi. Birozdan keyin undan ham o‘zib, Bagada qishlog‘ini ortda qoldirib, Dolning keng dalalariga chiqib boribdi.

Yig‘ilganlar yelday uchib kelayotgan tulporni “Xasa! Xasa! Bizning Xasa!” – deya olqish va hayqiriqlar bilan kutib olishibdi. Tulpor to‘xtovsiz bezovtalanib kishnaganicha yugurib kelar, egarda esa chavandoz yo‘qligini ko‘rgan odamlar xavotirga tushibdi.

Xasa poygada g‘olib bo‘lgandi, ammo hali anchagacha o‘ziga kelolmay dala aylanibdi...

Smir Shaxan sevimli tulpori yoniga kelib, yuganidan olgan ekan, Xasa birdan tin olib, erkalanganday uning yelkasiga boshini qo‘yibdi...

Hikoya shu yerga kelganida, Sharmat Arslon qo‘lidagi o‘chib qolgan trubkani gugurt chaqib yoqa boshladi.

- Bolakaychi, u nima bo‘libdi? – so‘radi Lagustan. – Dolga yetib boribdimi?

- Bolakaymi? – qariyaning ovozida nafratlanish sezildi. – Hm... U yolg‘onni ko‘ngliga tugib, dalaga yetib kelganida g‘olib tulpor atrofidagi olamonni ko‘rib, aytilayotgan olqishlarni eshitib, niyatidan qaytibdi. Shu yerga kelganida vijdon va or-nomus degan narsalar esiga tushibdi, kissasidagi hamyonni yerga uloqtirib Smir Shaxanning oyog‘iga yiqilibdi va bor gapni aytib beribdi. Bolakay so‘zini tugatganida Smir Shaxan uning ko‘ziga tikilib debdi: “Afsus, afsus, ming afsus... Sen bolakay to‘rt tanga topaman deb, erkaklik or-nomusingni boy berib qo‘yibsan, o‘z nomingga dog‘ tushiribsan. Xasa esa boshiga kelgan bu sinovdan g‘olib bo‘lib chiqdi. Senga olijanoblik va mardlik darsini bergan bu ajoyib tulpor oldida endi nima degan odam bo‘lding!”

- Xullasi kalom, bor gap shu, - deb hikoyasini yakunlabdi Sharmat Arslon.

BUKUR

Knyaz Tatash xizmatkorlaridan birining nomi Edgi-Juk edi. Abxazchada juk “bukur” degan ma’noni bildiradi. Xizmatkor yigit haqiqatan ham bukur edi.

Bir kuni knyaz uyida mehmondorchilik uyushtirishni niyat qilib, qo‘shni qishloqdagi do‘sti Chinchinnikiga taklifni yetkazish uchun Edgi-Jukni yuboribdi.

Yigit manzilga yetib kelganida mezbon do‘stlari davrasida maishat qilib o‘tirardi. Edgi ichkariga kirib, Tatashning taklifini yetkazishga ulgurmasidan, ro‘parasiga bukur xizmatkor kelganidan Chichinning jahli chiqib, darg‘azab ohangda:

- Nima-a-a? Knyaz Tatashning menikiga yuborish uchun durustroq xizmatkori yo‘q ekanmi? – degan ekan, Edgi bamaylixotir:

- Durustroq xizmatkorlarni u kishi durustroq odamlarnikiga yuborgandilar, men esa bu yerga keldim, - deb javob qaytaribdi.

ESMA XONIM

Trapezundagi qahvaxonalardan birida turk amaldorlari Shukri va Usmon suhbat qurib o‘tirishardi.

- Bugun muhtaram vazirimiz anavi muttahamga iltifot ko‘rsatganlarini ko‘rdingizmi? – dedi Usmon Shukriga.

- Nuri-muxojirgami?[4] Ha, qachonlardir choparlik qilib, hozir qozi yordamchisi martabasiga erishgan bu afandi tulkidan ham ayyor chiqdi. Aytganday... Xushyor bo‘ling, odamlar ichida “Vazir Nuri-muxojirni sizning o‘rningizga tayinlamoqchi”, degan gap yuribdi

- Eshitdim.Teshik quloq hammasini eshitar ekan. U bachchag‘ar ko‘pdan beri mening joyimga ko‘z tikib yuribdi. Ammo, u hech qachon unga nasib qilmaydi.

[4] Muxojir – haydalgan (badarg’a qilingan) odam. XVIII asrning 60-70 yillarida abxaz knyazlari tomonidan uyushtirilgan fitnalar natijasida dehqonlar yoppasiga o’z vatanlaridan ko’chirilgandi.

- Keyingi vaqtlarda vazir Nuri-muxojirni o‘ziga yaqinlash-tirayapti. Sababini bilmaysizmi?

- Sababi singlisida! Xabaringiz yo‘qmi? Vazir uning singlisiga uylanmoqchiku. To‘y kuni ham yaqin deyishayapti.

- Ey, xudo! Agar bu gaplar to‘g‘ri bo‘lib chiqsa, bu yerda Nuri-muxojirning aytgani aytgan, degani degan bo‘lib qoladiku! U siz bilan bizni orqadan “uquvsiz va savodsiz odamlar” deb yuradi. “Otga minsa”, hammamizni haydab, atrofiga muxojirlarini yig‘ishi aniq. Hozirning o‘zida hamtovoqlari oldiga “to‘da-to‘da” bo‘lib kelib yurishganini ko‘ryapsiz-ku..

- Ha, nima qilib bo‘lsa ham bu to‘yni to‘xtatish kerak.

- Qiziq, vazir Nurining singlisini qaerda ko‘rib ulgurdi ekan? Axir u boshqa muxojirlardek cho‘lda yashaydi, deb eshitgandim. Shaharga ham deyarli kelmas emish.

- Hm... Bu hammasi Nurining nayrangi bo‘lishi kerak. Yaqinda u vazirning huzurida kissasidan qandaydir hujjatlarni chiqara turib, singlisining rasmini “tasodifan” tushirib yuborgan, deyishadi. Rasmga ko‘zi tushib, vazir undagi xushsurat qizni ko‘rib, g‘oyibdan sevib qolganmish.

- Siz haqsiz, afandim. Nuri-muxojirni to‘xtatmasak bo‘lmaydi!

- To‘g‘ri aytasiz. Men bir narsani o‘ylab qo‘ygandim, - Shukri yon-atrofga olazarak bo‘lib, hech kim yo‘qligiga amin bo‘lgach so‘zida davom etibdi. – Bu xatarni bartaraf etishning birgina yo‘li bor: Nurining boshiga tuhmat yog‘dirib, tovuq miya vazirni Esmaning yengiltak ekanligiga, Nuri esa shu yo‘l bilan vazirni hukmdor oldida badnom qilib, uning o‘rnini egallash niyati borligiga ishontirish kerak.

- Shunday... Shunday... – debdi Usmon. – Reja yaxshi o‘ylan-gan. Kerak bo‘lganida boshingiz baloday ishlar ekan-a, afandim. Ammo, kim yurak yutib bu ishning uddasidan chiqadi?

- Men-da! Bu mamlakatda vazirni mendan yaxshi biladigan, uni bunday bema’nilikka ishontira oladigan boshqa odamning o‘zi bo‘lmasa kerak.

- Ofarin! Aqlingizga qoyil! O‘zingiz bosh bo‘lsangiz, ish xamirdan qil sug‘urgandek yengil ko‘chishi aniq. Ammo, ish o‘ylaganimizdek bitsa, bosh-oyoq sarpo bizdan...

- Mayli... Vaqtni o‘tkazmay bugunning o‘zida vazir bilan gaplashaman.

- Olloh sizga madadkor bo‘lsin!

Shu kunning o‘zida qozi vazirdan qabul so‘rabdi.

- Vazir xazratlari! Yaqinda bo‘ladigan to‘yingiz haqida odamlar ichida har xil gaplar yuribdi, - deb asta gap boshlabdi Shukri.

- Hm... Xo‘sh, qanday gaplar yurgan ekan?.. Gapir-chi...

- Odamlar Nuri-muxojirning singlisi Esma o‘z tanasi bilan savdo qiladigan manjalaqi va buzuq ayol deyishayapti.

- Nima-a-a... - kutilmagan bu gapdan vazirning jahli chiqib ketibdi va jon holatda Shukrining yoqasidan olibdi.- Bunday deyishga qanday hadding sig‘di, palid? Nima deyayotganingni bilasanmi? Og‘zingga qarab gapirsang bo‘lmaydimi? Nurining o‘zi menga: “Singlim yosh, sohibjamol va bokira,” – deb aytgandi. U ayol mening bo‘lajak xotinim, sening esa bo‘lajak bekang bo‘ladi. Shuning uchun gapingni o‘ylab gapirgin. Yo‘qsa, kallang ketishi hech gap emas.

- Vazir xazratlari, men bor gapni aytdim, xolos, - debdi Shukri pinagini buzmay.

- Ochig‘ini gapir! Hamma bilganingi ayt!

- Hammasini aytishim biroz noqulay, - mug‘ombirlik qilibdi u. – Ammo, olloh shohid, sizga bo‘lgan hurmatim haqqi bor gapni aytmasam bo‘lmaydi.

- Mayli, mayli, gapni ko‘p cho‘zmay bilganingni ayt...

- O‘z vaqtida Esma bilan biz juda yaqin bo‘lganmiz.

- Sen-a? Yaqin bo‘lgansan?...

- Aybdorman, bir qoshiq qonimdan kecching, vazir xazratlari! Ammo, u abxaz qizi shunchalar go‘zal ediki... Shayton yo‘ldan ozdirdi, nafsimni tiyib turolmadim... U bilan bir oy mobaynida mehmonxonada ko‘ngilxushlik qilgandik. Keyin esa, ollohning rahmi

keldimi, es-xushimni qaytarib berdi. Shunda qanchalik gunohga botganimni tushunib yetdim. Esma naqadar behayo, sharmanda va buzuq ayol ekanligiga imon keltirdim.

- Bas qil! Ovozingni o‘chir! – vazirning qovog‘i osilib ketgandi. U holsizgina kursiga cho‘kdi.

Shu o‘tirganicha boshini quyi solib, bir necha daqiqa sukut saqladi, keyin esa suhbatdoshiga qarab:

- Menga aytchi, Nuri-muxojirga bu qadar tuban tushib, muttahamlik qilib yolg‘on gapirishning nima keragi bor edi?

- Shuni ham tushunmadingizmi, vazir xazratlari? – qat’iy ishonch ohangida debdi Shukri. - Bu hammaga ayonku... Faqat siz juda ishonuvchansiz-da...

- Ochiqroq gapir.

- Bu mansabparast Nuri-muxojir o‘z maqsadi yo‘lida hech qanday tubanlikdan tap tortmasligiga nahotki haligacha ishonch hosil qilmagan bo‘lsangiz?

- Shunday ham deylik... Xo‘sh, undan keyinchi?

- “Tuzini yeb, tuzlig‘iga tupurish,” deb shunga aytishsa kerakda. Sizning marhamatingiz tufayli u ko‘rnamak shunday martabalarga erishdi. Ammo, xudoga shukur qilmay endi, odamlarning aytishicha, sizning joyingizga ko‘z olaytirayapti.

- Nima? Nima deding?.. Unga mening joyim kerak bo‘lib qolibdi-da!..

- Menga ma’lumot berishlaricha, - avjiga chiqibdi Shukri, - Nuri bir necha bor abxaz-muxojirlari davrasida yaqinda sizni yiqitib, o‘rniningizga o‘zi vazir bo‘lishini, Trapezund viloyatida yakka hokimlik qilishini aytib maqtangan ekan. Bunda unga Sulton Hamidning yosh xotini, cherkes go‘zali Aza yordam berishni va’da qilgan ekan. Avvaliga ishonmadim, ammo qayta-qayta tekshir-tirganimdan keyin, afsuski, ma’lumotlar o‘z tasdig‘ini topdi.

- Qiziq... - debdi vazir xafsalasi pir bo‘lib.

Shukri esa rejasi amalga oshib, vazir mag‘lub bo‘lganidan g‘alaba nashidasini surardi.

- Endi nima qil deysan?

- Muhtaram vazir xazratlari, yo‘lingizda g‘ov bo‘lib turgan Nuri-muxojirni iloji boricha tezroq yo‘lingizdan yo‘qoting.

- Ha. Mana endi menga hammasi ayon bo‘ldi. Ko‘rnamak! Ko‘ksimda ilon boqqan ekanman. Sendan esa Shukri, ko‘zimni ochganing va beg‘araz xizmating uchun minnatdorman. Bu yaxshiligingni esdan chiqarmayman, munosib taqdirlayman. Endi esa buyrug‘imni eshit: hozirning o‘zida Nuri-muxojir hibsga olinib, zindonga tashlansin. Juma kuni namozdan keyin qatl etilsin.

- To‘yning o‘rnigami?

- Ha, - deya gapiga nuqta qo‘yibdi vazir.

Nuri-muxojir zindonda o‘limini kutib yotgani haqidagi xabar Trapezund aholisi o‘rtasida tez tarqalib, uzoq cho‘lda yashayotgan abxaz muxojirlarigacha ham yetib boribdi. Yosh bo‘lishiga qaramay, odamlarga ko‘p yaxshiliklar qilgan Nuri ko‘pchilik o‘rtasida hurmat qozonib ulgurgandi. Shum xabar, ayniqsa, muxojirlikda ota-onasidan ayrilgan singlisi Esma uchun og‘ir keldi. Chunki akasidan bo‘lak bu dunyoda uning boshqa hech kimi yo‘q edi-da.

Xabar kelishi bilan Esma yo‘l hozirligini ko‘ribdi. Qatl belgilangan juma kuni ertalab shaharga yetib kelish uchun u ammasi Shemekya bilan yuz chaqirimlik yo‘lni bir kunda bosib o‘tibdi...

Shahar bozorida ular tanish abzax ayolini uchratib qolishibdi. Ayolning bir qarindoshi vazir xaramida bo‘lgani uchun u vazir g‘azabining sababini bilar, undan qizni ham xabardor qilibdi.

- Bu yerga kelayotganimda, - debdi ayol, - vazir bilan yordamchisi machitga kirib ketishayotganini ko‘rgandim. Nuri-muxojir ustidan tuhmat uydirgan anavi betovfiq Shukri ham ular bilan edi.

- Shundaymi? – Esmaning ko‘zlari chaqnab ketdi, uning xayolida reja pishgandi. – Azizim, sizdan iltimos: meni o‘sha machit-

gacha kuzatib qo‘yib, ulardan qaysi biri vazir, qaysi biri esa Shukri ekanligini uzoqdan ko‘rsatib qo‘ysangiz.

Ular ko‘zlangan manzilga ayni vazir va uning hamrohlari namoz o‘qib bo‘lib, machitdan chiqishayotganida yetib kelishdi.

- Oldinda kelayotgan baland bo‘ylisi - vazir, orqasidan kelayotgan pastakkina meshqorin esa – Shukri, - debdi ayol erkaklarni ko‘rsatib.

Esma shahd bilan yuzini chodra bilan yopib, o‘zini vazir yurib kelayotgan yo‘lakka tashlabdi-da, uning oyog‘ini mahkam quchoqlab olibdi:

- O-o, buyuk vazir xazratlari, mendek bir bechora yetimchaga rahmingiz kelsin! - iltijo qilibdi u.

- Kimsan?.. Nima darding bor?..

- Arz-dodimga quloq tuting, menga yordam bering, ey, adolatli vazirim! Mana shu hamrohingiz Shukri-qozi meni xonavayron qildi. U bir oydan ortiq mehmonxonada men bilan yashab maishat qildi. Ammo, oxirida va’da qilingan ikki yuz lirani to‘lashdan bosh tortib, ko‘chaga haydab yubordi. Bosh-panasiz va och-nahorman. Menga yordam bering, xazratim, undan pullarimni olib bering!

- Xo‘sh? – vazir qayrilib Shukriga qarabdi. – Bunga nima deysan?

- Bu ayolning esi og‘ib qolganga o‘xshaydi, - debdi Shukri bamaylixotir. - Hammasi bo‘lmag‘ur gap.

- Yo‘q, yo‘q! Vazir xazratlari, u sizni ham mendek aldamoqchi. Agar gapim yolg‘on bo‘lsa, qo‘liga Qur’on olib: “Uni tanimayman, hech qachon ko‘rmaganman, birga ko‘ngilxushlik qilmaganman, pul va’da qilmaganman”, - deb qasam ichsin.

- Endi bunga nima deysan, Shukri?

- Vazir xazratlari! Barcha asossiz gumonlaringizni tarqatish uchun men Qur’onni qo‘limga olib qasam ichishga tayyorman. Faqat ko‘nglingizda zig‘ircha gumon qolmasa, bas...

- Ha, ha! Qur’oni Karimni qo‘liga olib qasam ichsin! – deya qichqirardi qiz vazirning oyog‘ini yanada mahkamroq siqib.

- Imom xazratlari, - murojaat qilibdi vazir machitning imomiga, - Quronni olib keling!

Imom machitga kirib qaytgach, vazir buyuribdi:

- O‘rningdan tur! Chodrani ko‘tarib, Shukriga yuzingni ko‘rsat. Yuzingni ko‘rib, haqiqatan ham seni tanimasligi, avval ko‘rmaganligi haqida ont ichsin.

Qiz oyoqqa qalqib, shahd bilan chodrasini yechgan ekan, vazir uning go‘zalligidan es-xushini yo‘qotishiga sal qolibdi.

- Boshlasangchi, Shukri, - havas va xasad vazirning ich-etini yemirardi.

Shukri ikkala qo‘lini Qur’on ustiga qo‘yib, tantanavor ohangda boshlabdi:

- Buyuk ollohning nomi bilan ont ichamanki, bu qizni birinchi marta ko‘rib turibman, o‘rtamizda hech qanday aloqa bo‘lmagan va undan pul qarzdor emasman!

- Endi nima deysan? – murojaat qilibdi vazir qizga.

- O buyuk vazirim! Qilmishim uchun bir qoshiq qonimdan keching. Xudo shohid, boshqa ilojim qolmagandi. Shukrining hiylakor va pastkash qilmishini fosh etish uchun boshqa yo‘l topolmadim. Men Nuri-muxojirning singlisi Esmaman. Oldingizda turgan bu yaramas odam akamning aqli-zakovati va uddaburonligiga hasad qilib, boshimizga tuhmat toshlarini yog‘dirdi. Siz esa unga ishondingiz. Endi bularning hammasi uydirma va yolg‘on ekanligiga amin bo‘ldingiz. Bugun Nurini qatl qilib, bir begunohning jonini olsangiz gunohga botib, oxiratingizni kuydirasiz. Vazir xazratlari, akamni ozod qilishingizni o‘tinib so‘rayman!

Vazir shu zahoti Nuri-muxojirni ozod qilib, uni qozi etib tayinlabdi. Shukrini esa zindonga tashlabdi.

Tez kunda shaharni karnay-surnay ovozi tutibdi, sohibjamol kelinni esa Esma xonim deb atay boshlashibdi.

ALAMIS[5]

Iyulning jazirama kunlaridan birida men Gudaut shahrining shoh ko‘chasi bo‘ylab o‘tib borardim. Quyoshning beayov qizdirishiga qaramay yo‘l chetidagi bog‘chada bir qariya xayol surib o‘tirardi. Dam olish davri emasmi, atrofda ochiq-sochiq yurgan xotin-xalaj talaygina bo‘lib, qariya har birini ortidan xomush kuzatib qolardi. Shahar markazida bunday kiyimlarda yurgan ayollarni ko‘rib, uning tobora jahli chiqib borardi. Bu yoshi bir yerga borib qolgan odamning nimasidir menda qiziqish uyg‘otgani uchun uning yoniga borib o‘tirdim.

Kutilmaganda u men tomonga o‘girilib:

- Sharmandalik! – dedi.

Bexosdan aytilgan bu so‘z meni xayron qoldirdi.

- Otaxon, yozda bunday yurish foydaliku!

Ammo, u o‘jarlik bilan:

- Sharmandalik!.. – deb qaytardi.

U bilan bahslashish befoydaligini tushungach, astagina turib ketmoqchi ham edimki, bexosdan ko‘zlari yoshga to‘lganini ko‘rib, shashtimdan qaytdim.

- Yig‘layapsizmi?

Javob berish o‘rniga u so‘zlay boshladi:

- Bunga qirq yil bo‘ldi. “Tasodif oyoq ostida” deyishganidek, kichik singlim sohibjamol Chimsaning ko‘zlari shikastlanib qoldi. O‘n gulidan bir guli ochilmagan, endi katta hayotga kirib kelayotgan o‘n olti yashar qizning ko‘r bo‘lib qolishini bir tasavvur qilib ko‘ring-a... U vaqtda biz Ochamchirda yashardik. Singlimni qaerlarga olib bormadik, kimlarga ko‘rsatmadik - baribir foydasi bo‘lmadi... Oxiri mashhur ko‘z do‘xtiriga ko‘rsatish uchun Odessaga bordik. Men klinikaga, qabul vaqtini aniqlash uchun ketganimda, singlim boshiga tushgan baxtsizlik yukini ko‘tarolmay o‘zini poezd ostiga tashladi.

[5] Alamis – or-nomus.

Men uyga qaytganimda xona begona odamlarga to‘lgan - ular singlimni tanib, tilka-pora bo‘lgan jasadini shu yerga olib kelishgandi. Kimningdir “Nima uchun qiz erkaklarning shimini kiyib olgan?”, - deb xayratlanib bergan savolidan keyingina singlim mening shimimni kiyib olganiga e’tibor berdim.

“Nima uchun qiz shimda?..”, “Nima uchun?..”, “Sababi nima?..”

Odamlarning berayotgan bu savollariga to‘g‘ri javobni faqat men bilardim. Buning sababi – alamыs. Ha, ha, or-nomus! Bechora singlim, poezd ostida qolganidan keyin butun badani ochilib ketishini o‘ylab, unga begonalarning ko‘zi tushmasligi uchun shimimni kiyib olgandi...

Hikoya shu yerga kelganida qariya jim qoldi. Uning ko‘zida yana yosh miltillab, ich-ichidan og‘ir xursinish keldi. Keyin so‘zida davom etdi:

- Balki sizni “Shunday mudhish yo‘lga qadam qo‘ygan odam sharm-hayo haqida o‘ylar ekanmi?” – degan savol qiynayotgandir. Unday bo‘lsa, bilib qo‘ying yigitcha: or-nomus – o‘limdan kuchli!

Meni bunday savol qiynamasdi... Faqat suhbatdoshimga nisbatan hurmatim ortib, dardiga sherik edim, xolos.

AMRA

- Yaxshi xotin uchrasa – berdi xudo, yomon xotin uchrasa – urdi xudo... – shu so‘zlar bilan yoshi bir yuz yigirmadan oshgan cho‘pon Damey Arlan o‘z hikoyasini boshladi.

Damey ayollar haqida gapirishni xush ko‘rardi, ammo ularning sha’niga nisbatan noo‘rin bir gap eshitgudek bo‘lsa, tutoqib ketar va suhbatdoshi bilan bahsga kirishib ketardi.

Bu safargi davrada u mana shunday voqeani so‘zlab berdi.

Otxara tog‘li qishlog‘ida juda chiroyli, mehnatsevar va kamtar Amra ismli qiz yashar ekan. Unga Abxaziyaning turli burchaklaridan

bir-biridan munosib kuyovlar sovchi jo‘natar, ammo ko‘ngli Djirxvalik Teyb ismli yigitda bo‘lgani uchun birortasiga rozilik bermas ekan. Dunyoning teskariligini qarangki, uning ko‘nglini o‘g‘irlagan Teyb to‘rt muchali but, sog‘lom va baquvvat bo‘lishiga qaramay, o‘lguday tanbal va dangasa ekan. Uzining shaxsiy yeri bo‘lmasa-da, u boshqalarga xizmat qilishni o‘ziga ep ko‘rmas, hayotini behudaga o‘tkazishni odat qilgan ekan. Kimdir uni “Mag‘rur va tez” desa, yana kimdir “Bo‘lmagan gap, g‘irt dangasa va ishyoqmas” deb ta’rif berardi. Odamlar ichida u haqda har xil gap yurishiga qaramay, “Yoshi yigirmadan oshgan bo‘lsa ham, biron marta odamlarning koriga yaramagan, og‘irini yengil qilmagan”, degan fikrda hamma yakdil edi.

Bir kuni qizning uyiga Eshera qishlog‘ida yashaydigan boy va hurmatli bir oilaning farzandi Shьaab ismli yigit qo‘lini so‘rashni niyat qilib kelibdi.

- Sen haqingda ko‘p yaxshi gaplarni eshitdim, - debdi u qizga. – Go‘zalliging va fazilatlaring hammaning tilida doston. Menga sevimli yor, uyimning esa munosib bekasi bo‘lishingni so‘rab oldingga keldim.

- Meni kechiring, ammo erga tegishga shoshilayotganim yo‘q, - mujmal javob qaytaribdi qiz.

- Qulog‘imga “Amraning ko‘ngli Djirxvalik dangasada”, degan gap chalingandi. Nahotki shu gap rost bo‘lsa?

Savol javobsiz qolibdi.

- U tanbal otasidan qolgan vayrona bir kulbada yashaydi deb eshitgandim. Shu gap to‘g‘rimi? – davom etibdi Shьaab.

Amra yana savolni javobsiz qoldiribdi.

- Uning o‘chog‘ida anchadan beri olov ham yoqilmasmish, - istehzo bilan qo‘shimcha qilibdi yigit. – Unga tegsang, tez orada ochlik va sovuqdan bukilib qolishing aniq. Mening esa Esherada baland, chiroyli va har jihatdan qulay uyim bor. Xo‘jaligim but. Men bilan malikalardek yashaysan. Xo‘sh? Rozimisan?

- Uyingizda hamma narsa risoladagidek bo‘lsa, unda sizga mening nima keragim bor? – savolga savol bilan javob qaytaribdi qiz. – Endi gapingizga keladigan bo‘lsak, men o‘sha dangasaga erga tegib, uni munosib va hamma hurmat qiladigan odam qilishga qaror qildim. Sizni esa, istasangiz, chiroyli, xushchaqchaq qo‘shnim bilan tanishtirib qo‘yishim mumkin. To‘g‘ri, uning biroz havoyiligi bor. Ammo tarbiyangizni olsa, hammasi joyiga tushib ketishiga imonim komil.

Kechqurun qiz mehmonni qo‘shnisinikiga boshlab borib, yoshlarni tanishtiribdi. Hamma narsa risoladagidek bo‘libdi: qo‘shni qiz va mehmon bir-birlariga ma’qul bo‘lishibdi. Shьaab qizning qo‘lini so‘rabdi. Bir necha oydan keyin esa Eshera qishlog‘ida katta to‘y bo‘lib o‘tibdi.

Tez orada Amra bilan Teybning ham to‘yi bo‘libdi. To‘yning ertasigayoq Amra oila tizginini o‘z qo‘liga olib, erining tarbiyasiga kirishibdi. O‘zi qo‘li-qo‘liga tegmay ish qilar ekan, erida ham bunga ko‘nikma hosil qilishga muvaffaq bo‘libdi. “Er-xotin – qo‘sh hukiz” deganlaridek, yoshlar birinchi navbatda uyni tartibga keltirishibdi. Xonadon ozoda, shinam va yorug‘ holga kelib, uyda fayz paydo bo‘libdi. Tez orada xo‘jalik ham kengayib, mehmon kutishda uyalmaydigan holatga kelibdi.

Endi Teybning beg‘amligi va dangasaligi ortda qolib, u tamoman boshqa odamga aylangandi. Ammo, “Insonga bir yopishgan yorliq yuz yilda ham ketmaydi” deganlaridek, uzoq-yaqin qarindosh-urug‘lar, hattoki qo‘ni-qo‘shnilar ham unga ishyoqmas va tanbalga qaragandek qarar, behurmat qilishda davom etardilar.

Amra bunday qarashlarga chek qo‘yishga qaror qilib, o‘z qo‘li bilan eriga chakmon tikib beribdi, egar-jabdug‘lik tulpor oldiribdi. Keyin Achandara qishlog‘ida yashaydigan hammaning hurmat-e’tiborida bo‘lgan qariya Said Abjnouning uyiga sovg‘a-salom qilib: o‘ziga chakmon va egar-jabdug‘lik tulpor, xotiniga esa sholro‘mol olib, mehmonga borishga ko‘ndiribdi.

Qariya Said el ichida donishmand va adolatli odam sifatida tanilgan edi. Har qanday murakkab va munozarali masala uning maslahatisiz o‘z yechimini topmasdi.

Qariya yoshlarni samimiy qarshi olibdi. Ularga iltifot ko‘rsatib, dasturxon yozibdi. Anchagacha gaplashib o‘tirishibdi. Nihoyat, mehmonlar turishga ruxsat so‘rab, o‘rinlaridan qo‘zg‘alishganida qariya ularga qarata debdi:

- Men qariyani yo‘qlab kelganingiz, ajoyib sovg‘alaringiz uchun sizlarga minnatdorchilik bildirmoqchiman. Ammo ko‘nglingizni qanday olishni bilolmay turibman. Balki o‘zingiz aytarsiz?

- Hurmatli otaxon, - debdi Amra. – Iltifotingiz uchun minnatdormiz. Sizning bizga nisbatan samimiy munosabatingiz har qanday sovg‘a-salomdan afzal. Ammo ko‘nglimizni olish niyatingiz bor ekan, sizday aziz insonni tutingan aka deb hisoblashga ruxsat bersangiz, boshimiz osmonga yetardi. Gap shundaki, erim avvallari ishyoqmas va dangasa bo‘lgani, boshqalarning koriga yaramagni uchun el ichida yomon otliq bo‘lib qolgandi. To‘g‘ri, u boylar tugul o‘z qarindosh-urug‘lari uchun ham belini bukib xizmat qilishni o‘ziga ep ko‘rmagan. Ammo hozir u tamoman o‘zgardi. Uyim-joyim deb, men bilan teppa-teng mehnat qilayotgan bo‘lsa ham qo‘ni-qo‘shnilarning unga bo‘lgan munosabati o‘zgarmayapti. Otaxon, iltimos, unga nomini oqlab olishda yordam bering!

- Hammasini tushundim, - debdi Said. – Biz ham kampirim bilan yoshligimizda xuddi shunday vaziyatga tushgandik... O‘shanda bizga yaxshi odamlar yordam qo‘lini uzatishgan edi... Qizim, ko‘ngli ochiq, yaxshi ayol ekansan.

Keyin yigitga yuzlanib:

- Baxting bor ekan, Teyb. Bugundan e’tiboran men sening tutingan akangman. Xavas qilsa arzigulik xotining bor ekan. Uni doimo hurmat qilgin, ko‘z qorachig‘iday asra, ehtiyot qil. Aytgan so‘zlarim esingda bo‘lsin: yaxshi xotin uchrasa – berdi xudo, yomon xotin uchrasa – urdi xudo... Endi bunday qilsak: ertaga Lыxnada katta

yig‘in bo‘lishini eshitgandirsan. U yerga atrof qishloqlardan odamlar keladi. Bu yig‘inga sen ham borgin. Mening yonimga kelsang, qolganini o‘sha yerda aytaman.

- Yig‘indan maqsad nima, bilsam bo‘ladimi?

- U yerda jiddiy masala: Chichba va Bazba oilalari o‘rtasida o‘n yildan beri davom etib kelayotgan qonli adovatni to‘xtatish masalasi ko‘riladi. O‘tgan vaqt ichida ikkala oilaning qanchadan-qancha farzandi tuproqqa kirmadi!? Bu adovatga chek qo‘yilmasa, ular bir-birlarini qirib tugatishi hech gap emas... Sen u yerga kelib albatta menga ko‘ringin, qolganini o‘sha yerda hal qilamiz.

- Yaxshi, albatta boraman.

Shu so‘zlar bilan mehmonlar uy egasi bilan xayrlashishga chog‘langan ham ediki, mezbon ularni to‘xtatib, kampirini oldiga chaqiribdi-da shunday debdi:

- Azizam, bu yoshlar bugundan e’tiboran bizning tutingan uka va singlimiz bo‘ladi. Biz bir yostiqqa bosh qo‘yganimizga yarim asrdan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa, ular oila qurishganiga bir yil ham bo‘lmadi. Ular ham xuddi biz kabi hayotlarini qiyinchiliklarni yengishdan boshlashayapti. Yoshimizni hurmat qilib, xolimizdan xabar olish uchun sovg‘a-salom qilib kelishibdi. Umrlaridan baraka topishsin. Endi javob tariqasida udumga ko‘ra bizning sovg‘alarimizni ham qabul qilishingizni so‘raymiz: yaqinda ko‘zi yorigan govmish sigir xo‘jaligingizda juda asqotadi. O‘zingiz olib kelgan sovg‘alar – qo‘lbola chakmon va egarlangan tulporni ham o‘zingizga qaytaramiz – endi ular bizdan ko‘ra sizlarga ko‘proq kerak bo‘ladi.

Amra va Teyb e’tiroz bildira boshlashgan ekan, ammo Said hech qanday e’tirozni qabul qilmabdi.

- Etmish yillik hayotim davomida hech qachon so‘zimni qaytib olgan emasman. Hozir ham shunday bo‘ladi! Agarda sovg‘alarimni qabul qilmasangiz mening do‘stligimga umid qilmasangiz ham bo‘ladi!..

Mehmonlar o‘zlari olib kelgan sovg‘alari – chakmon va tulporni qaytib olishdan, cholu kampir sovg‘a qilgan govmish sigirni qabul qilishdan boshqa choralari qolmabdi.

Uyga qaytishgach, er-xotin tonggacha bo‘lajak voqealar haqida maslahatlashib chiqishibdi: Teyb o‘zini qanday tutishi kerakligi va gap-so‘zini rejalashibdi. Har xil taxminlarni qilishibdi...

- Bilasizmi, xayolimga bir narsa keldi, - debdi Amra kutilmaganda.

- Nima ekan?

- Men yaqinda bir gap eshitgandim: Chichba oilasiga mansub bo‘lgan qiz Bazba oilasidagi yigitga ko‘ngil qo‘yibdi. Aytishlaricha, yoshlar bir-birini juda sevishiga qaramay, qovusholmay aziyat chekib yurishgan ekan.

- Xo‘sh, xo‘sh.

- Buning sababi – oilalar o‘rtasidagi qonli adovat... Bundan xabar topgan qizning yaqinlari uni o‘laksa qilib do‘pposlashibdi, uyni zindon qilib uyga qamab qo‘yishibdi.

- Agar aytganlaring rost bo‘lsa, menda bir fikr paydo bo‘ldi...

- Qanday fikr?

- Qishloq yig‘inida men so‘z so‘rab, shunday taklifni kiritsam qanday bo‘lar ekan: yoshlarning qovushishiga ruxsat berish, katta to‘y qilib, shu bahonada ikki oilani yarashtirish kerak.

- Juda yaxshi fikr, - xursandchiligidan Amra erini mahkam quchoqlab olibdi. – Azizim, mana ko‘rasiz, bu fikr shubhasiz odamlarga juda ma’qul bo‘ladi. Faqat gapirganda hech narsaga chalg‘imay, erkin gapiring. Axir gapga chechansizku!

Ertasiga yaqin qishloqlardan odamlar Lыхna dalasida yig‘ilishibdi. Said Abjnou balandlikda eng hurmatli qariyalar o‘rtasida o‘tirardi. Teyb uning yoniga kelib, davradagilar bilan salomlashibdi.

O‘tirganlar yigitning salomiga bazo‘r alik olishibdi. Said esa o‘rnidan turib unga alohida ehtirom ko‘rsatib, yonidan o‘tirishga joy ko‘rsatibdi. Saidning yigitga ko‘rsatgan e’tibori davradagilarni xayron

qoldirgan bo‘lsa-da, hurmatli odamning gapini ikki qilishga botinishmabdi. Ular ham o‘rinlaridan turib, qariya va yigit o‘tirmagunlaricha joylariga o‘tirishmabdi.

Yig‘in boshlanibdi. Turli qishloqlardan kelgan vakillar so‘z olib, bu ikki oila o‘rtasidagi qonli nizoni to‘xtatish bo‘yicha o‘z mulohazalarini bildirishibdi. Ammo aytilayotgan fikrlarning aksariyati amalga oshishi qiyin bo‘lgan takliflar bo‘lib, so‘z olganlar xun olishning salbiy oqibatlari haqida umumiy tarzda gapirishar edi.

- Men ham gapirsam maylimi? – Teybning bu so‘zlari odamlarni ajablantiribdi. O‘rtaga jimlik cho‘kibdi.

- Albatta, gapir! – hammaning o‘rniga javob beribdi Said.

Teyb so‘zining avvalida yig‘ilgan hurmatli insonlarning e’tiborini tortgani uchun uzr so‘rabdi. Undan keyin gapning muddaosiga o‘tibdi.

Yigitning so‘zlari ko‘pchilikka ma’qul kelganday bo‘libdi. Said esa o‘rnidan turibdi-da, yigitni quchoqlab tantanavor ohangda debdi:

- Men hozir tutingan ukam - hurmatli Teyb bildirgan taklifni to‘liq qo‘llab-quvvtlayman. Agar yoshlar bir-birlarini shunchalik sevishar ekan, vaziyatdan chiqishning chorasi bitta – ularning boshini qovushtirish kerak.

Teyb tomonidan bildirilgan taklif yig‘ilganlar tomonidan ham yakdillik bilan qabul qilinibdi.

Birozdan keyin elga dasturxon yozilib, to‘yu tomosha bo‘libdi va ikki yosh qalb murodiga yetibdi. Shu kundan e’tiboran Bazba va Chichba oilalari o‘rtasida ko‘p yillar davom etib kelayotgan nifoq barham topibdi, do‘stlik va o‘zaro hurmat rishtalari qayta tiklanibdi.

Shu kundan e’tiboran odamlarning Teybga nisbatan bo‘lgan munosabati ham keskin o‘zgaribdi. Qaerga bormasin unga munosib hurmat va e’tibor ko‘rsatiladigan bo‘libdi.

Bo‘lib o‘tgan voqealardan ko‘ngli to‘lib xotirjam bo‘lgach, Amra eri va do‘stlari hamrohligida bir vaqtlar boyvachcha yigitga

tegib ketgan qo‘shni dugonasidan xabar olish niyatida Esheraga yo‘l olibdi.

Qo‘shni qishloqqa kelib, dugonasining uyiga kirib borganida uning ko‘z oldida ochilgan manzaradan “hangu mang” bo‘lib qolibdi: uy egalarining qo‘li singanmi, xona anchadan beri supurilmagan, qarovsiz va xarob holga kelgandi.

Uy egalarining yo‘qliligidan foydalanib, Amra yenglarini shimarib xonani yig‘ishtira ketibdi. Supurib-sidirishga boshi bilan sho‘ng‘ib ketganidan uyga Shьaab kirib kelganini ham sezmay qolibdi. Qachonlardir durkun yuzlari so‘lib, sochlari to‘zib, soqollari o‘sib ketgan yigit kutilmagan mehmonning ko‘zlariga tik boqishga botinolmay jim qolibdi...

- Men yuz yildan ko‘proq umr ko‘rdim, - deb hikoyasiga xotima yasabdi Damey Arlan. – Bu hayotda ko‘p voqealarning shohidi bo‘ldim. Ammo xalq maqolining hayotiyligiga yana bir bor imon keltirdim. Esingizdami? “Er o‘chirgan o‘choqni tiklasa bo‘ladi, ammo xotinning qo‘lidan vayron bo‘lgan o‘choqni aslo tiklab bo‘lmaydi”.

Shunday deb, Damey biroz jim qolibdi, keyin og‘ir xursinish bilan hikoyasining boshida aytgan so‘zlarni qaytaribdi:

- Yaxshi xotin uchrasa – berdi xuda, yomon xotin uchrasa – urdi xudo...

ANTITSA

- Besh yil ovozing chiqmadi, endi yetar qizim. Bundan keyin oldimda gapirishingga ruxsat beraman, - debdi qariya Djguanat yolg‘iz o‘g‘li Tamshugning xotini sohibjamol Antitsaga. – Uyimizga kelin bo‘lib tushganingga besh yildan oshgan bo‘lsa ham biron marta ovozingni eshitish nasib etmadi.

Urf-odatga ko‘ra, qaynotaning huzurida kelinga gapirish qat’iyan man etiladi. Asrlar bo‘yi davom etib kelgan bu odatni buzishga abxaz kelinini ko‘ndirish oson emas.

Djguanat Kove qo‘shnisi Maxaz Tarba bilan suhbatlashib o‘tirganida ham bunday odatdan norozi bo‘lib xasrat qilibdi:

- Bu bema’ni odatni qanday ahmoq odamlar o‘ylab topgan ekana?.

- Yo‘q, bu odatni o‘ylab topgan odamlar unchalik ahmoq emas, - javob qaytaribdi qo‘shnisi. – Ammo niyating qat’iy ekan, buning ham ilojisi bor. Istasang, undan foydalanishing mumkin.

Maxaz Tarba boshqa bir qadimiy odatni nazarda tutgandi: o‘n kishidan ortiq guvohlarning oldida aytilib, ular tomondan ma’qullangan istak so‘zsiz bajarilishi kerak. Ko‘pchilikning amri vojib...

- Juda yaxshi, - debdi Kove muammoning yechimi topilganidan xursand bo‘lib.

Ertasiga ertalab qariya og‘ilda turgan ikki buqachadan birini so‘yib, qirq kishilik bazmga hozirlik ko‘rishni buyuribdi.

- Bunday tayyorgarlikning sababi nima? – ajablanib so‘rabdi o‘g‘li.

- Keyinroq bilasan, - debdi otasi sirli jilmayib.

Djguanat qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘ va do‘stlarini shaxsan o‘zi aylanib chiqib, ularni uyiga qadam-ranjida qilishga taklif qilibdi.

Peshinga yaqin tayyorgarlik ishlari nihoyasiga yetibdi. Belgilangan vaqtda taklif etilgan mehmonlar birin-ketin kirib kelib, turli-tuman yegulik va ichimliklar bilan bezatilgan stol atrofiga joylashibdilar. Bunday bazmu jamshidning sababini so‘raganlarga esa mezbon “Avval taom...” deya ularni noz-ne’matlarni tanovvul qilishga da’vat etibdi.

Qadahlar bir necha bor ko‘tarilgach, Kove navbatdagi qadahni to‘ldirib, hammaning e’tiborini o‘ziga qaratib:

- Aziz mehmonlar! Endi bugungi mehmondorchilikning sababiga kelsak. Hammangiz kelinim Antitsani yaxshi bilasiz. Men uni kelinday emas qizimday yaxshi ko‘raman. Ammo bir narsa doimo yuragimni o‘rtab keladi. Uyimga kelin bo‘lib tushganiga besh yil

bo‘lgan bo‘lsa ham uning ovozini biror marta eshitmaganman. Qadimgi abxaz odatiga ko‘ra u mening, ya’ni qaynotasining oldida gapirishi mumkin emas. Uni kelinday emas qizimday ko‘rganim uchun bundan keyin mening oldimda o‘zini erkin tutishini xohlardim. Azizlarim, qo‘limdagi mana shu qadahni ko‘tarar ekanman, bugundan e’tiboran kelinim Antitsa mening oldimda gapirishini iltimos qilaman va bu iltimosimni qo‘llab-quvvatlashingizni so‘rayman, - debdi va qadahni bo‘shatibdi.

- Rozimiz, - deb mehmonlar ham qadahlarini bo‘shatishibdi.

Mezbon qadahni yana to‘ldirib qo‘shnisi Maxazga uzatibdi. El ichida hurmat qozongan, soch-soqoli oppoq Maxaz Tarba do‘stining qo‘lidan qadahni minnatdorchilik bilan qabul qilib Antitsaga yuzlanibdi:

- Dad! Yoshim bir yuz yigirma sakkizga borgan bo‘lsa ham, umrim bino bo‘lib biror bir abxaz kelini qaynotasi va uning do‘stlari tomonidan bunday hurmatga sazovor bo‘lganini eslolmayman. Bu dunyoda nimalar bo‘lmaydi... Hurmatli Djguant shunday qarorga kelgan bo‘lsa, demak sen shunga munosib ekansan, qizim. Mana shu qadahni qadrdonimning iltimosiga qo‘shilgan holda sening salomatliging uchun ko‘tarmoqchiman.

Mehmonlar birin-ketin qadah ko‘tarib, o‘z roziliklarini bildirishibdi.

Mehmondorchilik allamahalgacha davom etibdi. Mehmonlar tongga yaqingina uy-uyiga tarqalishibdi.

Ertalab qariya Djguant uyqudan turib xovliga chiqqanida kelini sigir sog‘ayotgan ekan.

- Xayrli tong, dad! – samimiy alik olish niyatida debdi qariya keliniga.

- Xayrli tong, xayrli tong, - kelinning javobida behurmatlik ohanglari sezilibdi. – Nima? Nima gapingiz bor? – qo‘shimcha qilibdi u yanada dag‘allik bilan. – Hech bo‘lmasa buzoqni ushlab turing. Xalaqit berayotganini ko‘rmayapsizmi?...

Qariya bunday munosabatni kutmagani uchun biroz dovdirab qolibdi. Nahotki o‘z qulog‘i bilan eshitgan bu so‘zlar kelini Antitsaga tegishli? Qariya xalaqit berish xayoliga ham kelmay bir joyda tik turgan buzoqchaning yoniga kelib uning peshonasini silabdi.

- Tamshug qaerda?

- Men qaerdan bilay... Mendan so‘rab ketarmidi... Ish bilan yurgandir-da... Axir u siz kabi uyquchi emas-ku! – javob beribdi Antitsa.

- Qizim, kayfiyating yo‘qqa o‘xshaydi. Seni kim hafa qildi? Yoki kasal bo‘lib qoldingmi?

- Hech kim hafa qilmadi. Qilib ham ko‘rsinchi! Kasal ham emasman. Siz esa soppa-sog‘ bo‘lishingizga qaramay doimo o‘zingizni kasallika solib yurasiz...

Qariya xayratining cheki yo‘q edi. Nahotki ro‘parasida turgan qiz uning kelini Antitsa bo‘lsa? Nahotki aytilayotgan bu so‘zlar uning yuragidan chiqayotgan bo‘lsa?... Unga nima bo‘ldi? Bir kechada odam shu qadar o‘zgarishi mumkin emas-ku...

Qariya tushkun kayfiyatda uyga kirib ketibdi. Biroz tinchlanishni o‘ylab joyiga cho‘zilibdi. Ammo oynadan eshitilgan kelinning g‘o‘ldirashi uning kayfiyatini battar buzibdi:

- Yotishdan boshqa narsaga ham yaraysizmi o‘zi. Uyda shuncha ish bo‘lsa...

Bu ham yetmagandek, eshik yoniga kelib diydiyosida davom etibdi:

- Yana ancha yotasizmi? Jonga tegmadimi?

Bunisiga qariya chidab turolmabdi. U oyoqlari xastaligini ham unutib dast o‘rnidan turibdi-da, chakmonini yelkasiga tashlab uydan chiqib ketibdi. Xovlidan uzoqlashar ekan kelin uning ketidan bir narsalarni g‘o‘ldirar, o‘zining noroziligini bildirardi.

Kun bo‘yi u dala aylanibdi, uzoqdagi qo‘shnilarni ham yo‘qlabdi. Uyga kech tushganda qaytibdi. Yotishdan oldin o‘g‘liga murojaat qilib debdi:

- Tamshug, o‘g‘lim! Hayotim oxirlab borayotganini sezib turibman. Shuning uchun ertaga yana mehmondorchilik qilmoqchiman. Og‘ildagi ikkinchi buqachani ham so‘ygin-da xotining bilan dasturxon tayyorlanglar. Mehmonlarni esa o‘zim aytaman. Qarshi emasmisan?

- Albatta qarshi emasman, ota! – xayron bo‘lib javob beribdi o‘g‘li.

Ikki kun avval Djguantning uyida bo‘lib o‘tgan bazmu jamshidda ishtirok etgan mehmonlar ertasiga yana dasturxon atrofida yig‘ilishibdi. Bir necha qadah ichilganidan keyin qariya o‘sha kundagidek qo‘lidagi qadahni to‘ldirib, hammaning e’tiborini o‘ziga qaratibdi:

- Do‘stlarim! Esingizda, o‘tgan kuni shu dasturxon atrofida o‘tirib kelinim Antitsadan mening oldimda gapirishini so‘ragan edik. U iltimosimizni qondirdi va kecha men bundan to‘liq qanoatlandim. Endi bugun sizlarni taklif qilishimdan maqsad: yana kelinimga murojaat qilib, ota-bobolarimiz odatiga qaytib, men, ya’ni qaynotasining oldida bundan keyin hech qachon gapirmasligini so‘ramoqchiman. Sizlar ham meni qo‘llab-quvvatlaysizlar deb umid qilaman.

- Shunday degin! – debdi Maxaz Tarba. – Demak, bu odatni o‘ylab topgan odamlar haqidagi bahsda men haq bo‘lib chiqdim.

Keyin kulimsirab qo‘shimcha qilibdi:

- Buni tushunib yetishing uchun ikki buqachani so‘yish kerak bo‘libdi-da.

- Aslo, bu odat juda yaxshi degan fikringga uncha qo‘shilolmayman, - debdi Djguanat Kove, - ammo bu safar o‘zim ham yaxshirog‘ini o‘ylab topolmabman...

LEDA

Kunlardan bir kun Jasib o‘rmon yo‘li bilan yurib borar ekan, butalar orasidan kimningdir ingragan ovozini eshitib to‘xtabdi. Borgan sari qiziqishi ortib, shoh-shabbalarni bir yonga surgan ekan, bir burchakda sochlari hurpaygan, panjalari orasidan qon silqib chiqayotgan bir holatdagi kuchukka ko‘zi tushibdi.

Jasib kuchukning yaralanganini, aftidan uni kimdir otmoqchi bo‘lganini faxmlabdi. U tabiatan xayvonlarni yaxshi ko‘rgani uchun jonivorning mungli va iltijoli ko‘zlariga dosh berolmabdi, rahm-shavqat uning qalbini chulg‘ab olibdi.

Jasib ehtiyotkorlik bilan kuchukni qo‘liga olib, uyi tomon ravona bo‘libdi. Uyga kelganidan keyin kuchukning yaralarini asta tozalab, turli xil shifobaxsh o‘tlar yordamida davolay boshlabdi. Buni qarangki, bir haftaga qolmay kuchukning sog‘lig‘i yaxshilanib, yangi xo‘jayinining ortidan qolmaydigan odat chiqaribdi. Mehr nimalar qilmaydi deysiz...

Kunlardan bir kun Jasib qo‘shni qishloqqa boradigan bo‘lib qolibdi. Kuchuk ham odatdagidek uning ortidan ergashibdi. Ammo, behosdan uning e’tiborini ro‘paradan yurib kelayotgan odam tortibdi. U notanish odamning yoniga yugurib borib, dumini likillatib, atrofida aylana boshlabdi.

Boyagi odam xayratini yashirolmay:

- Senmisan Leda?! Leda! Bechoraginam, qanday qilib omon qolding? – deb, kuchukni silay boshlabdi.

Jasib uning yoniga kelib, bo‘lib o‘tgan voqeani, itni qanday topib olganini aytib beribdi.

- Men Ledani juda yaxshi ko‘rardim, - deb so‘zini boshlabdi boyagi odam. – U kasal bo‘lib qolganida biz uning quturib ketishidan qo‘rqib ketdik. Keyin men uni o‘rmonga olib bordim... Ammo,.. ishonasizmi,.. qo‘lim qaltirashidan uni mo‘ljalga olalmadim... Ha-ha... Bor gap shu. Ammo, siz esa uni tuzatibsiz. Demak, kuni bitmagan ekan.

Shunday deb u Ledani yana erkalay boshlabdi. Birozdan keyin boshini ko‘tarib, Jasibga yuzlanibdi:

- Agar ruhsat bersangiz, men mehnatingiz haqini berib, itni olib ketsam...

Keyin itga qarab:

- Leda, sen men bilan ketasanku? Shundaymi? – debdi.

Jasib norozi ohangda:

- Menga pulingiz kerak emas. Men itingizga pul uchun qaraganim, uni tuzatishga harakat qilganim yo‘q. Men bu ishni unga rahmim kelgani uchun qildim. Kim bilan ketishni esa uning o‘zi hal qilsin... – debdi.

- Nima ham derdim. Mayli, siz aytgandek bo‘laqolsin - debdi boyagi odam.

Va uchovlon yo‘lga ravona bo‘lishibdi. Yo‘l ikki tomonga ayrilgan joyda Jasib o‘ngga, boyagi notanish odam esa chapga qayrilibdi. Ikkisi ham ortiga qaramay yurib borar ekan, it dastlab qaysi tomonga yurishini bilmay, ikkilanib qolibdi. Ammo, birozdan keyin u o’zi uchun qaror qabul qilgandek, shasht bilan Jasibning ortidan yugurib ketibdi...

IKKI ESHIK

“Mshvagu bilan ko‘rishmaganimizga ham yetti yildan oshibdi, - xayol surib kelardi Shaxan Kupalba bolalik do‘stining uyiga yaqinlashar ekan. – Juda xursand bo‘lib ketsa kerak!”

Shunday o‘y bilan u darvozaning oldiga kelib to‘xtabdi. Bu yerlarga kelmaganidan beri yuz bergan o‘zgarishlar uni xayratga solibdi: do‘stining uyi baland va chiroyli, did bilan qurilgan bo‘lib, xovlida turli xil parrandalar – kurka, tovuq, g‘ozlar yurar, bir chekkada esa yoshgina buzoqchalar bir-birini quvlashardi. Uyning ortida makkajo‘xorizor, uning yonida esa mevali bog‘ barpo etilgandi.

Hamma narsa Mshvaguning xo‘jaligi but, o‘zi esa uddaburon xo‘jayinligidan dalolat berib turardi.

“Mshvagu doimo tartibli va mehnatsevar edi,” – degan o‘y Shaxanning xayolidan o‘tdi.

Xovlidan itlarning vovullagan ovozi keldi. Ayvonda ayol kishining qorasi ko‘rindi. U pastga ham tushmay itlarga po‘pisa qila ketibdi.

- Mshvagu uydami? – debdi Shaxan ayolga qarata, ammo javob ololmay oti bilan xovliga kirib kelibdi va savolini takrorlabdi: - Mshvagu uydami?

- Yo‘q! – debdi ayol ayvonda turib.

Shaxan xovlidagi qoziq yoniga kelib to‘xtabdi, otidan tushib uni bog‘labdi-da asta uy tomon yuribdi. U ayol mehmondo‘stlik odatiga binoan ayvondan yugurib tushib, mehmonni ochiq chehra bilan qarshi olishini va uyga taklif etishini kutgandi. Ammo, ayol turgan joyidan jilmabdi. Bundan xayratga tushgan Shaxan itlarning vovullashiga qaramay xovlining bir chekkasida qad ko‘targan chinor ostidagi kursiga borib o‘tiribdi.

Ayol erinibgina pastga tushib kelib, itlarni haydagandek bo‘libdi-da, mehmonga yaqinlashibdi.

- Xayrli kun, - debdi Shaxan. – Mshvagu qaerda?

- Kim bilsin, - javob beribdi ayol.

- Qachon qaytarkin?

- Aytmadi.

- Uyda boshqa hech kim yo‘qmi?

- Yo‘q.

- Meni ma’zur tutasiz... Sizga savol bersam maylimi? – debdi Shaxan. – O‘zingiz kim bo‘lasiz? Mshvaguning xotini¬misiz?

Ayol javob bermabdi.

- Shundaymi? Juda xursandman. Bilasizmi, biz eringiz bilan bolalikdan qalin do‘stmiz. Ammo, taqdir taqozosi bilan hayot bizni ikki tomonga ajratib yubordi. Ko‘rishmaganimizga ham yetti yildan oshdi. Bu yerlarga ish yuzasidan kelgandim, uni ko‘rmay ketolmadim.

Ayol jim turaveribdi.

- Kunning issiqligini qarang! Jazirama-ya... – debdi Shaxan. – Yo‘l yurib juda charchadim. Iltimos, suv bersangiz.

Ayol bir so‘z demay oshxonaga borib suv olib kelibdi. Shaxan suvdan xo‘plagan ekan, u iliq va bemaza bo‘lgani uchun yerga sepib yuboribdi.

- Minnatdorman.

Ayol idishni uyga qo‘yib kelibdi-da yana jim turaveribdi.

- Keling, o‘tiring singim.

Ayol o‘tirmay qaqqayib turaveribdi.

Shaxan yana allanarsalar – ob-havo, makkajo‘xori hosili haqida gapirganday bo‘libdi. Ammo, suhbatdoshi ro‘yxushlik bildirmaganidan keyin:

- Charchog‘im chiqdi. Mayli, endi men boray. Yaxshi qoling, - debdi.

- Siz ham yaxshi boring, - shuni kutib turgandek hozirjavoblik bilan debdi ayol mehmonni darvoza tomon kuzatar ekan.

Xovlidan chiqar ekan Shaxan to‘xtabdi-da, orqasiga qayrilib ayolga shunday debdi:

- Ha, afsus! Mshvagu bilan ko‘risholmaganimiz yaxshi bo‘lmadi. Men bu uchrashuvni shunday kutgan edimki! Hay, mayli... Unga aytib qo‘ysangiz... – Shaxan biroz o‘ylanib qolibdi. – Unga mening salomimni yetkazing. Do‘sting Shaxan kelib-ketdi, ko‘risha olmaganiga afsuslandi, deb ayting. Uy-joyi, xo‘jaligi butligidan xursandligimni ayting. Hamma narsa risoladagidek, ammo birgina kemtik – eshigining mazasi yo‘qligini yetkazing...

Ayolning xayratini ko‘rib qo‘shimcha qilibdi:

- Ha, aytgandek, men o‘zim duradgorman. Uylar quraman. Shuning uchun Mshvaguga gapimni albatta aytib qo‘ying: uyning eshigi yaxshi emas ekan. Buni o‘zi ko‘rmayotganiga xayronman.

- Yo‘g‘-e? Biz esa e’tibor ham qilmabmiz, - debdi ayol birinchi bor jilmayib.

- Buning ajablanadigan joyi yo‘q - tashqaridan yaxshiroq ko‘rinadi. So‘zlarimdan xafa bo‘lmang. Aytishadiku: “Yomon mehmon faqat kamchiliklarni ko‘radi” deb. Hay, mayli, boraqolay. Xayr...

Va Shaxan yo‘liga ravona bo‘libdi.

Mshvagu uyga kech qaytibdi. Yo‘qligida Shaxan kelib-ketganini eshitib afsuslanibdi.

- Uni nega qo‘yib yubording. O‘zi haqida gapirdimi? Turmushi qanday ekan? Nima qilayotgan ekan? Bilasanmi, u bilan ko‘rishmaganimizga yetti yildan oshdi!

- O‘zi ham shunday dedi. Duradgorlik qilayotgan ekan, - keyin Shaxan aytgan gap esiga tushibdi. – Sizga aytib qo‘yishimni tayinlagandi...

- Nimani?

- Eshigimizning mazasi yo‘q ekan. “Do‘stimga uy-joyini ko‘rib xursand bo‘lganimni ayting. Ammo, birgina kamchiligini ko‘rdim – eshigi yaxshi emas ekan. Bunday xashamatga bundan yaxshiroq eshik yarashadi”, - deb aytdi.

Bu gaplarni eshitib Mshvagu xayron bo‘libdi. Uyining eshigini obdon ko‘zdan kechiribdi, ammo biron bir kamchilik topolmabdi.

Oradan bir yil o‘tibdi.

Nima ham bo‘libdi-yu Shaxan ish yuzasidan yana o‘sha yerlarga keladigan bo‘lib qolibdi. Bu safar ham do‘sti bilan ko‘rishishni niyat qilib uyiga boribdi.

- Hoy, Mshvagu! Uydamisan? - deb do‘stini chaqiribdi Shaxan darvozaga yaqinlashar ekan.

Uning ovoziga yoshgina bir ayol ayvonga yugurib chiqibdi. Shosha-pisha pastga tushib, mehmonga peshvoz chiqibdi.

- Xush kelibsiz! - deb mehmonni samimiy qarshilabdi va darvozani ochib ichkariga kirishga taklif qilibdi.

- Mshvagu uydami? – so‘rabdi Shaxan xovliga kirib kelar ekan.

- Hozir yo‘qlar, ammo tez orada kelib qoladilar. Uyga kiring!

Bu safar ham kun jazirama bo‘lgani uchun u juda chanqagan edi.

- Yo‘q, rahmat. Menga shu yer ham bo‘laveradi, - deb Shaxan yana o‘sha chinor ostiga borib o‘tiribdi.

- Qo‘ysangizchi, - jon holatda debdi ayol. – Ichkariga kiraqoling! U yer ham salqin.

Uning so‘zlari shunchalik samimiy chiqayotgan ediki, Shaxan mamnuniyat bilan:

- Sizningcha bo‘laqolsin, - debdi.

Uyning ichi haqiqatan ham salqin edi. Shaxan xonani ko‘zdan kechirib, do‘stining rasmini ko‘rib qolibdi.

- Buni qara-ya, qanday yigit bo‘libdi!

Uning yonida yana bir rasm osib qo‘yilgan bo‘lib, unda maktab formasidagi ikkita bola: Mshvagu va Shaxan aks ettirilgandi.

- Mshvaguni ko‘pdan beri ko‘rganim yo‘q! Bu rasmga Suxumida shahar maktabida o‘qiyotganimizda tushgandik. Uni qanchalik ko‘rish istagida ekanimni bilsangiz edi, ammo afsus bu safar ham omadim chopmadi.

Keyin ayolga qarata:

- O‘zingiz kimsiz? Do‘stimning singlisi emasmisiz?

- Yo‘q, - deb javob beribdi ayol va jim qolibdi.

- O‘tgan yili meni kutib olgan Mshvaguning xotini ko‘rinmaydi.

Ayol sukut saqlashda davom etibdi.

- Meni kechiring! Ammo men bu yerdan ancha uzoqda yashayman. Hech narsadan xabarim yo‘q. Uning hayotida o‘zgarishlar yuz berdimi?

Shaxanning bu so‘zlariga ayol nimtabassum bilan javob qaytaribdi.

- Balki siz do‘stimning xotinidirsiz? – deb bergan savoliga javoban ayol tasdiq ma’nosida boshini quyi solibdi.

- Tabriklayman, - mamnuniyat bilan debdi Shaxan. – Mshvagu juda ajoyib inson!

Mehmon so‘zini tugatmagan ham ediki, ayol xonadan chiqib ketibdi. Shaxan ko‘z qiri bilan uning oshxonaga shoshilib kirib

ketganini koʻrib qolibdi. “Avvalgisiga sira oʻxshamas ekan,” – xayoldan oʻtkazibdi u.

Shaxan oʻrnidan turib, ayvonga chiqibdi. Tez orada ayol ham koʻrinibdi. Mehmon chanqagan emasmi, undan ichishga suv soʻrabdi.

- Hozir, - deb ayol ichkaridan stolcha, undan keyin bir shisha vino va qadah olib chiqibdi.

- Siz ichib turing, men esa hozir muzdek buloq suvidan olib kelaman, - deganicha buloq tomon yugurib ketibdi.

Shaxan vino bilan chanqogʻini qondirgan ham ekanki, ayol uning oldiga muzdek buloq suvi toʻldirilgan idishni qoʻyibdi.

- Siz bemalol dam olib turing, doʻstingiz tez orada kelib qoladilar!

Shunday deb ayol shoshganicha oshxonaga kirib ketibdi. Tez orada qaytib kelib dasturxon tuzay boshlabdi.

- Qorningiz ham ochib ketgandir. Men hozir...

- Aslo shoshilmang, singlim. Qornim unchalik ochgani yoʻq. Keling, Mshvaguni kutaqolaylik.

- Doʻstingiz kelib qolsalar juda yaxshi, ammo biroz ushlanib qolishlari ham mumkin. Siz esa uzoq yoʻldan keldingiz. Bemalol tamaddi qilavering.

Shaxanning haqiqatan ham qorni ochqagan, stolga qoʻyilgan tamolar esa shu qadar lazzatli ediki, u oʻzini tiyib turolmay dasturxonga qoʻl uzatibdi...

Oqshom tusha boshlaganida ham Mshvagu uyiga qaytmadi. Shaxan turishga chogʻlanibdi. Ayol uni qancha koʻndirishga harakat qilmasin, Shaxan qolishga koʻnmadi.

- Ming afsus, - dedi u. – Lekin na iloj? Bu kecha juda ishlarim koʻp, buning ustiga sheriklarim ham Tamish yoʻlida meni kutib turishibdi.

- Xoʻjayinim mendan hafa boʻladigan boʻldilarda, - dedi ayol mehmonni yana bir bor qolishga koʻndirish ilinjida. – Siz ketib qolsangiz ranjib qolishlari aniq.

- Jonim bilan qolardim-u, lekin ilojim yoʻq. Hayr, yaxshi qoling! – dedi Shaxan ayolga yuzlanib.

Ayol uni darvoza tomonga kuzatayotib:

- Do‘stingizga nima deb qo‘yay? – dedi.

- Ha, - deya ohista so‘z boshladi Shaxan. - Do‘stimga sizni ko‘rgani bolalikdagi do‘stingiz Shaxan keldi deng. Men uning uchun juda xursandman, uning xonadoni, bog‘lari nihoyatda go‘zal ekanligidan ko‘nglim ko‘tarildi... Ha, eng asosiysi menga uning uyidagi eshiklari juda yoqdi. Ha, ha, aynan shunday deb qo‘ying, iltimos! Bu eshiklar uning xonadoniga juda mos ekan. Men, duradgorman-da, uylar quraman... Qancha, qancha uylarni qurdim... Esingizdan chiqmasin, aynan shunday deb yetkazing-a, uyingizning eshiklari juda ajoyib ekan!

- Xo‘p, albatta aytib qo‘yaman, - dedi ayol va uyning eshiklariga hayratomuz qarab qo‘yibdi.

Shaxan bir kulib qo‘yibdi-da, yo‘lida ravona bo‘libdi.

Kechga yaqin Mshvagu uyga qaytibdi. Do‘sti mehmon bo‘lib kelganini, ammo bu safar ham uni ko‘ra olmaganidan juda hafa bo‘libdi.

- U juda ajoyib odam, – debdi Mshvagu ayoliga qarab. – Har doim samimiy, sezgir va aqlli odam bo‘lgan.

- Aqlli deysizmi? – deb so‘radi xotini va xayolchan chetga qarab, o‘yga tolibdi.

– Ha, noyob inson! U yoshligimizda ham doimo falsafiy mushohada yuritar, hammamizga yaxshi maslahatlar berardi.

- Menga esa... kechirasizu... gapim sizga og‘ir botmasin, u biroz g‘alatiroq tuyuldi...

- Nega? – debdi Mshvagu. - Nega unday deyapsan?

- Bilasizmi u bizning eshiklar haqida g‘alati gaplarni aytdi... “Mshvaguga aytib qo‘ying, uyining eshiklari menga juda yoqdi. Ajoyib, juda yaxshi eshiklar ekan”, - dedi.

- Eshik dedingmi? – xayron bo‘lib so‘rabdi eri.

- Ha, eshik dedi... Gaplarini sizga shundayligicha yetkazishimni iltimos ham qilib qo‘ydi.

- Aniqroq qilib gapirsangchi, - bu safar Mshvagu hayajonini yashira olmabdi. – Nima dedi, yoqibdimi yoki yoqmabdimi? Yaxshilab eslab ko‘r!

- Yo‘q, aksincha, yoqibdi! Eshiklaringiz juda yaxshi ekan. U o‘zi duradgor ekan, uylar qurarkan...

- Demak, bu eshiklar unga ma’qul kelibdimi? O‘tgan yili esa eshiklarimni o‘zgartirishim kerakligini aytgandi. – Xursandchiligi ichiga sig‘may Mshvagu xotinini qo‘llariga ko‘tarib olibdi. – Bu Shaxan deganlari doimo shunday sinchkov bo‘lgan. O‘zicha bir nimalar deydiyu ma’nosini o‘zing top... Bir yil davomida o‘yladim-a, gaplarining ma’nosi nima ekan deb? Endi tushundim! Sen-chi? Tushundingmi?

- Men ham tushundim, - dedi ayol va erini mahkam quchib olibdi.

MUNDARIJA

Ehtirosli qalb sohibi ……..... 3
Mehmon 6
Jigargo’shalar 9
Arg’un Saydiq 17
Ajiqa 22
Etti o’lchab, bir kes 24
Tuxmat balosi 26
Aziz mehmonlar 27
Vasiyat 30
Kats va Xazan 32
Marshan Lashv 33
Pildir-pis ……..... 36
Donishmand Jasib 37
Echki va bo’ri 40
Meros 40
Hozirjavob Zaza 42
Garov 42
Momiq zarrasi 49
To’y 56
Kelin ko’rish marosimi ……..... 58
Boboning o’giti 60
Bug’u otilgan kun 66
Qadoqli qo’llar 70
Habiba 71
Xasa 73
Bukur 79
Esma xonim 79
Alamis 85
Amra 87
Antitsa 94
Leda …….. 98
Ikki eshik …….. 100

Mixail Lakerbay. Abxaz hikoyalari. - T., TDSHU, 2021. – 108 b.

Ushbu kitobdan taniqli abxaz yozuvchisi Mixail Lakerbayning oʻzbek tiliga tarjima qilingan ixcham, milliy ruh bilan sugʻorilgan, oʻrni-oʻrnida yumorga boy hikoyalari oʻrin olgan boʻlib, ularda yozuvchi abxaz xalqining oʻziga xos xususiyatlarini ochib berishga muvaffaq boʻlganligi oʻquvchi e'tiboridan chetda qolmaydi.

Mazkur tarjima kitobi adabiyot ixlosmandlari bilan bir qatorda, xorijiy tillarni oʻqitishga ixtisoslashgan oliygoh talaba va magistrantlariga "Badiiy tarjima", "Matn stilistikasi va tahriri", "Yozma tarjimaning lingvistik tahlili", "Matn tarjimasi va tahriri" fanlarini o'qitishda manba sifatida foydalanish uchun moʻljallangan.

Tarjimon, soʻzboshi muallifi va nashrga tayyorlovchi:
Rustam Sharipov

Mas'ul muharrir:

filologiya fanlari doktori (DSc)
Xayrulla Hamidov

Taqrizchilar:

filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
Nilufar Xodjaeva;

filologiya fanlari doktori (DSc)
Hulkar Xamroeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2022 yil 7 apreldagi majlisi
qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© R.Sharipov, 2022
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022.